

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA’LIMI
MARKAZI

X.TULENOVA, T.XOLDAROV

TURIZM

(SAYYOHLIK)

(Qayta nashr)

3141900 — jismoniy tarbiya va bolalar sporti ta’lim yo‘nalishi
kasb-hunar kollejlari talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

UO‘K 765.5
KBK 75.81ya722
X 72

T a q r i z c h i l a r :

R. Abdumalikov — p.f.n., professor;

A. Abdullayev — p.f.n., professor;

A. Istomin — professor

Tulenova X.

X 72 Turizm (Sayyohlik). Kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma / X.Tulenova. T.Xoldarov; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, O‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. — T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013, -144 bet.

Xoldarov T.

Respublikamizda aholini, ayniqsa, yosh avlodni turizm vositasida tarbiyalash bo‘yicha katta tajriba to‘plangan. Bugungi kunda uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari kengaydi va bu to‘liq zaruriyatga aylandi. Ushbu qo‘llanma respublikamizda turizmni rivojlantirish va turizm bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash uslubiyatini yanada takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Qo‘llanmadan umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilari va o‘qituvchilari, shuningdek, havaskor sayohatchilar foydalanishlari mumkin.

UO‘K 765.5
KBK 75.81ya722

ISBN 978-9943-13-170-5
ISBN 978-9943-13-458-4

© «IQTISOD-MOLIYA», 2010
© «IQTISOD-MOLIYA», 2012
© «IQTISOD-MOLIYA», 2013

KIRISH

Respublikamizda jismoniy madaniyat va ommaviy sportni rivojlantirishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining soha bo‘yicha qabul qilingan qarorlari (masalan, Ta‘lim (1997), Kadrlar tayyorlash (1997), Jismoniy tarbiya va sport (1999), Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risidagi (2002) va boshqalar) buning yaqqol dalilidir.

Jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlashda “Turizm” va uni o‘qitish uslubiyati fani alohida o‘rin tutadi. Chunki turizm fani jarayonida o‘rganilgan ilmiy, nazariy ma‘lumotlar va amaliy ko‘nikmalar yosh mutaxassis — o‘qituvchilarni, maktab o‘quvchilarini har tomonlama tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm jismoniy madaniyatning o‘ziga xos vositalaridan biri bo‘lib, u yoshlarni mehnatsevar va vatanparvar, rostgo‘ylik, sadoqat, o‘zaro ishonch, tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga katta yordam beradi. Shuningdek, turistik sayohatlar jarayonida o‘quvchilarda mardlik, jasurlik, chidamlilik, kuchlilik, keskin vaziyatlarda zarur qarorga kelish kabi ruhiy va jismoniy sifatlarni ham tarbiyalash imkoniyati juda keng. Avestoda “Har kim o‘zi yashayotgan joyni dunyoning eng go‘zal joyi deb bilmog‘i kerak”, — deb yozilgan. Shunday ekan dunyoning eng go‘zal joylaridan bo‘lgan O‘zbekistonning tabiati va hayvonot dunyosi takrorlanmasdir. Respublikamizda hali yaxshi o‘rganilmagan, inson oyog‘i yetmagan joylar juda ko‘p. Turistik sayohatlar va ularni tashkil qilish, o‘tkazish bo‘yicha respublikamizda katta tajriba to‘plangan. Bugungi kunda bu tajribalarni yanada rivojlantirish, uni zamonaviy darajaga ko‘tarish zaruriyati tug‘ildi.

Turizm sayohat demakdir. Uning mazmunida dam olish, hordiq chiqarish, jismonan chiniqish, o‘lkani o‘rganish, ijtimoiy-foydali mehnat qilish, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash, (ekologiya), ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy jarayonlar mujassamlashgan.

Ularni amalga oshirishda tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, sayohatning bu yo'nalishidagi vositalaridan jahondagi ko'p mamlakatlarda maqsadli foydalanib kelinmoqda. Shu sababdan turizmning o'ziga xos tarixiy rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy faoliyatlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Turizm shaklan sayr (ekskursiya), sarguzashtlar (путешествие, экспедиция) va piyoda yurish (пешеход) kabi turlarni o'z ichiga olib, mazmunan esa insonlarning bilim doirasini kengaytirish, aqlidroki (tafakkur) rivojlantirish hamda jismoniy barkamollikni tarbiyalash kabi eng muhim vazifalarni hal qilishni o'zida qamrab oladi.

E'tirof etish lozimki, sayr-sayohatlar (ekskursiya) xalqaro miqyosdagi eng ommaviy-madaniy tadbirlardan biridir. Tarixiy-madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan tanishish, zamonaviy qurilishlar, hashamatli uylar, chiroyli bog'-rog'lar, millatlarning urf-odatlarini o'rganish kabi sohalar sayohatchilarning diqqat-e'tiboridan keng joy oladi. Bunda ulovlardan (transport) foydalanish, moliyaviy xarajatlar, yashash joylari hamda oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, madaniy xizmatlar ancha ustuvor tashkiliy faoliyat hisoblanadi.

Ommaviy piyoda yurish sayohatlari asosan tog'li manzaralar, daryo, ko'l, suv omborlari sohillari kabi xushmanzarali joylarga tashkil qilinadi. Bunda tabiat bilan tanishish, so'lim, go'zal manzarali joylarda tunash, ovqatlanish, jismoniy mashqlar, turli amaliy harakatlarni bajarish bilan jismonan chiniqish asosiy maqsad hisoblanadi. Bu sohaning ham o'ziga xos tashkiliy muammolari mavjuddir.

O'zbekiston geografik joylashuvi va tabiiy muhiti hamda tarixiy obidalarga boy bo'lgan shaharlari sayr-sayohatlar (piyoda yurish) uchun juda qulay hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar. Toshkent, Navoiy, Guliston kabi zamonaviy shaharlarning ko'rki va yangi jamoli faqat mamlakatimiz aholisining emas, balki xorijiy mamlakatlarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi.

Farg'ona vodiysidagi yam-yashil tog'li manzaralar, Chotqol (Toshkent viloyati hududlari), Nurota, Turkiston, Zarafshon tizma tog'lari, Surxon vohasidagi go'zal manzaralarda sog'lomlashtirish

oromgohlari, sport maskanlari (lagerlar) o'quvchi-yoshlar va talabalar hamda havaskor sayohatchilar uchun eng qulay manzillar bo'lib xizmat qilmoqda.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talablarini bajarishga tayyorgarlik mashg'ulotlarini (sayohat, gimnastika, yengil atletika, suzish va hokazo) o'tkazishda yuqorida ta'kidlangan manzillar namunali xizmat qila oladi.

O'z o'rnida aytish lozimki, yaqin o'tmishimizda (1960–1980-yillar) tashkil qilingan ommaviy sog'lomlashtiruvchi piyoda yurish sayohatlarining yo'nalishlari (marshrutlar) hali xotirdan ketmagan va sayohatchilar xaritasidan o'chmagan. Ulardan hozir ham maqsadli foydalanish mumkin bo'ladi. Shu maqsadda o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkash ommaning dam olish kuni, ta'til (kanikul) paytlarida piyoda yurish sayohatlari hamda sayrlarini (ekskursiya) maqsadli ravishda tashkil qilish lozimdir.

Xulosa tariqasida ta'kidlash joizki, ta'limning uzluksizligi, barkamol avlod tarbiyasi, kasb-hunar egallashda yoshlarning jismoniy va ma'naviy salohiyatlarini tarbiyalashda sayohatlar muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan o'quvchi-yoshlar, talabalarning bilim saviyalarini oshirish, kasb-hunar yo'lidagi mehnat faoliyatlarida sayohatlarni tashkil qilish amaliyoti bilan ularni maqsadli qurollantirish buyuk kelajagimizning ravnag'iga hissa qo'shish hisoblanadi. Bunda sayohatlarning nazariy va amaliy mazmunlarini davr talablari asosida o'rgatish va qunt bilan o'rganish asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

Mazkur faoliyatlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasidagi farmonlari, hukumat qarorlari va ayniqsa, “Turizm to'g'risida”gi qonunni (1999-yil) amalga oshirish yo'lidagi barcha tadbirlarni o'rganish, ularga to'la amal qilish hozirgi davr talabidir.

Yuqorida bayon etilgan talablar, mulohazalarni hayotga singdirish uchun o'quvchi-yoshlar va talabalarni turizmning turlari, ularning mazmun va mohiyatlari bilan qurollantirish tabiiy bir holdir. Shu sababdan ushbu o'quv qo'llanma ularga to'la xizmat qila oladi, deb ishonch bildirish mumkin.

E'tirof etish kerakki, ushbu qo'llanmani tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va undagi kechayotgan tub islohotlar asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, mualliflar to-

monidan yaratilgan “Turizm” o‘quv qo‘llanmalari (1978, 1988-yillar) va dasturga (2003-yil) tayanildi.

Qo‘llanmani tayyorlashda bergan maslahatlari, bildirilgan mulohazalari hamda amaliy yordamlari uchun professor F.A.Kerimov (O‘zDJTI), dotsentlar: Ye.Yu.Daurenov, K.Rahimqulov (TDPU) va professor J.E.Eshnazarov (Samarqand DU), A.Abdullayev (Farg‘ona DU), Q.Alimovlarga (Termiz DU), professor H.A.Meliyev, dotsentlar B.A.Bo‘riboyev, O.E.Muqimov (Jizzax DPI)larga o‘z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

I bob. TURIZMNING TASHKILIIY RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Turizmning vujudga kelishi va rivojlanishi

Turizm (sayohat) ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarga ega bo'lgan nazariy va amaliy fan sifatida o'qitiladi. U o'zining ijtimoiy tizimlar (formatsiya) bilan bog'liq bo'lgan o'z tarixi hamda rivojlanish jarayonlariga ega.

Turizm umumiy ma'noda sayr-sayohatlar, sarguzashtlarni ifoda etadi. Shu sababdan ular ijtimoiy-turmush va mehnat jarayonlaridan tarkib topadi.

Turizm haqida ilmiy-ommabop risolalar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar juda ko'p. Ularning mazmunida turli yoshdagi kishilar va aholining talablariga qarab sayr-sayohatlarni tashkil qilish yo'llari bayon etilgan.

Turizmning vujudga kelish omillari va davrlari ijtimoiy turmush, madaniy hayot va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Eng qadimgi insonlar yashash uchun ov va mehnat qurollarini yaratishga harakat qilganlar. Shu tarzda tog'lar, daryo va ko'llarning sohillarida yashab, yovvoyi hayvonlarni ov qilganlar, ularni qo'lga o'rgatib o'z mehnatlarida foydalanganlar. Ov manzillari va dam olishga qulay bo'lgan joylarda ma'lum bir belgilarni (tur) qo'yishgan va zarur bo'lgan paytlarda ana shu joylarga kelib hordiq chiqarishgan, turli o'yinlar tashkil qilib musobaqalashishgan.

Ishlab chiqarish va mehnat jarayonlarining takomillashuvi, ov va jang qurollarini yaratishining yangi usullari odamlarning uzoq joylarga borib ov va mehnat qilishi, shu asosda eng qulay va yaxshi joylarni tanlab dam olish, hatto o'troqlashib qolishlariga olib kelgan. Shu tariqa daryolar, ko'llar, dengizlarda ov qilish, sayr o'tkazish, izlanish uchun kemalar yasab, ulardan maqsadli foydalanganlar. Bu sohada Xristofor Kolumbning Amerika qit'asiga borib qolishi (kashfiyot), turli sayohatchilarning Hindiston, Afrika, Avstraliya va boshqa qit'alar, mamlakatlarga borganligi tarixdan ma'lum.

XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator rus sayyohlari, mutaxassis olimlari (asosan harbiylar) Markaziy Osiyoning iqlimi, tabiiy boyliklari, aholining madaniyati va boshqa jihatlarini o'rganish uchun tashrif buyurishgan. Ular orasida P.P.Semyonov, Tyan-shanskiy, Prejevalskiy kabilar tog' sharoitlarini chuqur o'rganib, maxsus xaritalar tayyorlaganlar.

O'zbekistonda turizmning dastlabki rivojlanish davri asosan o'tgan asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. 1925–1930 yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya'ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta'sis etgan. Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga sayohatini (ekskursiya) uyushtirish, o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish, o'lkani o'rganish kabi tadbirlar bilan shug'ullangan. Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida (1941–1945-yillar) harbiy tayyorgarlik jarayonlarida o'quvchi-yoshlar va mehnatkashlarning topografik bilimlarini oshirishga alohida e'tibor berildi.

Atroflarni chamalab (ориентирование) topish, xaritani o'qish, mo'ljalga tez yetib borish (jismoniy harakat) kabi turistik faoliyatlarni keng rivojlandi. Bu jarayonlar o'sha davrlarda va hatto keyinchalik ham "Mehnat va mudofaga tayyor" majmuyidan o'rin oldi.

Urushdan keyingi yillarda (1950–1960-yillar) Markaziy Kasaba uyushmalarining tashabbusi bilan barcha viloyatlarda va ularning quyi tarmoqlarida turistik klublar tashkil etildi. Klublar turizm bo'yicha (piyoda yurish, tog' turizmi, velosiped turizm va hokazolarni uyushtirish) seksiyalar, to'garaklar, jamoalar tashkil etib, musobaqalar tashkil etishga kirishdi. Keyingi 30–40 yil davomida (1955–1990-yillar) Respublikalar, hududlar (Markaziy osiyo, Kavkaz, Boltiq bo'yi, O'rol, Sibir va hokazo) miqyosida slyotlar (musobaqalar) tashkil etildi. Ularning dastur mazmunida kategoriyali (darajali) piyoda yurish, tog' so'qmoqlari va dovonlaridan oshish, daryolardan kechib o'tish, arqonlarga osilib daryo, jarlarning ustidan o'tish hamda belgilangan joylarni kompas orqali va chamalab topish, gulxan yoqish, chodirlarni tez (vaqtga) o'rnatish, jarohat-

langanlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jamoaning ish faoliyatlarini ifoda etuvchi albomlarni namoyish etish, qo'shiq-raqs bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish kabi ko'p qirrali ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlar o'rin egallagan edi. Bunday nufuzli turistik tadbirlar boshlang'ich jamoalarda (ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va hokazoga) ham u yoki bu darajada o'tkazilishi odatga aylandi.

Ommaviy piyoda yurish, shahar va tarixiy yodgorliklarni tomosha qilish sayr-sayohatlari asosan quyi jamoalarda yaxshi yo'lga qo'yildi. Markaziy shaharlar, viloyatlarda tashkil qilingan seksiyalardagi terma jamoalar tog' turizmi, velosiped turizmi kabilar bilan shug'ullanib, ularda chamalab topish (ориентирование) bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil qilindi. Shu asosda yuqorida zikr etilgan turlar maxsus sportga aylandi. Ularning qoidalari (ni-zomlar) ishlab chiqilib, sport razryadlari (I-II-II darajalar, sport ustaligiga nomzod, sport ustasi, xizmat ko'rsatgan sport ustasi va hokazo unvonlar) tasdiqlandi.

Belorussiya, Boltiqbo'yi, O'rol, Sibir o'lkasida o'z hududlariga mos, asosan turizmning tog' turizmi, chamalab topish, suv turizmi kabi turlari amalga oshirildi. Kavkaz, Qirg'iziston va shu kabi boshqa tog'li hududlarda esa tog' turizmi (g'orlarni topish, qoyalarni zabt etish) ko'proq rivojlanadi. Boshqa hududlarda ommaviy piyoda yurish turizmi keng rivojlandi.

Jamiyatdagi qayta qurish (1980—1990-yillar) tadbirlari boshqa sohalar kabi turizm ishlariga, ayniqsa, jamoalarda ommaviy sog'lomlashtirish sayohatlarini tashkil qilishga salbiy ta'sir ko'rsatdi, ya'ni:

— shug'ullanuvchilarning erk va istaklarini chegaralash, moddiy-texnik ta'minotni bekor qilish, faollarning sa'y-harakatlarini to'xtatish kabi tadbirlar rasmiy ravishda amalga oshirildi. Buning oqibatlari hozirgacha turizmning rivojlanish jarayonida seziladi.

1.2. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi

O'zbekiston hududidagi sayr-sayohatlar bayon qilingan juda ko'p manbaalarni uchratish mumkin. Ya'ni qadimgi ajdodlarimiz ijtimoiy turmush kechirish davomida ko'chmanchi sifatida ham har tomonga o'tib hayot kechirganlar. Oilaviy va urug'-qabila bo'lib,

butun bor mol-mulkini turli ulovlarga (tuya, ot, eshak, xachir, ho'kiz va hokazo) ortib yaylovlar, cho'llar, tog'li joylarda qo'nib, ko'chib yurganlar.

Bunday yurish-turish albatta ularga oson bo'lmagan. Lekin tabiiy sharoitlarda, yaylovlarda mol boqish, hayot kechirish, zilol suvlardan miriqib ichish, oftob nurlarida toblanish, sut-qatiq, go'sht va mevalarni iste'mol qilishning o'ziga xos lazzatlarini tatiganlar.

Ajdodlarimizning sayr-sayohatlarini ko'z oldimizga keltirish uchun "Avesto", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Qirq qiz", "Tohir va Zuhra" kabi o'nlab dostonlar, "Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi badiiy, ilmiy, geografik asarlar misol bo'la oladi. Ayniqsa, buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temurning jahonni kezishi, Boburning Hindiston tomon sarguzashtlari va u yerda kechirgan hayotiy tafsilotlari sayr-sayohatning mazmunini yanada to'ldiradi.

Inson kamolotini ta'minlash, sihat-salomatligini doimiy ravishda yaxshilab borishda sayohatlarning (ko'l yoqalarida tunash, kemalarda yurish, tog'larga chiqish va hokazo) amaliy mohiyatlarini sharq tabobatining sultoni Abu Ali ibn Sino ilmiy jihatdan o'rganib, ularni meros qilib qoldirganligi bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

Yurtimizning geografik tuzilishi juda xilma-xildir. Ya'ni sharqda Tyan-Shan tog'larining shohobchalari (davomi), janubda Turkiston, Hisor tog'lari o'rtada esa Zarafshon, Nurota tizma tog'larining suvli hamda ko'kalamzor maydonlarida aholi ko'proq yashaydi. Shu sabab u yerlarda dam olish, hordiq chiqarish, sog'lomlashtirish maskanlari ko'plab qurilgan. Respublikaning g'arb va shimol tomonlari cho'l-sahrolar bilan tutashgan bo'lsa-da past, yassi tog'lar bilan o'ralib, Chimqo'rg'on, Arnasoy, Kattaqo'rg'on kabi suv omborlari, katta-kichik sun'iy ko'llarning nam havosi ekologik jihatdan tabiiy muvozanatni saqlab turadi. Orol dengizi muammolari ham asta-sekin hal qilinish arafasidadir.

Respublikada turizmning shakllanishi va rivojlanishi haqida bir qator ilmiy-ommabop kitoblar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilgan. Ular orasida mutaxassis olimlar R. Abdumalikov, T.X. Xoldarov va boshqalar tomonidan tayyorlangan dasturlar, o'quv-qo'llanmalar muhim ahamiyatga ega. Respublika turizmi tarixida I.G' Xolmurodov, V.I. Kucheryavix (Samarqand), V. Ratsek, A.V. Kolbinsev (Toshkent) kabi iqtidorli mutaxassislarning o'rni e'tiborga loyiqdir.

O'zbekistonda turizmni rivojlanishi yuqoridan berilgan ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatib keldi. Endilikda davr talablariga mos ravishda tarixiy shaharlarga sayr (ekskursiya) uyushtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu yo'lda katta-katta shaharlar va chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilarni Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda qabul qilish, ularga madaniy xizmat ko'rsatish borasida yuqori tajribalarga erishildi.

Mahalliy sharoitda o'quvchi-yoshlar talabalar va mehnatkashlarning sayr-sayohatlarini uyushtirish ham yuqori saviyada amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarni markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiyev va hokazo) tarixiy-madaniy joylar bilan tanishtirishda katta faoliyatlar ko'rsatildi.

O'tgan bo'limda bayon etilganidek, respublikadagi turistik faoliyatlarga asosan kasaba uyushmalari kengashlari rahnamolik qildi. Turizm ishlari asosan jamoatchilik asosida boshqarildi. Ya'ni yirik shaharlar va viloyat markazlarida tashkil etilgan turistik klublar, seksiyalar turizm harakatining asosini tashkil etdi. Ilg'or tajriba va imkoniyatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda ba'zi bir umumta'lim maktablarda turistik klub (seksiya) tashkil etildi. Ularning faoliyatida ommaviy piyoda yurish sayohati va turizm bo'yicha musobaqalar (slyot) tashkil etish, viloyat hamda respublika musobaqalarida ishtirok etish ustuvor turar edi. Bunday jamoalarda turistik faollarni (aktiv) tayyorlashga ham alohida e'tibor berildi.

Respublika turizmining rivojlanish tarixida Samarqand sayohatchi-tashkilotchilarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu to'g'rida R. Abdumalikov va T.X. Xoldarovlarning ba'zi bir ma'lumotlari bilan tanishish maqadga muvofiqdir.

Samarqand eng qadimiy shahar sifatida tarixiy obidalarga boy bo'lishi bilan jahonga mashhurdir. Shu sababdan bu yerga eramizdan oldingi 327-yilda bosqinchilik maqsadida kelgan Aleksandr Makedonskiy talon-tarojlik bilan shug'ullangan bo'lsa-da, 1865–1870-yillarda rus bosqinchilari, sobiq ittifoq davrida esa markaz rahbarlari ham shaharni va baland minoralarni ko'rib lol qolishgan.

Umuman olganda Samarqand o'zining qadimiy arxitektura qurilishi va tarixiy madaniy obidalari orqali yurtimizning shon-shuhrati hisoblanadi. Shu sababdan o'tgan davrda ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan sayr (eks-

kursiya) va piyoda yurish turizmi mazmun va mohiyat jihatdan e'tiborga loyiq edi.

Ikkinchi jahon urushidan avvalgi davrlarda (1930–1940-yillar) o'quvchi-yoshlarning piyoda yurish sayohatlari asosan Ohalik (shahardan 20–25 km janubda), Omonqo'ton (40 km janubda) va Zarafshon daryosi yoqasidagi Cho'ponota (shaharning g'arb tomonida 6–8 km) ziyoratgohiga ko'p tashkil etilgan. Ularning maqsadi atrof-muhitni o'rganish, jismonan chiniqish, o'simliklardan gerbariylar tayyorlashdan iborat edi. Urushdan keyingi dastlabki davrlarda (1950–1960-yillar) Ohalik, Mironko'l, Cho'ponota, Omonqo'ton va boshqa manzarali joylarga guruh-guruh (o'quvchi-yoshlar) bo'lib sayohat qilish odat tusiga aylandi. Ayniqsa, Omonqo'ton g'ori (1946-yilda topilgan) mehnatkashlar va o'quvchi-yoshlarning diqqatini ko'proq jalb etgan. Chunki mazkur g'orda bundan 40 ming yil avval yashagan odamlarning suyaklari topilib, uning tarixi ancha shov-shuvlarga sabab bo'lgan.

1951-yil pedagogika bilim yurti negizida jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurtining tashkil etilishi (direktori Yu.Yu. Yusupov uzoq yillar rahbarlik qildi) katta voqelik bo'ldi. Bilim yurti o'quv rejasi asosida turizm maxsus fan sifatida o'qitila boshlandi. Uni geografiya o'qituvchisi Ibrohim G'aybullayevich Xolmurodov boshqardi. Xolmurodov bilim yurtidagi 50 yildan ortiq xizmati davomida juda ko'p tajribali sayohatchilarni yetishtirish hamda ko'p mingli mutaxassis kadrlarni tayyorlashda faol xizmat qildi. E'tirof etish lozimki R.Abdumalikov (1951–1955-yillar) va T.X.Xoldarov (1965–1968-yillar) I.G'.Xolmurodovning ilk, qaldirg'och shogirdlari hisoblanadilar.

Jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurti o'quvchilari bilan “bir kunlik” (dam olish kunlari) va “ko'p kunlik” (yozgi imtihon sessiyasi oldidan) sayohatlarni o'tkazishning asosiy manzili Cho'ponota va Omonqo'ton, keyinchalik esa Ohalikda tashkil etilgan (1962-yil) sog'lomlashtirish oromgohi hisoblandi. “Piyoda yurish” sayohatlari jarayonida nazariy bilimlar (yurish, dam olish, tunash, ovqatlanish, tabiatni kuzatish va hokazo) va amaliy ko'nikmalar chuqur o'rgatila boshlandi. Shahar va viloyat miqyosida tashkil etilgan musobaqalarda (slyot) barcha o'quvchi-yoshlarni (500–600 kishi) jalb etish yo'lga qo'yildi. Iqtidorli yoshlar va havasmand turistlarni jamlab (15–20 kishi) 13–15 kun davomida Ko'likalon, Iskandarko'l,

Morg‘uzar ko‘llariga sayohat uyushtirish ishlari yaxshi natijalar bera boshladi. Natijada shahar turistlar klubi tashkil etilib (rahbar N.Boykoni) turizmni targ‘ibot qilishda muhim burilish bo‘ldi. Uning faollari V.I.Kucheryavix, B.Klimov, A.P.Avanesov kabilar ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida turistik to‘garaklar tashkil etishdi.

Samarqandda turizmning ravnaq topishi 1960–1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Jismoniy tarbiya pedagogika bilim yurti tajribalari va turizmni targ‘ibot qilishdagi ko‘pgina faoliyatlar shahardagi xotin-qizlar pedagogika bilim yurti (R.Abdumalikov), oziq-ovqat texnikumi (J.Faxritdinov), tikuv fabrikasi (R.P.Suxareva) va boshqa jamoalarda turizmning ommalashuviga sabab bo‘ldi.

Shu sababdan ham viloyat “Spartak” sport jamiyati tarkibida turizm seksiyasi (boshqaruvchi) tashkil etilib, unga A.P.Avanesov rahbarlik qildi.

Samarqand turizmining rivojlanishida xotin-qizlar pedagogika bilim yurtining faoliyati salmoqli o‘ringa ega. 1955–1960-yillarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari A.Sirojov, V.Tsintoye va rasm o‘qituvchisi S.S.Xegay boshchiligidagi Zarafshon daryosi sohillari, Afrosiyob qazilmalari va shahar ichida dam olish kunlari sayr-sayohatlar tashkil etilib, o‘quvchi qizlarning bilim doiralarini kengaytirishga xizmat qilishgan. Hatto ular Ko‘likalonga (Tojikiston) sayohat uyushtirishga muvaffaq bo‘lishgan.

1960-yil sentabrda bilim yurtiga tajribali mutaxassis R.Abdumalikov taklif etildi. Abdumalikov avvalo bilim yurtining shart-sharoitini o‘rganib chiqdi. So‘ngra Xegay va boshqa o‘qituvchilar bilan maslahatlashib birinchi marta 30 ga yaqin o‘quvchi qizlar bilan Omonqo‘tonga sayohat uyushtirildi.

Chunki, R.Abdumalikovning xotirasida (1951–1956-yillar) Omonqo‘ton chuqur iz qoldirgan edi. Sayohat mazmunli, qiziqarli bo‘lib o‘tdi. Sayohat yakunida bunday sayohatlarni har bahor va har kuzda tashkil qilish, yozgi ta’tilda esa Iskandar ko‘lga sayohat uyushtirishga kelishib olishdi. Shu tufayli bilim yurti o‘quvchi qizlari “Spartak” jamiyati turizm seksiyasi va shahar turistik klubi tomonidan uyushtirilgan qishki, bahorgi va yozgi ommaviy sayohatlarining eng faol, eng ommaviy jamoasiga aylandi. Qizlar har bir sayohatda 100-150 goho 300 dan ham ortiq tarkibda qatnashib, ko‘rik-sinovlarning g‘olibligini qo‘lga kirita boshladi. Ayniqsa, Cho‘ponota,

Xishrov GES, Ohalik, Mironko‘l kabi tog‘li hamda xushmanzarali joylarda o‘tkazilgan slyot (musobaqalar) dastur g‘oliblarini (ommayilik, albomlar namoyishi, qo‘shiq-raqs, chodir o‘rnatish, noma‘lum joyni topish, choy qaynatish va hokazo) Abdumalikov rag‘batlantirib bordi. Bu haqda bilim yurti jismoniy tarbiya o‘qituvchisi R.Abdumalikovning o‘quv qo‘llanmalari, gazetalardagi maqolalari guvohlik beradi.

Eng muhimi va e‘tiborli tomoni shundaki, R.Abdumalikov, S.S. Xegay, B.G‘aniyev rahbarligi va ishtirokida 1962–1967-yillar davomida xotin-qizlar bilim yurti o‘quvchi qizlari bilan Ko‘likalon, Iskandarko‘l, Morg‘uzar (Tojikiston), Shohimardon (Farg‘ona) va boshqa ko‘p joylarga “ko‘p kunlik” sayohatlar uyushtirildi. Shuningdek, Navoiy shahri, Moskva, Leningrad shaharlariga sayr (ekskursiyalar) tashkil etilib, o‘quvchi qizlarning bilim doiralarini kengaytirish, ularning jismoniy barkamolligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shdi.

1967-yil Samarqandda pedagogika instituti tashkil etilib, unda jismoniy tarbiya fakulteti ham faoliyat ko‘rsata boshladi. Bunda tajribali mutaxassis sifatida R.Abdumalikovning xizmatlari kattadir. Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda turizm fan sifatida o‘z o‘rniga ega edi. Shu boisdan o‘quv-amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun eng avvalo Ohalikda turistlar bazasi, keyinchalik esa “Institut yozi” oromgohi tashkil etildi. Omonqo‘tondagi sport-sog‘lomlashtirish maskanida ham oromgoh tashkil etildi. Bunda sayohatlar jarayonida tog‘ oraliqlari va cho‘qqilarida turli xil texnik mashqlar o‘rgatildi. O‘quv dasturi asosida bir haftalik amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish va sayohatlarning ahamiyatini targ‘ibot qilish maqsadida 1970-yil yozgi ta‘tilda talabalar sayohatini o‘tkazish Issiq ko‘lda (Qirg‘iziston) amalga oshirildi, sayohat jarayonida Issiq ko‘l atrofi, uning sharqida joylashgan Prijevalsk shahri bilan tanishildi. 10 kundan oshiq davom etgan bu sayohat talabalar xotirasida chuqur iz qoldirdi. Keyingi davrlarda talabalarning “ko‘p kunlik” sayohatlari yana Iskandarko‘l, Morg‘uzar ko‘llari sohillari, baland qorli tog‘ cho‘qqilarida mazmunli davom ettirildi.

O‘zbekiston turizmi turnalar kabi baland uchdi. Yuqorida ta‘kidlanganidek Markaziy “Spartak” jamiyatining turizm seksiyasi tomonidan turli hududlarda turistik slyotlar o‘tkazish davom etdi. Keyinchalik Kavkaz, Boltiq bo‘yi va Markaziy Osiyo birinchiliklari

tashkil etildi. Markaziy Osiyo hududidagi slyot Issiq ko'lda bo'lib o'tdi.

Respublika terma jamoasi (rahbar, F.Tuxvatullin) tarkibida Samarqandlik turistlar R.Abdumalikov, J.Faxritdinov, R.Suxarevalar ishtirok etishdi. Slyot avgust oyining birinchi yarmida boshlandi. Slyot dasturida turistik texnika va taktika mashqlari bilan tanishtirish, jismoniy chiniqtirish, oziq-ovqatlarni jamg'arish, topografik bilimlar va shu kabi zarur tadbirlar haqida nazariy mashg'ulotlar o'tkazildi. Amaliy mashg'ulotlar Ananyeva (Issiq ko'lning sharqiy qismi) Oqsuv darasi va dovoni, kichik Olma ota ko'li – Olmaota shahri – Medeo–Gorelnik marshruti (yo'nalishi) bo'yicha 180 km. Tog'li masofani 4 kunda piyoda o'tish amalga oshirildi. Gorelnik turistlar bazasida dam olib, hordiqalar chiqarilgach dasturning asosiy qismiga o'tildi. Ya'ni 10 dan ortiq jamoa (Moskva, Turkmaniston, O'zbekiston, Dog'iston, Omsk, Leningrad va hokazo) o'rtasida texnik musobaqalar boshlandi. Bunda 50 m uzunlikdagi sim arqonda jarlik ustidan sirpanib o'tish, tortilib o'tish, qiyaliklar va jarliklarda yugurib, belgilangan narsani chamalab topish (800 m), pastlikka tushib "jarohatlangan" kishiga tibbiy yordam ko'rsatish, chodirni tez o'rnatish va boshqa turlarda O'zbekistonlik 8 kishi (14 tadan) muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Musobaqalar tugagach, barcha jamoalar baland qorli tog' dovonlaridan oshib, tez oqar daryolarni kechib yana Issiq ko'l sohiliga (Ananyeva shahri) qaytib kelishdi. Mazkur slyotda ishtirok etgan qatnashchilar xotirasida bir umr saqlanib qolishi bilan birgalikda mamlakatda turizmni yanada ommalashtirishga katta xizmat qildi.

Respublikaning iqtisodiy, madaniy va siyosiy salohiyatining o'sarishi bilan yangi viloyatlarni tashkil qilish yuzaga keldi. 1974-yil yangi Jizzax viloyati tashkil etilib, unda Pedagogika instituti ham ochildi. Odatdagidek fakultetning o'quv rejasida turizm mustaqil fan sifatida o'qitilaboshladi. Fakultetni tashkil etish va uning faoliyatini boshqarish uchun R.Abdumalikov taklif etildi. Shu bilan birgalikda T.Xoldarov, R.Bozorov, M.Pardaqulov, A.G'ulomov kabi yosh mutaxassislar ham jalb etildi.

Avvaldan faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar X.Komilov, H.Meliyev, Sh.Hasanov, P.Rajabov kabi yoshlar yangidan kelgan hamkasblari bilan jam bo'lishib fakultet faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga kirishdilar. Qishki imtihon sessiyasi tuga-

gach (1977-yil, fevral) talabalarning bir haftalik turistik mashg'ulotini o'tkazish uchun institutning Uchma qishlog'ida (Forish tumani) joylashgan sport-sog'lomlashtirish maskaniga (oromgoh) yo'l olishdi. Maskan baland tog' oralig'idagi soy yaqinida joylashgan bo'lib 20 dan ortiq talabalar hamda o'qituvchilar R.Abdumalikov va P.Rajabovlar boshchiligidagi mashg'ulotlarda ishtirok etishdi. Ular nazariy tushunchalarga ega bo'lgach, amaliy mashg'ulotlarni bajarishdi. Bunda tog' sharoitidagi 10 km masofani yurish va yugurish bilan o'tish, 6 ta nazorat belgisini (punkt) avvaldan qo'yilgan narsani (yozma xat quti ichida) topib kelish vazifa qilib qo'yildi. Ikki jamoaga bo'lingan talabalar masofalarni belgilangan muddatda o'tib kelishdi. Qirrali toshlar, qoyalarga chiqish, jarliklardan o'tish, qiyaliklardan yiqilmay tushish kabi murakkab texnik mashqlar talabalarning mahoratini oshirish, tog' turizmi bilan shug'ullanish kabi faoliyatlarini uyg'otishga katta hissa qo'shdi.

Shu tariqa Jizzax viloyatida turizmni rivojlantirishning yangi qirralariga asos solindi.

Respublikada turistik kadrlarni tayyorlashda O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining (O'zDJTI) hissasi beqiyos kattadir. Institut tashkil topgan davrdan boshlab (1955-yil) qishki (1965-yilgacha) va yozgi ko'p kunlik turizm o'quv dasturida turizmning jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni, turizmni tashkil qilish, sayohatchilarni topografik bilimlar, ilmiy qidiruv ishlari, birinchi tibbiy yordam kabi mavzularda nazariy mashg'ulotlar va amaliy tadbirlar mazmun topgan. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilar va murabbiylarning turistik faoliyatlari takomillashtiriladi. Bu o'z navbatida barcha turdagi ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish, mehnat jamoalari va turli muassasalarda sayr (ekskursiya) va sayohatlarni (turizm) tashkil qilish yo'llarini belgilab beradi. Institutdan ko'p kunlik sayohatlar Toshkent-Xo'jakent yo'nalishida poyezdda va undan keyin Xo'jakent-Chimyon yo'nalishida piyoda borish va qaytib kelish (130 km) sharti bilan o'tkazilib kelindi. So'nggi 8–10 yil davomida esa Toshkent-Kumushkon yo'nalishida avtobusda, keyin esa u yerdagi institutning sog'lomlashtirish-sport maskani atrofida piyoda yurish bilan dastur talablari bajariladi. Bu o'quv-amaliy mashg'ulotda III bosqich talabalari ishtirok etib, avvalo hisob (zachot) va keyin esa III razryad ("Turist" insho) normativini bajarishdi. Shu tariqa mutaxassislar turistik bilim va malakaga ega bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "mehnat va mudofaaga tayyor" majmui talablari asosida deyarli barcha turdagi ta'lim muassasalarida yil davomida 1–2 marotaba ommaviy sayohatlar uyushtirilar edi. Shu sababdan o'quvchi-yoshlar va talabalarining 80–90 % sayohatlarda ishtirok etar, bu esa "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari talablarida ham o'z ifodasiga ega edi. Lekin ommaviy sayr-sayohatlarni o'tkazish talab darajasida emas. Buning u yoki bu sabablari bor. Qanday sabab bo'lmasin o'quvchi-yoshlar va talabalar jismoniy barkamollikka erishish va kelajakda mehnat jamoasida sayohatlarni tashkil etish, ularda ishtirok etish va shu bilan bog'liq faoliyatlarni boshqarish uchun turistik malakaga ega bo'lishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonning mustaqilligi va istiqlol yo'lidagi taraqqiyotida sog'lom avlod Davlat dasturi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkash ommaning sihat-salomatligini yaxshilash, ularning jismoniy barkamolligini oshirishda jismoniy tarbiyaning muhim vositasi sifatida turizm o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shu sababdan barcha aholi turizmning u yoki bu turi bilan shug'ullanishlari maqsadga muvofiqdir.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Turizm tushunchasi nimalarni bildiradi?
2. Turizm qanday paydo bo'lgan va uning rivojlanishiga nimalar sabab bo'lgan?
3. Turizmning ekskursiyadan farqi nimada?
4. Turizmning qaysi xususiyatlarini bilasiz?
5. O'zbekistonda turizm qachondan buyon mavjud?
6. Turizmni ifodalovchi qanday manbaalarni bilasiz?
7. Abu Ali ibn Sino turizm haqida nimalarni tavsiya etgan?
8. Turizm fan sifatida qayerlarda o'qitiladi va uning mazmuni nimalardan iborat?
9. Davlat tilida yaratilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar va ommabop risolalardan qaysi turlarini bilasiz, ularning mualliflari kimlar?
10. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarida turizmning (sayr-sayohat) ifodalanishi nimalarga qaratilgan?

1.3. O‘zbekiston mustaqilligi davrida turizmning yangi yo‘nalishlari va ularning istiqbollari

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “Jamiyatni ma’naviy yangilashdan ko‘zlangan bosh maqsad—yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘-rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat”, — deb mustaqillik jarayoni haqida fikr bildirgan. Bunda turizm, ayniqsa, xalqaro turizmning o‘ziga xos xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlari davlat tasarrufidagi ko‘p sohalar, boshqaruv organlari faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlar uning asosini tashkil etadi. Fan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy madaniyat va sport kabi eng muhim sohalar insoniyat uchun eng zarur hayotiy tadbirlar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston mustaqilligi yangi yo‘nalishdagi va o‘z istiqboli-dagi ijtimoiy-madaniy hayotga yo‘l ochdi. Shu asosda deyarli barcha sohalarda tub islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. Ta’lim, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash tizimi, madaniyat va boshqa sohalardagi islohotlar o‘zining ijobiy va samarali natijalarini bermogda.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonunida (12-modda) belgilanganidek, “Sanatoriy-kurort muassasalarida, dam olish uylari va turistik bazalarda jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish ishlari” muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlardan biridir. Shu sababdan “Barcha sanatoriy-kurort muassasalarida, dam olish uylari va turistik bazalarda jismoniy tarbiya moddiy bazasi hamda yakka tartibda va guruh bo‘lib o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari uchun shart-sharoit yaratiladi”, — deb alohida ta’kidlangan. Buning boisi shundaki, sayohatlar sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya vositalarining muhim tarkibiy qismidir.

Aholining barcha qatlamlarida sog‘lomlashtirish, hordiq chiqarish va ko‘ngil ochish tadbirlarini yanada keng yoyish, bunda sayr-sayohatlarni (turizm) maqsadli tashkil qilishga katta e’tibor berilmoqda.

Buyuk kelajak avlodlarini tarbiyalab yetishtirish, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotini oshirishda sayohatlarning barcha turlari hamda shakllaridan keng foydalanish ko'zda tutilmoqda.

O'zbekistonning mustaqilligi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalarni kuchaytirish hamda ularning ko'lamini kengaytirishni taqozo etmoqda. Xalqaro madaniy aloqalar mazmunida tarixiy shaharlar, avlod-ajdodlardan meros bo'lib qolgan turli xil obidalar, zamonaviy koshonalar, muzey, teatr, sport inshootlari, aholi istiqomat qiluvchi joylari muhim o'rinlarni egallaydi. Shu sababdan bu sohalarni yangilash, ta'mirlash, sayqal va zeb berish, ayniqsa, sayohatchilar va mehmonlarga turistik xizmatlarni yaxshilash talab darajasida bo'lmog'i zarur.

Ana shunday keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarni tashkil qilish va uyushtirish maqsadida Respublikada "O'zbekturizm" kompaniyasi tashkil etildi (1995-yil).

Uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilganligini eslatish lozim:

1. Aholining madaniy dam olishlari va sayohat qilishlarini ta'minlash.

2. Qadimiy buyuk ipak yo'li o'tgan shaharlarga aholining sayr-sayohatlar qilishiga shart-sharoitlar yaratish.

3. Ulug' allomalar xotirasiga bag'ishlab qurilgan maqbaralar, yodgorlik maskanlari va hokazolarga ziyorat qilish uchun sayohatlar uyushtirish.

4. O'quvchi-yoshlarning tarixiy yodgorliklarni sayohatlar orqali o'rganishi va sayr qilib, dam olishlarini ta'minlash.

5. Xalqaro turizmni rivojlantirish, chet mamlakatlarga sayohat qilish, chet eldan keladigan sayohatlar guruhini ko'paytirishga alohida e'tibor berish.

6. Tijorat, o'zaro hamkorlik va boshqa maqsadlarda sayohat tadbirlaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish.

7. Turizm bo'yicha madaniy xizmatlarni kengaytirish, ularga yoshlarni jalb etish va mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlarini jadal-lashtirish va hokazolar.

Ta'kidlash zarurki, mustaqillik sharoitida sayohatlarga bo'lgan talablar avvalgi davrlardagi turizmdan keskin farq qilmoqda. Bular o'z navbatida Respublikada turizmni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari hamda shakllarini ochib bermoqda. Bunday jarayonlarni

yanada rivojlantirish masalalari Respublika hukumatining diqqat-markazida turibdi. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida" va 1999-yil 30-iyundagi "O'zbekistonda turizm uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 2-iyuldagi 324 sonli Qarori va boshqalarda ko'rish mumkin. 1999-yil 2-iyuldagi qaror asosan mamlakatda turizm bo'yicha zamon talablari darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta'lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsad qilib qo'yilgan. Shunga ko'ra:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi bilan birgalikda 1999-yil 1-avgustga qadar tuzilgan rejalari amalga oshirilib, ya'ni:

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tarkibida xalqaro turizm fakulteti faoliyat ko'rsatib turibdi.

Toshkent shahar mehmonxona xo'jaligi va turizm litseyi negizida Toshkent turizm kasb-hunar kolleji tashkil qilindi.

2. Toshkent Madaniyat institutidagi turizm fakultetiga rejalashtirilgan qabul (80 ta) Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetiga o'tkazilsin, degan ko'rsatmalar amalga oshirildi.

3. Termiz, Shahrisabz, Samarqand shaharlarida turizm kasb-hunar kollejlari tashkil etildi.

Ushbu qaror (5-band)da ko'rsatilishicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi turizm sohasidagi ta'lim muassasalariga har tomonlama yordam berishlari ta'kidlangan. Bunday ma'muriy va tashkiliy ishlarni bajarishdan maqsad shundaki, Respublikada turizm xizmatlari hamda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy faoliyatlarni yuqori darajaga ko'tarishdan iboratdir. Bu bilan yurtimiz shon-shuhratini jahonga tanitishdagi faoliyatlarda turizm muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilganligini bilish va anglash qiyin emas, albat-ta. Respublikaning barcha ijtimoiy-madaniy salohiyatlarini yuqori

darajaga ko'tarish, ayniqsa, aholi o'rtasida turizmni ommalashtirish asosiy tadbirlardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan uni huquqiy kafolatlash davri yetib keldi. Buni esa O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni (1999-yil 20-avgust) misolida ko'rish mumkin. Bu qonun 22 moddadan iborat. Ularning ba'zi bir o'ta muhim jihatlarini namuna tariqasida keltiramiz:

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

3-modda. Asosiy tushunchalar. Turizm—jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketish (sayohat qilish): turist — O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs.

Ekskursiya faoliyati — turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi.

11-modda. Turistik sayohat va turistik xizmatlar majmuyi. Turistik sayohat yakka tartibda yoki turistik guruh tarkibida amalga oshiriladi. Turistik xizmatlar majmuyi transport xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Qonunning boshqa moddalarida turistlar va turistik tashkilotlarning huquqlari, vazifalari, turli xil shartnomalar va ular bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlar o'z ifodasini topgan.

Mazkur qarorlar va qonun asosida uyushtiriladigan turizm asosan davlat ahamiyatiga molik bo'lgan tadbirlardir. Bular asosan yo'llanma (путевка) va ruxsatnomalar (лицензия) orqaligina amalga oshiriladi va turli xil ulovlarda (samolyot, poyezd, avtobus, yengil mashinalar va hokazolar) yurish orqali amalga oshiriladi.

E'tirof etish lozimki, jahondagi juda ko'p mamlakatlarda, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida (MDH) turizmning bu shakllari bilan bir qatorda havaskorlik turizmi (piyoda yurish, toqqa

chiqish, transportlarda yurish, daryo, ko'llar va hokazolarda sayr qilish) ham asosiy hisoblanadi. O'zbekistonda havaskorlik turizmining shakllanishi va uning rivojlanishida kasaba uyushmalari tashkilotlari g'amxo'rlik qilib kelganligi yuqorida bayon etildi. Lekin mustaqillik davrida havaskorlik turizmi shaklan va mazmunan o'z kuchini qisman pasaytirdi. Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Ya'ni moddiy ta'minot, transport, jihozlar, xavfsizlikni saqlash, tashkiliy va xo'jalik ishlari hamda boshqa ko'p muammolar vujudga keldi. Shunga qaramasdan aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi-yoshlarning jismoniy kamolotini ta'minlash yo'lida turizmning o'rni va mohiyati yo'qolgan emas. Bular davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunday ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish maqsadida "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari majmuyi ishlab chiqilib, u 2000-yil 1 martdan boshlab amalga oshirib kelinmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, bunda barcha yoshdagi (6 yoshdan 60 yoshgacha) kishilar uchun mo'ljallangan sinov me'yorlar tarkibida sayr-sayohatlar (piyoda yurish) o'rin egallagan. Ularni namuna qilib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

1. Boshlang'ich sinf (I-IV) o'quvchilari uchun dam olish kunlarida 2—5 km masofalarga sayr (ekskursiya) tashkil qilish, piyoda yurish bilan atrof-muhitni kuzatish, tanishish.

2. V-VII sinf o'quvchilari bilan ta'til paytlarida 10—12 km masofalik joylarga sayohat tashkil qilish yoki o'quv yili davomida kamida 2—3 marotaba 3—5 km masofaga sayohat qilish. Bunda turistik sharoitlar, jihozlar, chodir o'rnatish malakalarini oshirish.

3. VIII-IX sinflarda dam olish kuni sayohatlarini (yil davomida 2—3 marotaba) o'tkazish va 20—25 km uzoq masofalarga piyoda yurish. Chodir o'rnatish, kompas va boshqa vositalar orqali chalamalab topish, madaniy dam olish va hokazolarni o'rganish.

4. Akademik-litseylar (yuqori sinflar), kasb-hunar kollejlari o'quvchi-yoshlari hamda Oliy ta'lim muassasalarining talabalari tunab kelish sayohatida qatnashishlari, turistik texnika bo'yicha musobaqalarda ishtirok etish va boshqa talablarni bajarishlari ko'zda tutilgan.

5. O'rta va katta yoshdagi kishilar ham dam olish kunlari hamda tunab kelish sayohatlarida faol qatnashishlari tavsiya etilgan.

Maxsus testlardagi turistik talablar va sinov me'yorlari shug'ullanuvchi yoki qatnashchilarning yoshi, jismoniy tayyorgarligi, jinsi

hamda sayohatlarga qiziqishlarini e'tiborga oladi. O'z navbatida ularning jismoniy jihatdan rivojlanishi, salomatlikni yaxshilash, chiniqish kabi sifatlar hamda o'zaro hamkorlik, do'stlik, o'lkani o'rganish bilan Vatanga mehr-muhabbat, sadoqat, ekologik muhitni saqlashga ko'maklashadigan nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, ularni boyitish fazilatlarini ham mujassamlashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda turizm Respublikamiz aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yanada mustahkamlashga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shmoqda. Bu yo'lda Respublikamiz Prezidenti va hukumati tomonidan olib borilayotgan turli-tuman tadbirlar, bevosita g'amxo'rliklar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

E'tirof etish kerakki, Islom dini olamida haj safarlari, ziyorat qilish, ulug' allomalarni eslash kabi jihatlar ancha ustun turadi. Bunday mo'tabar tadbirlarni o'tkazishda yurtimiz fozillari, ulamolari va turli sohadagi kishilar faol ishtirok etmoqda. Samarqanddagi tarixiy yodgorliklar, ayniqsa, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda, Bibixonim, Registon, Xo'ja Ahror, Imom al Buxoriy kabi ulug' zotlarning ziyoratgohlari, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlardagi tarixiy-madaniy yodgorliklar faqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo xalqlarinigina emas, hatto Arab mamlakatlari, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Angliya va jahondagi juda ko'p davlatlarning diqqatini o'ziga jalb etmoqda.

O'z navbatida yurtimiz aholisi haj qilish maqsadida Saudiya Arabistoni va boshqa arab mamlakatlariga sayohat qilishi yaxshi yo'lga qo'yildi.

Ziyolilar, yirik mulkdorlar, tijoratchilar va o'quvchi-yoshlar, talabalar ham xizmat yuzasidan turli sayohatlarda faol ishtirok etmoqda. Bu jihatdan olib qaraganda sobiq Sovetlar davridagi turizmdan hozirgisi ancha boy, keng qamrovli, buyuk maqsadlar yo'lida yangilanib borayotgan, oldingidan keskin farq qiluvchi sayohatlardir.

O'quvchi-yoshlar va mehnatkash aholining sevimli sayohatlari-dan biri piyoda yurish, toqqa chiqish, ot va boshqa ulovlarda go'zal manzarali tabiat qo'ynida sayohat qilish kabi faoliyatlar ham yangi shakl va mazmunga ega bo'lib, ular ham ommalashmoqda. O'quvchi-yoshlar va talabalarning yozgi sog'lomlashtirish va dam olish oromgohlaridagi sayohatlari o'ziga xos mazmunga ega bo'lmoqda.

Aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi-yoshlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalashda turizm o'z mavqeyi va maqomiga erishmoqda. Bu jihatlar "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari majmuyida o'z ifodasini topganligi muhim ahamiyatga egadir.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Qadimgi ajdodlarimizning sayohatlari qanday ifodalangan, ular bizgacha qanday yetib kelgan?
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda sayohatlar bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rildi?
3. Sayohatlarning hozirgi davr talablari nimadan iborat?
4. Xalqaro turizm tushunchasini ifodalang.
5. Sayohatbop maskanlarni eslatimg.

II bob. TURIZMNING SHAKLLARI VA TURLARI

2.1. Turizmning shakllari haqida tushunchalar

Turizm amaliy harakatlar va tadbirlar yig'indisi sifatida jismoniy tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Uning ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtiruvchi xususiyatlari shaklan va mazmunan jamiyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega. Ya'ni u sayohatlar jarayonida bilim va amaliy malakalarni oshirish yo'li bilan ishlab chiqarish sifatini yaxshilash hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bevosita xizmat qiladi. Ta'kidlaganimizdek turizm o'z shaklini sayr (ekskursiya) va sayohatlardan ifoda etadi.

Sayrlar (экскурция)ga qo'yilgan maqsadlar asosida shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi va salomatligiga qarab tadbirlar uyushtiriladi. Ularning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi sayrlar.
2. Maktab o'quvchilarining sayr-sayohatlari.
3. Mehnat jamoalari xodimlarining sayr-sayohatlari.
4. Aholi istiqomat joylaridagi kishilarning sayr-sayohatlari.
5. Xorijiy mamlakatlardan kelgan mehmonlarning sayrlari.

Sayrlarni tashkil qilishning asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Shug'ullanuvchilarning (qatnashchilar) sihat-salomatligini yaxshilash uchun piyoda kechish, qulay joylarda mashqlar, o'yinlar o'tkazish.

2. Atrof-muhit va tabiat manzaralari bilan tanishtirish, e'tiborga loyiq aholi yashaydigan joylarni o'rganish.

3. Tarixiy va madaniy obidalarni tomosha qilish va ularning tarixini o'rganish.

4. O'zi yashab turgan joylarning (yosh bolalar uchun) tarixi, rivojlanishi va mehnatkashlarning xizmatlarini o'rganish (bilish).

5. Ilmiy izlanish ishlarini (mutaxassislar) olib borish va hokazo.

E'tirof etish lozimki, mazkur sayrlar nazariy bilim (tushuncha) va amaliy malakalar hosil qilish yo'lida ta'lim-tarbiya vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda qatnashchilarning sihat-salomat-

ligini yaxshilash, jismonan barkamolligini o‘stirishga qaratiladi. Demak, turizm shakl va mazmun jihatdan tarbiyaviy hamda sog‘lomlashtiruvchi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirish bilan muhim ahamiyatga egadir.

Sayr qilishda (ekskursiya) qatnashchilarning belgilangan joyga yetib borishi, ulovlarga chiqish va tushishlari, sayr-sayohat manziliga kirish va bevosita sayr-sayohatlarda ishtirok etish jarayonida piyoda yurish asosiy o‘rinda turadi. Chunki, erkin ravishda barcha faoliyatlarni bajarish, yuklarini ko‘tarib yurish, tomosha-sayr jarayonlarida faol qatnashishda sharoitlarga qarab tez yoki sekin yurish, to‘xtash, ba‘zan yugurish ham amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ham sayohatchilarning salomatligini yaxshilash, faol amaliy harakatlar qilishga ko‘mak beradi.

Xulosa qilib aytganda turizmning sayr-sayohat va piyoda yurish shakllari mazmun va mohiyat jihatdan o‘z xususiyatlariga egadir. Ularni maqsadli uyushtirish va olib borishda mutasaddi xodimlarning o‘z mas‘uliyatlarini bajarishi juda muhim.

2.2. Turizmning turlari va ularning ahamiyati

Turizm mazmun jihatdan keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatga ega bo‘lgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Insonlarning amaliy faoliyatlari, ijtimoiy-turmush sharoitlari, tabiat manzaralariga qiziqishlari va boshqalar juda ko‘p sohalarni e‘tiborga olgan holda turizm ko‘p tarmoqli soha ekanligini bilamiz. Ularning eng asosiy turlari quyidagilardan iboratdir:

1. Piyoda yurish sayohati.
2. Tog‘larda yurish sayohati.
3. Qoyalarni zabt etish sayohati.
4. Chamalab topish (ориентирование) sayohati.
5. Tezoqar daryolarda eshkak eshish sayohati.
6. Ulovlarda (avto, moto, velosiped va hokazo) yurish sayohati.

Ta’kidlash lozimki, mazkur turlar mazmun jihatdan bir-biridan tubdan farq qilishi va tartib qoidalarining o‘ziga xosligiga qarab ular mustaqil sport turlari hisoblanadi.

Piyoda yurish sayohatida uning shakllariga (bir kunlik, ko‘p kunlik) qarab masofalar belgilanadi va ma’lum darajada talablar qo‘yiladi. Ularni tashkil qilish va o‘tkazish haqida IV bobda to‘xtalib o‘tamiz.

Tog' turizmi (tog'larda yurish sayohati) piyoda yurish sayohatining davomidir. Ya'ni barcha harakatlar bunda takrorlanadi. Faqat kategoriyalar (qiyinchilik darajalari: 1, 2, 3, 4, 5, 6) jihatdan boshqa turizmlardan farq qiladi. Aniqroq aytganda balandligi 1,5–5 km (den-giz sathiga nisbatan) tog'larga chiqish, dovonlardan oshish, tez-oqar suvlardan kechib o'tish kabi murakkab harakatlar bajariladi.

Qoyalarni zabt etish turizmi (скалолазание) piyoda yurish va tog' turizmi bilan bevosita bog'liqdir. Faqat tik qoyalar, qoyalarga tirmashib chiqish (arqonlar, himoya vositalari va hokazo) bilan tubdan farq qiladi.

Chamalab topish (ориентирование) turizmi ham piyoda yurish, tog' turizmi bilan bevosita bog'liqdir. Ya'ni ma'lum maso-falarni piyoda o'tish, to'siqlar, dovonlardan oshish hollari bunda ham qo'llaniladi. Boshqa turizm turlaridan farqli o'laroq, bunda xarita, chizma, kompos, quyosh, oy, yulduz va hokazo vositala-ridan foydalangan holda manzilga yetib borishdir. Ya'ni noma'lum va notanish joylarni topish asosiy faoliyat hisoblanadi. Turizmning bu turidan piyoda yurish, tog' turizmi va boshqa turizmlar bo'yicha o'tkazilgan maxsus musobaqalarda (slyotlar) keng foydalaniladi.

Turizmda avtomobil, mototsikl, velosiped kabi ulovlarda yurib sayohat qilish ham muhim o'rinlarni egallaydi. Tez oqar daryolarda qayiq, eshkak, sol va shunga o'xshash moslamalarda o'tirib sayohat qilish ham amalda mavjud. Buning uchun katta tayyorgarliklar, jis-monan maxsus mahoratlarga ega bo'lish talab etiladi.

Ta'kidlash lozimki, turizmning mazkur texnik turlari mam-lakatimizda hali yetarlicha ommalashmagan. Shu tufayli guruh bo'lib sayohatlarga chiqish, ularni rasmiy ravishda tashkil qilish jarayon-lari juda kamdan kam uchraydi.

Xulosa shundan iboratki, turizm shaklan ko'p tarmoqli turlarga bo'linadi. Ularning mazmuni shug'ullanuvchilarning jismoniy barka-molligini oshirish bilan bir qatorda mehnatsevarlik, vatanparvar-lik, o'zaro hamkorlik va do'stlik kabi insoniy fazilatlarini tar-biyalashga xizmat qiladi.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Turizm shaklan qanday turlarga ega?

2. Turizmning jamiyatdagi o'rnini nimalardan iborat va qanday xususiyatlarga ega?
3. Sayr-sayohat tushunchalari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Turizmning asosiy turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Piyoda yurish, tog'da yurish, qoyalarga chiqish, chamalab topish kabi turizm turlarining bir-biridan farqlari nimada?
6. Qanday ulovlar va moslamalarda sayohat qilish mumkin?

2.3. Turizm turlarining tasnifi

Jahon xalqlari, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi respublikalarida turizm turlari keng ommalashgan. O'z yo'nalishi, xarakteri va faoliyat xususiyatlariga ko'ra turizm sayr qilish (ekskursiya, sayohat qilish) va piyoda yurish (poxod) shakllariga ajratiladi.

Sayr qilish — keng, ommaga qulay bo'lgan piyoda, chang'i, velosiped, qayiq va boshqa vositalar yordamida yurib sog'liqni yaxshilash, organizmni chiniqtirish maqsadida uyushtiriladigan qisqa muddatli ommabop turizm shaklidir. Turizmning bu shaklida keksa-yu yosh ishtirok etishi mumkin.

Ekskursiya — jamoa bo'lib biron obyektga (muzey, stadion, qurilishi, o'rmon va hokazo) ilmiy qidiruv yoki o'quv maqsadida, umumiy madaniy dam olish uchun o'tkaziladigan tadbirlar hisoblanadi. Bunday tadbir aholi yashab, o'qib turgan joylarga yoki boshqa shaharlarga ham borganda uyushtirilishi mumkin. Turizmning bu shakli asosan katta yoshdagi bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining talabalari orasida keng tarqalgan madaniy, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirdir.

Poxodlar — tashkiliy ravishda guruh bo'lib piyoda, velosiped, chang'i, qayiq va shu kabi vositalar yordamida jismoniy chiniqish, o'lkani o'rganish, ijtimoiy-foydali mehnat qilish maqsadida uyushtiriladi.

Turizmning turlari juda xilma-xil bo'lib u amalda tobora ortib bormoqda. Jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan olib qaralganda, ularni tayyorgarlik, haqiqiy turistik va ommaviy targ'ibot poxodlariga ajratish mumkin.

Tayyorgarlik poxodlari poxod harakatlari va organizmni katta va uzoq muddatli poxodlarga tayyorlash, ularda ishtirok etishga hozirlashda asosiy vazifalarini o'taydi. Tayyorgarlik poxodlari jarayoniga sayr qilish, ekskursiya elementlarini kiritish zarur. Bu bosqich-

ning asosiy mazmunida turistik qoidalar, poxod turmush sharoiti, yurish texnikasi, maxsus turistik faoliyatlar, yo'lni avvaldan o'rganish, razvedka qilish, dam olish joylarini tanlash va uni tayyorlash, kechki dam olish va tunashni uyushtirish, gulxan yoqish va shu kabi sohalarni o'rganish yotadi. Chidamlilik, kuchlilik, tezlik va boshqa jismoniy sifatlarni ham oshirish murakkab poxodlarda ishtirok etishni ta'minlaydi.

Haqiqiy turistik poxodlar turizmning tipik turlaridan biridir. U ko'p kun (birnecha kundan to bir oygacha) davom etib, marshrut va harakat usullarining xilma-xilligi bilan boshqalaridan tubdan farq qiladi. Ular sport klublari yoki maxsus turistik muassasalarda ro'yxatdan o'tkaziladi, shuningdek, murakkab turistik poxodlarni uyushtirish uchun yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlardan ruxsat olinadi. Bunday poxodlarni jamoatchi-instruktor, tajribali va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan turistlar boshqaradi va rahbarlik qiladi.

Sport poxodlari — bu asosan sportga taalluqlidir; bunday hollarda murakkab poxodlarning qiyinchilik darajalari, masofaning uzunligi, tabiiy to'siqlarning qiyinchilik darajalari, aholi yashaydigan joylarga yetib borish tartiblari, sinovli poxodlar soni va boshqa shartlar qo'yilgan bo'ladi.

Targ'ibot-tashviqot poxodlari — yirik ijtimoiy-siyosiy yoki sport anjumanlariga bag'ishlangan bo'lib, uning maqsadi jamoatchilik va ommani turizmga jalb etishdan iboratdir. Bunday hollarda jamoalardagi ilg'or tajribalar almashinadi, turistik harakatdagi yangi voqealar, natijalar joriy etiladi, faol turistlar turli yo'llar bilan rag'batlantiriladi. Badiiy havaskorlik jamoalarining konsert chiqishlari, sport turlari bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvlari, turistik texnika va boshqa vositalarni bilish yuzasidan musobaqalar uyushtirilishi targ'ibot ishlarining jonli, qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Ekspeditsiya — turistik sayohat bo'lib, u biron obyekt (geografik, geologik, o'lkashunoslik, tarixiy va boshqalar) o'rganish maqsadida uyushtiriladi. Bunday sayohat jarayonlarida aktiv harakat, ya'ni piyoda yurish, chang'ida va boshqalarda yurish, shuningdek, passiv harakat yo'li bilan (transportda) masofani o'tish mumkin.

Territorial belgi jihatdan turistik sayohatlar, poxodlar mahalliy va uzoq, xarakterli jihatidan esa rejali va havaskorlik turlariga egadir. Rejali poxodlar avvaldan belgilangan va faqat maxsus ishlangan marshrutlar orqaligina uyushtiriladi. Bunday hollarda turistlar maxsus jihozlar, oziq-ovqat va instruktorlar bilan ta'minlanadi.

Havaskorlik sayohatlari jismoniy madaniyat jamoalari kengashlari, sport klublari, turistlar klubi, madaniyat klublari, turistlar oromgohlari, bazalari, bolalar turistik stansiyalari, maktablar, o'quvchilar uylari va alohida turistlar guruhlaridan tomonidan uyushtiriladi.

Bunda turistlar mustaqil ravishda o'z marshrutlarini tuzadilar, poxod jarayonida o'z-o'zlariga xizmat qiladilar. Kerakli turistik jihozlar, oziq-ovqat va boshqa vositalarni o'zlari xarid qilishlari yoki ijaraga olishlari lozim bo'ladi. Sayohatning bu xususiyati ommaviy ravishda bir kunlik va birnecha kunlik poxodlar o'tkazish uchun eng qulay bo'lib, u ko'pincha ta'lim muassasalarida ko'proq uyushtiriladi. Shuni qayd qilish lozimki, kasaba uyushma tashkilotlari, sport klublari, haftada ikki kun dam olish kunlaridan unumli foydalanib, yirik korxonalar, ijodiy xodimlar jamoalari shahar atrofi joylariga poxod uyushtirish shakli keng avj olmoqda. Hatto Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Navoiy va boshqa bir qator shaharlardagi ishlab chiqarish, mehnat jamoalariga tog'li zonalarda dam olish uylari, profilaktoriylar tashkil qilib, yil davomida mehnatkashlarning hordiq chiqarishi va sayohat qilish uchun ma'lum qulayliklar yaratib berilmoqda.

Sayohatlar harakat usullariga qarab piyoda yurish, tog', suv, chang'i, velosiped, avtomobil, mototsikl va aralash turlariga bo'linadi. Sayohat qilish va uning tartiblari 1982-yil 28-noyabrda tasdiqlangan "Havaskorlik turistik poxod va sayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish qoidalari" ga asosan o'tkaziladi. Bu talablar hozirgi kunda ham keng qo'llanilmoqda. Havaskorlik sayohatlariga talabning ortib borishi bir kunlik va ko'p kunlik poxodlar o'tkazishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra ko'p kunlik sayohatlar I, II, III, IV, V qiyinchilik kategoriyalariga (darajalariga) bo'linadi. Qiyinchilik darajalari poxodlarning masofasi, to'siqlarning xususiyati va soni, har bir turning mazmuniga qarab belgilanadi. Ular haqida keyingi boblarda tegishli ma'lumotlar beriladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning sharoitlari hamda imtiyozlari doirasida "Sog'lom avlod" Davlat dasturida turizmdan maqsadli foydalanishi lozim. O'quvchi-yoshlar va talabalarning sog'lig'ini mustahkamlash, kasb-hunar yo'lidagi nazariy bilim hamda amaliy malakalarini takomillashtirishda sayohatlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy jarayondir.

III bob. SAYOHATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

3.1. O‘zbekistonning sayohatbop manzillari

O‘zbekistonning geografik jihatdan joylashishi va iqlim sharoiti sayohatlarning deyarli barcha turlari uchun qulay. Ayniqsa, tarixiy-madaniy obidalarga boy bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, zamonaviy inshootlarga ega bo‘lgan Toshkent shahri Respublika aholisining sayr-sayohat manzillari hisoblanadi. 2500–3000 yillik tarixga ega bo‘lgan Termiz, Qarshi, Shahrisabz, Qo‘qon, Namangan, Nukus, Urganch kabi shaharlar ham qadimiy yodgorliklari bilan ko‘pchilikning diqqat-e’tiborini jalb etadi. So‘nggi 40-50 yil ichida yangidan qad ko‘targan Yangiyer, Guliston, Navoiy, Zarafshon, Jizzax kabi shaharlar ham zamonaviy madaniy qurilish binolari, sport inshootlari, ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari va ularning mahsulotlari bilan jahonga tanilmoqda.

Respublikamizning mustaqilligi tufayli va shaharlarning bugungi ko‘rk-jamoli keskin ravishda o‘zgarib borishi tufayli aholi o‘z sayrlarini yurtimiz hududlarida o‘tkazmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalari va boshqa mustaqil davlatlarning sayyohlari O‘zbekistonning bugungi ravnaqi, istiqboli, chiroyiga havas bilan qaramoqda. Xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurayotgan mehmonlar, ishbilarmonlar, sayyohlar va rasmiy vakillar, rahbarlar ham Toshkent, Samarqand Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayr-sayohat uyushtirmoqdalar. Sayyohlarni faqat tarixiy-madaniy yodgorliklarga emas, balki osmono‘par, baland arxitektura qurilishlari, sport komplekslari, yirik sanoat ishlab chiqarish korxonalari, shaxsiy firmalar, qo‘shma korxonalar, savdo, tijorat maskanlari, oliy ta’lim muassasalari, shifoxonalar, teatr va madaniy istirohat bog‘lari, ulardagi an’anaviy milliy bayramlar (“Navro‘z”, “Mustaqillik kuni”, kurash, tennis va boshqa xalqaro turnirlar, turli sport musobaqalari) ham ko‘proq qiziqtirmoqda. Buning asosiy saba-

blaridan biri shundaki, ommaviy tadbirlarning tashkiliy jihatlari, milliy xususiyatlari hamda ta'lim-tarbiya va sihat-salomatlik yo'lidagi foydali ishlar diqqatga sazovar bo'lmoqda. Bunda Respublika Prezidenti I.A. Karimov va uning safdoshlari katta faoliyat ko'rsatayotganligi e'tiborga loyiqdir.

Toshkent. O'zbekistonning poytaxti sifatida Toshkent faqat Markaziy Osiyodagina emas, hatto barcha qit'alardagi mamlakatlarga ham tanildi. Uning aholisi 2 mln dan oshiq bo'lib, 100 ga yaqin millat va elatlarning vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillik yillari davrida (1991–2010-yillar) shaharning ko'rki beqiyos darajada o'zgardi. Deyarli barcha hududlarda yangi-yangi koshonali binolar qad ko'tardi. Zamonaviy arxitektura qurilishlari (banklar, savdo-tijorat majmualari, turli idoralar, elchixonalar va hokazo) Toshkentning jamolini yangiladi. Ayniqsa, markazda qad ko'targan Konservatoriya binosi, shahar ma'muriy idoralari, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, "O'zbekiston", "Jar" sport majmualari sayohatchilarning gavjum maskaniga aylandi.

Jahondagi Islom dini fozillari va ulamolari Ko'kaldosh madrasasi, Xastiimom masjidi va Islom universitetiga tashrif buyurganda o'zbek millatining ulug'ligiga shahodat bo'lmoqda.

Toshkentning qaysi dahasi va mavzesiga bormang ko'p qavatli uylardagi aholining tinch-totuv yashashi, sog'lom turmush tarzini kechirayotganining guvohi bo'lasiz.

Teatr, sirk, muzeylarda tinimsiz ravishda odamlar oqimiga duch kelasiz. Umumta'lim maktablarining o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari yoshlari, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'quv dargohlarida shodon kezib, o'qib ilm olib yurganligiga havasingiz keladi. Keng ko'chalar, xiyobonlardagi savdo do'konlari, har qadamda uchraydigan dehqon bozorlarida odamlar zich, qadam tashlashga joy yo'q, desa bo'ladi.

"Mustaqillik" va "Navro'z" bayramlarida Alisher Navoiy bog'i, Mustaqillik maydonlari va shaharning barcha katta maydon – xiyobonlarida bayramlar zo'r tantana bilan o'tkazilmoqda. Yangi o'quv yilining boshlanishi, o'zbek kurashi, tennis, futbol va boshqa sport turlari bo'yicha o'tkazilayotgan rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar jarayonlari ham zo'r tantana bilan tashkil etilib bayram tusini olmoqda.

E'tiborli tomoni yana shundaki, avvallari boshqa nom bilan yuritilgan shoh ko'chalar, mahallalar, ta'lim muassasalari endilik-

da mahalliy ulug' zotlarning nomiga qo'yildi. Masalan: Amir Temur ko'chasi (Engels), Buyuk Ipak yo'li (Sh.Rustaveli), Sh.Rashidov ko'chasi (Lenin) va hokazo.

Kitob do'konlari va rastalari hamda aloqa tarmoqlarida davlat tilidagi kitoblar, jurnallar, gazetalar va turli o'quv qurollari asosiy mahsulotlarni tashkil etadi. Xullas Toshkent sayohatchilarining eng go'zal va diqqatga sazovar maskaniga aylanmoqda.

Samarqand shaharining tarixi ming yilliklar bilan bog'langan. Mutaxassis olimlar Samarqandni Rimning tengdoshi deb yuritadilar. Bunda bir haqiqatni eslashga to'g'ri keladi. Aleksandr Makedonskiy eradan avvalgi 327-yillarda Samarqandni bosib olish uchun yurish qiladi. O'sha davrda shahar hozirgi Afrosiyob qazilmalari tepaliklarida joylashgan. Bu joyning o'sha zamonlar taqazosiga mos ravishda ekanligi strategik (himoya va hujum) ahamiyat kasb etgan. Ya'ni shahar juda katta qal'ani tashkil etgan. Afrosiyobning butun aylanasi chuqur jarliklar (50–60 m, chamasi) bilan o'ralib, uning shimoliy-sharq va janub tomonlarida keng yo'llar bo'lgan, ya'ni aholining kirib-chiqishi, ayniqsa, qadimgi Buyuk Ipak yo'lining bu joydan o'tishiga shart-sharoitlar yaratgan.

Qal'aning mustahkamligi tufayli Makedonskiyning askarlari uzoq vaqtlar shahar atrofini kezib yurishgan. Kuchlar teng bo'lmaganligi sababli yovuz dushmanlar qal'aning devorlarini buzib tashlashgan va shaharni vayron qilishgan. Shunday bo'lsa-da shaharni qayta tiklashga muvaffaq bo'lishgan. Lekin Chingizxon (XII asr) lashkarlari ham Afrosiyobga bostirib kirib, shaharni vayron qilishgan.

Shundan keyingi davrlarda (XIV–XVIII asrlar) shahar qurilishlari Afrosiyobning janub tomonidagi past-baland va tekislik joylarda (hozirgi Samarqand) davom ettirilgan. Bunda asosan Amir Temur maqbarasi (mavzoley), Registon maydoni, Bibixonim madrasasi, Shohizinda ziyoratgohi, Xo'ja Ahror Vali masjidi va boshqalarni juda ko'p tarixiy obidalar misolida ko'rish mumkin. Ular qariyb 600–500 yillardan buyon qad ko'tarib turishi bilan jahon xalqlarining e'tiborini qozongan.

Samarqandning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, buyuk allomalar Abdurahmon Jomiy, Hazrati Alisher Navoiy kabi ulug' zotlar ijod qilgan. Islom dini shuhratini oshirishda Xo'ja Ahror Vali, Motrudiy kabi shayxlar xizmat qilishgan. Koinotni o'rganishda ja-

honga mashhur bo'lgan Mirzo Ulug'bek Samarqandga 40 yil podsholik qilgan. Ularning qoldirgan ulkan masjidlari, turli qurilish binolari shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Samarqandning qadimgi tarixi va hozirgi ravnaqini ifoda etuvchi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi Afrosiyob sayyohlari uchun xizmat qilmoqda. Universitet, tibbiyot, savdo, arxitektura, qishloq xo'jaligi, chet tili va shu kabi institutlari, o'nlab kasb-hunar kollejlarning zamonaviy binolari, opera va drama teatrlari, turli xil idoralarning binolari, sport komplekslar shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

Mustaqillik tufayli shaharning ichki va tashqi yo'llari qayta qurilib, avtoulavlar va piyodalar uchun qulayliklar yaratildi. 1996-yilda Universitet xiyobonining boshlanishida Amir Temur haykali o'rnatildi.

Samarqandning tarixiy-madaniy yodgorliklari va zamonaviy binolari bog'-rog'lari, behisob noz-ne'matlar bilan to'la bozorlari barchani maftun etishi bejiz emas.

Buxoro. Qadimiy azm shahar Buxoro tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan o'ziga xos bo'lgan sayr-sayohat manzilidir. Shaharning tarixi Samarqand, Termiz, Qarshi, Xiva, Urganch kabi shaharlar bilan bog'liq ravishda uzoq o'tmishdan darak beradi.

Abu Ali ibn Sino, Imom al Buxoriy (Xo'ja Ismoil) va boshqa juda ko'p ilm, tabobat, islom dini arboblari Buxoroda tahsil olgan, hayot kechirgan. 2500 yildan ortiq davrda shaharda turli qurilishlar, asosan masjid, madrasa, savdo markazlari, shohona uyjoylar, qasrlar, qal'alar qad ko'tardi. Ularning ko'pchilik qismi hozirda sayr-sayohat yo'lida xizmat qilmoqda. Shahar borgan sari ko'rkamlashib turizm shahriga aylangan.

Mustaqillik tufayli zamonaviy uy-joylar, idoralarning binolari, madaniyat markazlari yangidan qad ko'tardi. 2002-yil "Universiada" o'tkazilishi munosabati bilan sport majmualari bunyod etildi. "Buxoro" stadioni xalqaro musobaqalar o'tkazishga moslashtirildi.

Buxoroning sayr-sayohat sohasidagi yana bir e'tiborli tomoni shundaki, unda uch tomonlama temir yo'llar tutashgan. Ya'ni sharqdan Moskva, Toshkent, Farg'ona vodiysidan keladigan poyezdlar, g'arbdan esa Turkmaniston, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Uch quduq poyezdlari, janubdan esa Tojikiston, Termiz, Afg'o-

niston poyezdlari Buxoroda (Kogon bekati) tutashadi va kesib o'tishadi. Bu sayyohlar sayohat yo'lining eng qulayligini ta'minlaydi.

Buxoroga kelgan sayohatchilar tarix muzeyida shaharning o'tmishi, xonliklar davridagi madaniyat, liboslar, qurollar, keyingi yillardagi Islom dini ta'limoti, ilm-fan, san'at, ma'rifat va boshqa juda ko'p sohalaridagi erishilgan yutuqlar, meroslar bilan tani-shishga muyassar bo'ladilar.

Xiva — Urganch qadimgi va hozirgi Xorazm vohasining eng qadimiy madaniy markazi sifatida uning shuhrati olamga keng tar-qalgan. Tarixiy manbaalar, qazilmalarining guvohlik berishicha Xo-razm vohasi 3 ming yillik tarixga ega. Buni "Avesto" kitobidagi (3ming yil avval yaratilgan) diniy qarashlar, urf-odatlar, qabila-larning bo'linishlari, salomatlik, shifokorlik, davlatni idora etish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va hokazo misolida tasavvur etish mumkin.

Xorazm yurtimizga To'maris, Jaloliddin Manguberdi kabi qah-ramonlarni, ulug' adiblar H.Sheroziy, Mahmud Pahlavon, is-te'dodli san'atkorlar Komiljon Otaniyozov, O. Otajonov, Kom-muna Ismoilova va boshqalarni tuhfa etgan.

Xiva va Urganch shaharlaridagi qal'alar, masjidlar, maqbaralar, savdo markazlari va boshqa yuzlab tarixiy yodgorliklar ming yillik tarixga egadir. Arxeologlar, tadqiqotchilar (Pirmat Shermuhame-dov va boshqa) va tarixchilarning ta'kidlashicha Xorazm va Qora-qalpog'iston vohasi qadimgi davrlarda yam-yashil bog'lar, zilol suv-larga boy bo'lgan. Shu sababdan bu joylarda katta qal'alar, qo'rg'onlar ko'p qurilgan. Lekin ulardan birontasi ham saqlanib qolmagan. Chunki Eron, Turk, Mo'g'ul va shu kabi davlatlarning bosqinchilik urushlari barcha joylarni vayronaga aylantirgan. Shuningdek, turli tabiiy ofatlar, ayniqsa, sahro va cho'llardan esgan kuchli bo'ron, shamol, to'fonlar qum, tuproq tuz chiqindilarini uchirib kelib, butun vohani ko'mib tashlagan. So'nggi 20—30 yil davomida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida 4—5 m va undan ham ba-landroq qum uyumlari (barxan) tagida yotgan eng qadimgi shahar hamda qo'rg'onlarning devorlari, turli buyumlar, jang qurollarini topishga muvaffaq bo'lindi.

Xiva, Nukus va Urganch shaharlarning ko'rki so'nggi 10—15 yil davomida ancha o'zgardi. Yangidan qurilgan kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarining o'quv binolari, madaniy va savdo

markazlari, sport inshootlari shaharlarning zamonaviy tus olishiga hissa qo'shmoqda. Jaloliddin Manguberdi xotirasi, Ma'mun Akademiyasining tashkil etilishi, "Avesto" kitobining yozilishiga 3 ming yil to'lishi, "Umid nihollari" sport musobaqalarining o'tkazilishi, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan xalqaro kurash turnirlari va boshqa ko'plab ommaviy-madaniy tadbirlarning tashkil qilinishi Xorazm va Qoraqalpog'iston vohasining shuhratiga shuhrat qo'shdi. Bu tadbirlar asnosida o'sha yurtlarga ham sayr-sayohat uyushtirishni davr taqazo etadi.


O'zbekistonning sayr-sayohatlarga boy bo'lgan maskanlari deyarli barcha viloyatlarda mavjud. Bulardan Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlari va shu kabi kichik shaharlarda (Qo'qon, Marg'ilon, Asaka, Chust, Pop va hokazo) ham tarixiy yodgorliklar juda ko'p.

Farg'ona vodiysida Al Farg'oniy, Boborahim Mashrab, Muhammad Bobur, Hamza Hakimzoda kabi ulug' allomalar, davlat arboblari, san'atkorlarning hayoti bilan bog'liq ziyoratgoh joylar juda ko'p. Ularni faqat mahalliy xalqgina emas, balki Respublikaning boshqa hududlaridagi o'quvchi-yoshlar, talabalar, mehnatkashlar ham sayr qilib, tomosha qilsalar arziydi.


Ohangaron, Olmaliq, Bekobod (Toshkent viloyati), Sirdaryo, Guliston, Yangiyer (Sirdaryo viloyati), Zomin, Bo'ston, Paxtakor, Jizzax, Forish, Baxmal (Jizzax viloyati), Jomboy, Chelak, Qo'shrobd, (Samarqand viloyati), Xatirchi Navoiy, Uchquduq, Zarafshon (Navoiy viloyati), Qizil tepa, Qora ko'l, Kogon (Buxoro viloyati), Kitob, Shahrisabz, Qarshi (Qashqadaryo viloyati), Denov, Termiz, Jarqo'rg'on (Surxandaryo viloyati) va bu kabi juda ko'p kichik shaharlar, qo'rg'onlar ham ba'zi bir tarixiy yodgorliklar, zamonaviy xotirlash maskanlari hamda obidalarga ega. Bunday maskanlarga ham aholining sayr-sayohatlarini tashkil qilish, ularni ommaviy axborot vositalari, teleradiolarda keng targ'ibot qilish lozim. Buning negizida yoshlar va mehnatkash ommani ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ona Vatanga sadoqat his-tuyg'ularini mustahkamlash, o'tmish tariximizni o'rganish bilan avlod-ajdodlarimizga tasannolar bildirish kabi ezgu-niyatlar mavjud bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda yurtimizning har bir burchagi, bir qarich yeri aziz va mo'tabardir. Ularni ko'rish, o'rganish va e'zozlash sayr-sayohatlarning muhim qismidir.

SAMARQANDNING TARIXIY YODGORLIKLARIDAN NAMUNALAR



Registon. Sherdor madrasasi.




Amir Temur maqbarasining peshtoqi.



Amir Temur haykali.


BUXORONING TARIXIY OBIDALARIDAN NAMUNALAR




Ulug‘bek madrasasi.



“Buxoro” mehmonxonasi.





Namozgoh masjidi.



Buxoroda oqshom.



Qadimiy naqsh.

XORAZMNING TARIXIY YODGORLIKLARIDAN NAMUNALAR




Xiva manzarasi.



Naqshinkor eshik.



Xorazm Qozikalon madrasasi.



Nurillaboy saroyi.



Xivaning umumiy koʻrinishi.

3.2. Buyuk Ipak yo'li

Ipak (shoyi xomashyosi) yo'li deb atalishining asosiy sababi shundaki, qadimgi davrlarda Xitoy, Misr, Hindiston, Yevropa mamlakatlari orasida savdo ishlari olib borilgan, ularni bog'lagan oraliqlar, masofalar, turli manzilgohlar mavjud bo'lgan. Bunda karvonlarga (tuya, ot, xachir, eshak, arava va hokazo) ortilgan turli-tuman iste'mol mollari davlatlar o'rtasida oldi-sotdi qilingan. Ular orasida Xitoyning ipaklari, shoyidan to'qilgan rango-rang matolari, chinni buyumlar va boshqa turli xil narsalar asosiy o'rinda turgan. O'z navbatida Misr, Tehron, Bolqon va boshqa Yevropa mamlakatlarining rangli metallardan (oltin, kumush, mis, jez va hokazo) yasalgan qurollari, taqinchoq, bezaklari, ust-bosh, kiyimlar Xitoy tomonga boradigan karvon yo'llarida savdo qilingan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Xitoydan boshlangan Buyuk Ipak yo'lining tashkil etilishi eramizdan avvalgi II–I asrlarga to'g'ri keladi. Dastlabki davrlarda (yangi eraning X–XII asrlarigacha) karvon yo'llari asosan Markaziy Osiyodan o'tib, Misr, O'rta yer dengizi atrofi, Hindiston va ular bilan yaqin mamlakatlarni tutashtirgan. Keyingi davrlarda esa Chingizxon bosqinchiligi hamda ularning avlodlari tomonidan hukmronligi natijalari asosida shimolda yangi karvon yo'llari vujudga kelgan. Bu asosan Qozog'iston, Oltin O'rda, Kaspiy qirg'oqlari bo'ylab Yevropa mamlakatlarini birlashtirgan.

Xitoyning Markaziy Osiyo va uning janubiy tomonlarini bosib olishi natijasida karvon yo'llari Hindiqush tog'lari orqali Afg'oniston, Hindistonga ochilgan.

Kemalarning yaratilishi va mamlakatlar o'rtasida turli xil savdo-sotiq ishlari, harbiy qurollarning tarqalishi tufayli karvon yo'llariga dengiz-suv yo'llari ham qo'shilgan. Ya'ni Xitoy daryo va dengiz yo'llaridan foydalanib, o'zining buyumlarini Hindiston orqali Arab mamlakatlari va rus, yapon yo'llari orqali Yevropaga yetkazishga muvaffaq bo'lgan. O'z navbatida esa, u mamlakatlar ham shu yo'llar orqali Xitoy va uning yo'lidagi mamlakatlarga o'zlarining xaridorgir mollarini chiqarib, oldi-sotdi ishlari rivoj topgan. Shunday bo'lsa-da Markaziy Osiyodan o'tadigan karvon yo'llari o'z mohiyatini yo'qotmagan. Buning sabablari asosan ikki yo'nalishdan iborat bo'lgan. Ya'ni, birinchidan Xitoy shoyisi va chinni buyumlariga xari-

dorlar bu yoʻlda koʻproq uchragan. Ikkinchidan esa Eron, Turkiya, Misr, Bolqon mamlakatlari ishlab chiqqan metall buyumlar, jun, teri va oziqalarni savdoga olib chiqarishda bu yoʻl qulayroq boʻlib hisoblangan. Shu sababdan bu karvon yoʻllari tarixda Buyuk Ipak yoʻli nomini olgan.

Shanxay (Xitoy) va boshqa yirik shaharlardan chiqqan katta karvonlar Manchjuriya (Tibet) – Yorkent, Andijon, Qoʻqon, Xoʻjand, Xovos, OʻraTepa, Zomin, Jizzax, Sarbozor (Gʻallaorol), Bulungʻur, Jomboy, Samarqand, Kattaqoʻrgʻon, Malik choʻli, Buxoro, Ashxobod, Tehron, Misr, Damashq va Bolqon mamlakatlariga yetib borgan. Bu katta karvon yoʻlining oʻz atroflarida ham katta-kichik tarmoqli karvon yoʻllari boʻlib, mahalliy xalqlarning isteʼmol mollarini sotib olish, oʻzining mollari sotish, almashtirish, dam olish, hordiq chiqarish, joylarni oʻrganish, izlanish kabi ijtimoiy foydali turmush faoliyatlari yuritilgan. Ularni quyidagi yoʻnalish tarmoqlarida koʻrish mumkin. Yaʼni, hozirgi Oʻzbekiston hududlaridan oʻtgan Buyuk Ipak yoʻli tarmoqlari: Andijon Asaka–Namangan, Chust–Pop, Uchqoʻrgʻon, Qoʻqon, Margʻilon, Fargʻona, Shohimardon, Isfara, Konibodom (Tojikiston hududlari), Qamchiq dovoni orqali Ohangaron, Olmaliq, Piskent, Toshkent, Xoʻjand (Tojikiston) – Xovos, Oʻratepa–Zomin, Jizzax yoʻlidan; Forish, Nurota, Qozogʻiston choʻllari. Jizzax–Sarbozor, Bulungʻur–Jomboy–Samarqand yoʻlidan; Gʻazara, Chelak, Ishtixon, Mitan, Qoʻshrobod, Nurota, Samarqand: Qorataxtacha (Omonqoʻton) dovoni orqali Kitob, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Samarqand–Buxoro yoʻlidan: Katta qoʻrgʻon, Oq tosh, Xatirchi, Narpay, Karmana (hozirgi Navoiy shahri) – Qiziltepa, Qorakoʻl, Olot va hokazo.

Eʼtirof etish lozimki, Buyuk Ipak yoʻlining Oʻzbekiston hududlaridan oʻtishi faqat savdo-sotiqdagina emas, balki ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlarini yaxshilash, xalqaro aloqalarni bogʻlash, qurilish ishlarini amalga oshirish, taʼlim-tarbiya jarayonlarini boyitish kabi jarayonlarga ham ijobiy taʼsir oʻtkazgan. Shu sababdan Mahmud Qoshgʻariy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi maʼrifat, tibbiyot daholarining bu katta karvon yoʻllarida kezishlari, ilmiy-ijodiy faoliyatlar bilan shugʻullanishlari yuzaga kelgan.

Qolaversa Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi davlat arboblari Buyuk Ipak yoʻlidan maqsadli

foydalanishi uchun o'zlarining amaliy hissalarini qo'shganlar. Bu esa xorijiy mamlakatlarning elchilari, sayyohlari, sarguzashtlik bilan shug'ullanuvchilarga katta imkoniyat yaratgan. Shuningdek, Turkiston o'lkasining savdogarlari, elchilari, solnomachilari, ijod bilan shug'ullangan iqtidorli ishbilarmonlari ham chet mamlakatlarga chiqishga muayassar bo'lishgan.

Qadimgi Buyuk Ipak yo'li jahondagi juda ko'p yirik mamlakatlarning tarixchi, arxeologlari, faylasuflari va boshqa sohalardagi olimlarining (Fransiya, Germaniya, Angliya, Yaponiya, Arab mamlakatlari va hokazo) diqqat-e'tiborini jalb qilib kelgan. Shu sababdan ham XX asrning so'nggi yillarida (1980–1990-yillar) birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) maxsus qarori asosida Buyuk Ipak yo'lini o'rganish amalga oshirildi. Ipak yo'lini o'rganish bo'yicha YUNESKOning maxsus qo'mitasi tuzilib, uning tarkibida O'zbekistonlik olimlar, sayyohlar ham faol ishtirok etishdi. Natijada Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Xiva shaharlari-dagi tarixiy yodgorliklar YUNESKO muhofazasiga o'tkazildi va uni ta'mirlash, muhofaza qilish, xalqaro turizm maskanlariga aylantirishda bevosita yordam qilmoqda. Shu sababdan ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan "O'zbekturizm" kompaniyasi tashkil etilib (1995) mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirish yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni (1999) hamda respublika hukumatining turizmni rivojlantirish va mutaxassis kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish sohasidagi qarorlari (1999-yil, avgust) muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tarkibida turizm fakulteti tashkil etildi. Shuningdek, Samarqand, Buxoro va yana bir qator joylarda kasbhunar turizmi kollejlari, turizm bo'limlari ishga tushirildi. Bu ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi mamlakatning tarixiy rivojlanishi, Buyuk Ipak yo'lining ahamiyatini bo'lajak mutaxassislarga o'rgatishdan iborat. Shu bilan birgalikda sayyohlarga (mahalliy va xorijiy sayyohlar) madaniy hizmat ko'rsatish, ya'ni mehmonxonalarga joylashtirish, oziq-ovqatlar bilan ta'minlash, avtoulavlarni tashkil etish, yo'lboshchilik (ekskursovod) qilish, madaniy hordiq chiqarish (teatr, kino, sport, go'zal manzarali joylarni tomosha qilish va hokazo) kabi turli-tuman faoliyatlarning tashkiliy asoslari ham o'rgatiladi. Bo'lajak mutaxassislar moddiy-texnik

ta'minot, tejash (ekonom qilish), buxgalteriya ishlari, tijorat, savdo va shu kabi ko'p sohalaridagi nazariy bilim hamda amaliy faoliyatlarni ham egallashadi.

Ta'kidlash lozimki, turizm bo'yicha o'qitiladigan maxsus fanlarning dasturlarida faqat sayr (ekskursiya) ishlarigina mazmun topgan. Turizm maqsad, mazmun va mohiyat jihatdan ko'p tarmoqli soha sifatida faqat tarixiy yodgorliklar, madaniy obidalarni tomosha qilish bilan chegaralanmaydi. Balki tabiatni sevuvchi, jismonan chiniqishni hamda o'lkani o'rganishni maqsad qilib qo'ygan yoshlar va mehnatkashlarga ham xizmat qiladi.

Bu yo'lda ommaviy (guruh) ravishda tabiat qo'yniga chiqish, sof havodan to'yib nafas olish, zilol suvlardan bahramand bo'lish (ichish, cho'milish), quyosh nurlarida toblanish, yuklarni ko'tarib uzoq masofalarga, ayniqsa, tog'li joylarda piyoda yurish muhim ahamiyatga egadir. Shu sababdan piyoda yurish sayohatlarini turizm mutaxassislariga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa avvalo o'quv dasturlariga uni kiritish, shu asosda maxsus piyoda yurish (bir kunlik va ko'p kunlik) sayohatlarini doimiy ravishda tashkil qilish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Buyuk Ipak yo'lining O'zbekiston hududlaridan o'tishi tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bunda millatimizning jahon xalqlari orasidagi obro'yi, shon-shuhratining oshishi, tarixiy yodgorliklarimiz, buyuk allomalarimizning so'nmas faoliyatlarini o'rganishda yurtimiz aholisi va xorijiy sayyohlarning tashrif buyurishlari muhim o'rin egallaydi.

Mustaqillik sharofati tufayli madaniy obidalar, tarixiy yodgorliklar qayta ta'mirlanmoqda, yangidan madaniyat, sport, ta'lim, san'at, sayyohlik manzillari, maskanlari tashkil etilib, koshonalik qasrlar, arxitektura qurilishlari paydo bo'lmoqda.

Turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan qonunlar, qarorlar asosida mutaxassis kadrlar tayyorlash, sayyohlarga madaniy xizmat ko'rsatish yo'lida xalqaro andozalarga (standart) mos bo'lgan sayr-sayohatlar, ommaviy madaniy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi esa o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlar ommasi uchun turli shaharlar, hatto xorijiy mamlakatlarga sayohat qilishga shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'z o'rnida shuni aytish lozimki, turizm sohasida kadrlar tayyorlash, ularning faoliyatida sihat-salomatlikni yaxshilash hamda

jismonan barkamollikni ta'minlashda go'zal va xushmanzarali joylarga piyoda yurish sayohatlaridan maqsadli foydalanishni izga tushirish kerak bo'ladi.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Buyuk ipak yo'li qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Katta karvonlar qaysi yo'llardan o'tgan?
3. Buyuk ipak yo'li tarmoqlari va asosiy maskanlarda nima bilan savdo qilishgan?
4. O'zbekistonning qaysi hududlari Buyuk ipak yo'li bilan bog'langan?
5. Savdo, tijorat ishlari qanday amalga oshirilgan?
6. Qadimgi Buyuk ipak yo'li mamlakatimiz hududlarida nimalarga asos solgan?
7. Mustaqillik tufayli turizm bo'yicha kadrlar tayyorlash qachon va qayerlarda boshlandi?
8. Turizm sohasidagi kadrlarning eng asosiy faoliyatlari nimalardan iborat?
9. Sayr (ekskursiya) va sayohatlarning (piyoda yurish) aholi uchun qanday ahamiyati bor?
10. Piyoda yurish (bir kunlik va ko'pkunlik) sayohatlariga sizning maylingiz (xohish, istak) qanday?

IV bob. PIYODA YURISH SAYOHATLARI

4.1. Sogʻlomlashtiruvchi ommaviy piyoda yurish sayohatlarining tarbiyaviy ahamiyati

Sogʻlomlashtirish deganda faqat tibbiy yordamgina (dorilar) tushunilmasdan, balki jismoniy tarbiyaning u yoki bu vositalari, ayniqsa, piyoda yurish sayohati (turizm) orqali amalga oshiriladigan xilma-xil tadbirlarni ham eʼtirof etish lozim.

Ijtimoiy turmush sharoiti, ayniqsa, mehnat jarayonlarida (ishga yetib borish, mehnat qilish va uyga qaytish) piyoda yurish maʼlum darajada bajariladi. Bu amaliy faoliyatlarning ham sihat-salomatlikni saqlash, uni yaxshilash borasida oʻziga xos xususiyatlari mavjud. Lekin togʻli joylar, daryo, koʻl, suv ombori sohillari, yashil oʻtloqlar, soya-salqin joylarga borib dam olish, hordiq chiqarishda piyoda yurishning oʻzgacha gashti boʻladi. Chunki oila aʼzolari yoki guruh (oʻquvchi-yoshlar, talabalar, mehnatkashlar va hokazo) boʻlib, kerakli jihozlar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlarni koʻtarib, orqalab yurish, kamida 10–15 km masofani (bir kun davomida) piyoda oʻtish sayohatlarning poydevori boʻlib hisoblanadi. Har 30–45 daqiqada (sayohatchilarning tayyorgarligiga qarab oʻzgarish mumkin) 3–5 daqiqa qisqa dam olish (prival), hojatlarni chiqarish, qatnashchilarning oʻta toliqmasligini taʼminlaydi. Yoʻlda ketaturib atroflarni kuzatish, oʻsimlik va hayvonot olamini oʻrganish sayohatchilarning tabiat manzaralariga boʻlgan qiziqishlarini oshiradi. Past-baland, qir-adirlardan oʻtish, qiyalik, soyliklardan tushish, ariq va katta suvlardan sakrab, kechib oʻtish jarayonlari amaliy (jismoniy) harakatlarni kuchaytirishni talab etadi. Tushki ovqatlanish, dam olish (katta prival) jarayonida atrof-muhitni tomosha qilish, zilol suvlarda choʻmilish salomatlikni mustahkamlaydi.

Kechki (tunash) dam olish paytida ovqat pishirish, choy qaynatish, isitish, kiyimlarni quritish (zarur boʻlganda), gulxan yoqish uchun oʻtin gʻamlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davra qurib birgalikda ovqatlanish, gulxan atrofida suhbat uyushti-

rish, qo'shiqlar aytish, raqslarga tushish qatnashchilarning kayfiyatini ko'taradi. G'am-tashvishlar bir past bo'lsa-da unutiladi. Bu jarayonlar ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlarni mujassamlashtirgan holda do'stlik, o'zaro hamkorlik, mehribonlik kabi fazilat-larni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tabiat qo'yniga uyushtirilgan piyoda yurish sayohati maqsadli va belgilangan rejalar asosida turli faoliyatlar amalga oshirilishi mumkin.

O'quvchi-yoshlar va talabalar bunday sayohatlarda quyidagi tadbirlarni bajarishlari mumkin bo'ladi, ya'ni:

1. Turizmni o'rganish.
2. Tabiat manzaralarini tomosha qilish.
3. Jismoniy jihatdan chiniqish.
4. O'simliklardan gerbariylar yasash.
5. Turli hasharotlarning (kapalak, ninachi, chumoli, qo'ng'iz va hokazo) tuzilishini o'rganish.
6. Parrandalarning (burgut, kalxat, lochin, qarchig'ay, kaklik, qarg'alar va hokazo) turlarini aniqlash.
7. Hayvonot (cho'chqa, kiyik, olqar, toshbaqa, yumronqoziq, jayra, ilon va hokazo) olami bilan tanishish.
8. Nodir toshlarni (yarqiroq, rangli, turli shakllar va hokazo) izlash va yig'ish.
9. Qurigan shoxlar, ildizlardagi turli shakllarni (odam, hayvon-lar va boshqalarga o'xshash) topish, ularni yig'ish.
10. Tuproq tarkibi, rangi va funksiyalarini o'rganish.
11. Daraxtlarning turlariga qarab ularning nomlarini aniqlash.
12. Chorvador va o'rmon xo'jaligi (tabiatni qo'riqlash) xodimlari-ni ijtimoiy turmush sharoitlari bilan tanishish va lozim bo'lsa ularga beminnat ko'maklashish.
13. Sayohat yakuniga bag'ishlab gulxan uyushtirish (ko'p kunlik sayohatlarda). Bunda barcha faoliyatlarga baho berish, kelajakda yana sayohatlarni rejalashtirish.

Yuqorida bayon etilgan tadbirlardan ma'lumki, piyoda yurish sayohatlari mazmun va mohiyat jihatdan qatnashchilarni har to-monlama barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Katta yoshdagi kishilar mehnat jamoalari asosida guruh (10–15) kishi bo'lib bir kunlik yoki tunab kelish (2–3 kun) sharti bilan piyoda yurish sayohatlarini o'tkazishlari mumkin.

Bunda asosan quyidagi faoliyatlar talab etiladi, ya'ni:

1. Maqsad va vazifalarni aniq belgilash.
 2. Jismoniy holatiga qarab yuklarni (kiyimlar, oziq-ovqatlar, ji-hozlar, kerakli buyumlar va hokazo) aniqlash.
 3. Yo‘nalishning (marshrut) sharoitiga (tog‘li, tog‘ oldi yoki suvlik sohillar) qarab yurish tezligi (soatiga 3–4 km) va dam olish (lahzalik to‘xtash 5–10 daqiqa) me‘yorlariga e‘tibor berish.
 4. Tushki va kechki dam olish joyini belgilash, ularga tayyorgar-lik ko‘rish (o‘tin yig‘ish, ovqat tayyorlash va hokazo).
 5. Atrof-muhitni kuzatish, qir-adir, soyliklarga sayr qilish, cho‘-milish, mashqlar bajarish, to‘p o‘yinlari.
 6. Davra suhbatlarida tabiat manzaralari, qo‘riqxona, olgan taas-surotlar haqida bahslar qilish.
 7. Spirtli ichimliklarining zararli xususiyatlarini muhokama qi-lish, ya‘ni uning tog‘ sharoitlarda yurishdagi salbiy tomonlarini (char-chash, toliqish, o‘zini noxush sezish, xansirash va hokazo) ifoda etish.
 8. Kelgusi sayohatlarda davrani kengaytirish rejalarini tuzish.
- Xulosa shundaki, piyoda yurish sayohatlari ommaviylikni talab etuvchi va qatnashchilarni sog‘lomlashtiruvchi xususiyatga egadir. Shu jihatdan ham piyoda yurish natijasida atrof-muhitni tomosha qilish, izlanish hamda tadqiqot ishlarini olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Eng muhimi esa faol harakatlarni bajarish yo‘lida turli to‘siq-lardan o‘tish, sof havodan nafas olish, quyosh nurlarida tob-lanish bilan salomatlik mustahkamlanadi. Masofalar qatnash-chilarning yoshi, salomatligi va qiziqishlariga qarab belgilanadi va qulay joylar tanlab olinadi.

4.2. Piyoda yurish sayohatlarini tashkil qilish va o‘tkazish masalalari

4.2.1. O‘quvchi-yoshlar va talabalarining sayohatlari

O‘quvchi-yoshlar va talabalarining piyoda yurish sayohatlari aso-san ikki maqsadda, ya‘ni “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talabalarini bajarish hamda atrof-muhit bilan tanishish uchun tash-kil etiladi. Bu sayohatlar bir kunlik va tunab kelish (2–3 kunlik)

shaklida bo'lishi mumkin. Shuningdek, yozgi ta'til paytlarida (sog'lomlashtirish oromgohlari va sport maskanlari) ko'p kunlik (8–10 va undan ortiq) piyoda yurish sayohatlari uyushtiriladi. Bunday sayohatlar ta'lim muassasalari jismoniy madaniyat jamoalari kengashining (JMJ – sport klub) yillik rejalari asosida tashkil etiladi. Qaysi o'quv muassasasi turizm klubi yoki seksiyasi (to'garak) rasmiy ravishda tashkil etilgan bo'lsa, ularning mustaqil rejalari ham bo'ladi.

Sayohatlarning qaysi turi (piyoda yurish, tog' turizmi va hokazo) yoki shakli (bir kunlik, tunab kelish, ko'p kunlik) bo'lsin ularni tashkil qilish va o'tkazish uchun yagona talablar qo'yiladi:

1. O'quv muassasasi turizm to'garagini (seksiya) tashkil etish.
2. Jamoatchi faollarni (instruktor-uslubchi, tashkilotchi) tayyorlash.
3. Turistik jihozlarni jamg'arish yoki ijaraga olish.
4. To'garak qatnashchilarini turizm bilan nazariy jihatdan qurollantirish, ularni jismonan tayyorlash.
5. Topografik tushunchalar, birinchi tibbiy yordam va tabiatni muhofaza qilish yo'llarini o'rgatish.
6. O'quv yili davomida dam olish kunlari yoki ta'til paytlarida yaqin atroflarga qisqa sayr-sayohatlar o'tkazish. Bunda chodirlarni o'rnatish, atrof-muhitni kuzatish, yurish yo'llarini chizmaga (xarita) tushirish, kompas bilan ishlash kabi amaliy malakalarni o'rgatish, talab etiladi.
7. Barcha talablar bajarilib, ma'lum ko'nikmalar hosil qilinadi va tibbiy ko'rikdan o'tiladi. So'ngra bir kunlik sayohatni tashkil qilish mumkin bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizning deyarli barcha hududlari piyoda yurish sayohatlariga juda qulay hisoblanadi. Ya'ni tog'oldi va tog'li joylarda buloqlar, irmoqlar, kichik daryolar, suv omborlari mavjud. Ularning atroflari yashil o'tloq, daraxtzor, soya-salqin joylarga ega.

Farg'ona vodiysining butun atrofi tog'lar bilan o'ralgan va daryolar, katta soy suvlari, ariqlar, kanallar bilan ta'minlangan. Ya'ni sayohatlarning ko'pchilik turlarini o'tkazish imkoniyatlari bor.

Toshkent viloyatining Xo'jakent, G'azalkent, Chirchiq, Ohangaron, Olmaliq, Piskent, Bekobod kabi hududlari ham tog', daryo sharoitlariga ega.

Shu sababdan ham Shohimardon (Fargʻona), Arslonbob atrofi (Andijon), Uchqoʻrgʻon, Chust, Pop (Namangan), Chotqol, Chimyon, Qurama, Chorvoq (Toshkent) togʻ oraligʻi joylarida oʻquvchilarning dam olish oromgohlari va talabalarning sogʻlomlashtirish-sport maskanlari (Xumson, Kumushkon va hokazo) uzoq vaqtlardan buyon faoliyat koʻrsatib keladi.

Sirdaryo viloyatining oʻquvchi-yoshlari va talabalari Sirdaryo va Doʻstlik (sobiq Kirov) kanali sohillari, yangi oʻzlashtirilgan joylardagi (Oq oltin, Baxt, Yangiyer va hokazo) kanallarning yoqalaridagi sogʻlomlashtiruvchi va dam olish oromgohlarida sayohatlarni oʻtkazish imkonlariga ega. Baʼzi maktablar, kollejar va universitet jamoalari sayohatlarni Toshkent va Jizzax viloyatining togʻli joylarida uyushtirishlari amalda qoʻllanilmoqda.

Jizzax viloyatining Zomin oʻrmon xoʻjaligi, Baxmal va Forish tumanlaridagi qoʻriqxonalarda joylashgan oʻquvchilar oromgohlarida sayohatlarni oʻtkazishadi. Jizzax Davlat pedagogika instituti jismoniy tarbiya fakulteti talabalari bilan oʻquv mashgʻuloti va koʻp kunlik piyoda yurish sayohatlarini Nurota tizma togʻlari (Uchma, Osmonsoy) va Baxmal togʻlarida oʻtkazish boʻyicha ancha tajribalarga ega.

Samarqand shahridagi oʻquvchi-yoshlar va talabalarning sayohatlari Choʻponota (Zarafshon sohili), Ohalik, Omonqoʻton, Urgut, Mironkoʻl kabi togʻli oʻrmonlarda tashkil etiladi. Viloyatning Bulungʻur, Jomboy, Toyloq, Urgut, Samarqand, Qoʻshrobd, Pastdargʻom kabi tumanlaridagi togʻli joylarda sayohatbop maskanlar juda koʻp.

Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining deyarli koʻpchilik hududlari (Kitob, Shahrisabz, Denov, Sariosiyo, Jarqoʻrgʻon va hokazo) Bobotogʻ hamda Pomir togʻlarining etaklari bilan tutashtirilib, sayohatlarni maqsadli oʻtkazish uchun juda qulay hisoblanadi. U yerlardagi oʻquvchilarning yozgi dam olish oromgohlari, ayniqsa, Amir Temur gʻori atroflaridagi sayyohlar maskanidan koʻp kunlik sayohatlarda foydalanish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan sayohatlarni tashkil etish va oʻtkazish uchun rasmiy ruxsatnomalardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Oʻquv yurti rahbarining buyrugʻi.
2. Moddiy-texnik va moliyaviy xarajatlarni hal etish.
3. Jismoniy tarbiya oʻqituvchilari safidan tanlab olib, ularni turizm qoidalari bilan malakasini oshirish (tayyorlash).

4. O'quvchi-yoshlar va talabalar o'rtasida turizmning mohiyatini targ'ibot qilish.

5. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarining talablarini bajarishga da'vat etish (tushuntirish).

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizmni rivojlantirish to'g'risidagi Qarori (1999-yil) va shu sohada kadrlar tayyorlashni amalga oshirishdagi faoliyatlar haqida suhbatlar o'tkazish.

7. Imkoniyat darajasida turistlar klubini yoki seksiya (to'garak) tashkil qilish.

8. Sayohatchilar muzeyini tashkil etish. Bunda o'lkashunoslik va tabiatni muhofaza qilishga keng o'rin berish.

4.2.2. Bir kunlik va ko'p kunlik sayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish

Yaqin o'tmishda O'zbekistonning tog'li hududlarida yozgi dam olish va ta'til paytlarida o'quvchi-yoshlar, talabalar hamda mehnatkashlarning turli xil sayohatlari ancha ommalashgan edi. O'sha davrlardagi tajribalar asosida o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkash ishchi-yoshlarning piyoda yurish va bir kunlik hamda ko'p kunlik (kamida 7—8 va undan ortiq kunlar) sayohatlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'tgan bobda izohlanganidek, sayohatlar salomatlikni yaxshilash, jismonan chiniqish, ruhiy dam olish, hordiq chiqarish, atrof-muhitni o'rganishning muhim omillaridan biridir.

O'tgan bo'limda sayohat manzillari, ularni tashkil etish haqida bayon etildi. Bir kunlik va ko'p kunlik sayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun, sayohat rahbarlari barcha qatnashchilarni yurish yo'llari (marshrut) va asosiy bekatlar, sayohat manzillari bilan tanishtirishi zarur bo'ladi. Bu birinchidan sayohatga qiziqishni uyg'otsa, ikkinchidan tayyorgarlik faoliyatlarni mustaqil ravishda bajarishga da'vat etadi.

Sayohatlarga tayyorgarlik tadbirlarini bayon etishdan avval, eng xushmanzarali maskanlar haqida ba'zi ma'lumotlar keltirish lozim topildi. Bunda M.A. Hoshimov va V.I. Kucheryavixlarning "Tabiatning nodir sayrgohlari", 1991-yil hikoyalaridan ba'zi bir namunalar keltirildi. Bu hikoyalarni keltirishdan maqsad shundaki sayr-

sayohat (ekskursiya) qatnashchilari, ayniqsa, piyoda yuruvchi sayyohlar turizm tarixi va joylarning nomlari bilan yanada chuqurroq tanishishi, yoshlarning sayohatlarga qiziqishini uygʻotishga xizmat qila oladi. Yana eʼtiborli tomoni shundaki, Samarqand atrofi boʻyicha xalqaro marshrutlar koʻplab ishlab chiqilgan.

Oltin vodiy sayrgohlari

Zarafshon vodiysi “Oltin vodiy” deb ataladi. Uni tilga olganda faqatgina daryo yoqasidagi qadim vaqtlardan buyon foydalaniylayotgan oltin konlarinigina emas, balki daryo suvining sharofati bilan vodiy yonbagʻirlarida gurkirab oʻsayotgan bogʻu-rogʻlarni, xushmanzara joylarda joylashgan koʻrkam qishlogʻu-shaharlarni, gavyum bozorlarida sayyoh eʼtiborini oʻziga tortgan zaʼfaron uzum-u yoqutrang anorni, oltindek tovlangan anjir-u oq billuri shaftolini tushunishgan. Zarafshon va Turkiston togʻlari oraligʻida joylashgan bu oltin vodiy daryosi baland choʻqqilardan, – 2,795 metr balandlikdan boshlanadi. Qoʻhiston deb atalgan bu togʻli oʻlkada tor daralaru baland choʻqqilar mavjud boʻlib, ular yonida daryo sharsharalar hosil qilib oqadi. Shu sababli dunyoning koʻpgina burchaklaridan kelgan sayyohlar vodiydagi betakror togʻ koʻli Iskandar koʻl va tik qoyalarni, quyuq archazorlaru togʻ muzliklarini zavq bilan tomosha qilishadi. Oltin vodiy gʻarbgʻa tomon asta-sekin pasayib, Qizilqum sahrosiga tutashib ketadi va bu joyda daryo ikki irmoq – Gudjayli hamda Taykirga boʻlinib, sahroga singib ketadi.

Bu goʻzal vodiya sayyohlarni togʻ va tekislik qishloqlari, kichik shaharlar, tabiatning nodir sayrgohlari kutadi. Azaldan sharq va gʻarb oraligʻida joylashgan vodiy boy qadimiy tarixga ega. Bundagi har bir shahar va qishloq asrlar haqida hikoya qiladi. Vodiy sugʻdlar elining gurkirashi, Iskandar Zulqarnayn bosqinchilari zulmi, arablar istilosi, Chingizxon bosqini, Temur hukmronligini, Chor Rossiya va sovetlar mustamlakachiligini boshidan kechirdi. Baland togʻlar oʻlkasidan sahro hududigacha tushuvchi daryo yoqasidagi qishloqlar har xil geografik zonalarda joylashgani uchun, bir faslning oʻzida turli libosda boʻladi.

Bu yerdan siz daryo yuqorisiga – togʻli Qoʻhistonga sayohat qilishingiz mumkin. Sayohatingiz shahar yonidagi qadimiy Choʻponota tepaligidan boshlanadi. Yuqoriga borgan sari Ohalik,

Omonqo‘ton qishloqlarini, Urgut kabi chiroyli shaharni, Qirg‘ot yassi tog‘ini tomosha qilib, tog‘lar o‘lkasi Qo‘histonga o‘tasiz. Qo‘histonda sizni Tolar qabristoni, Fan tog‘lari, Tog‘ ko‘llari va oltin uzuk ko‘zidagi marvarid — Iskandar ko‘l kutadi. Bu tabiat mo‘jizalarini tomosha qilib bo‘lgandan keyin Shahriston dovonidan qo‘shni Sangzor vodiysiga tushib, u joydagi Uch o‘choq, Baxmal, Oyqor singari sayrgohlarda bo‘lasiz. Bu joylardan tekislik yo‘llari bilan Samarqandga qaytib dam olgandan keyin, yangi marshrutga chiqib, quruqlikdagi orol Miyonqolni, tog‘lardagi mo‘jiza Ko‘ksaroyini, sahro medaloni Qarnobni va tekislik qishlog‘i Timni tomosha qilishingiz mumkin.

Serjilva Samarqand shahrining shimoli-g‘arbiy qismida tik qirg‘oqli Siyob arig‘idan keyin o‘simliklardan holi tepaliklar boshlanadi. Temuriylar davrida bu joy Ko‘hak tepaligi deb atalgan.

“Kimda-kim go‘zal Samarqandni bir nazar bilan ko‘rmoqchi bo‘lsa, uni yengil amalga oshirish uchun Ko‘hakka chiqishi kerak”, deb yozgandi XIV asrda bu joyni kelib ko‘rgan arab sayyohi Ibn Batuta.

Ikki asr o‘tgandan keyin bu joy Cho‘ponota deb — shu yerda o‘rta asrlarda qurilgan machit nomi bilan atala boshladi. XIX asr oxirlarida tuzilgan rus xaritalarida bu tepaliklarga qat‘iy qilib “Cho‘ponota balandligi” deb nom qo‘yildi.

Hozir Cho‘ponota Samarqand shahri maydoniga kirib ketgan.

Cho‘ponota tepaliklari o‘zining geologik kelib chiqishi bilan ham boshqa maydonlardan ajralib turadi. Qadim vaqtlarda tektonik harakatlar Zarafshon havzasi tagidagi paleozoy davrida paydo bo‘lgan kristallik poydevordan metamorfik yo‘l bilan, ya‘ni katta bosim va harorat ta‘sirida ishlanib, paydo bo‘lgan slanes va qizil qumtoshlarni yuzaga siqib chiqardi. Ularning ichiga esa birmuncha keyin paydo bo‘lgan cho‘kindi jinslar-paleogen davri ohaktoshlari va gips-lari, neogen qumtoshlari va konglomeratlari aralashib ketdi. Bu yosh qatlamlar qadimiy jinslar ustiga Cho‘ponotaning bir qismi bo‘lgan Laylaxona tepaligida yer yuziga chiqib qolgan va hozir esa bu joyga shaharning yangi istirohat bog‘i qurilyapti.

Agar Zarafshon daryosi vodiysining o‘rtasida mana shu qoyali tepalik bo‘lmaganda edi, unda bu quruqlik o‘rtasidagi hosildor Miyonkol orolini, Afrosiyobning soz tuproqli tepaliklarini, Siyobning go‘zal vodiysini ko‘rish mumkin bo‘lmas edi.

Cho'ponota tepaliklarining paydo bo'lish tarixi hali to'liq o'rganib chiqilgani yo'q, lekin uning umumiy rivojlanish yo'nalishini aytib berish mumkin.

O'rta poleozoy davrida hozirgi tepaliklar o'rnida dengiz ko'r-fazi bo'lgan. U sharqdan tekislik bilan chegaralanib, bu tekislikda issiq va nam tropik iqlim mavjud bo'lgan. Sekin oquvchi daryolar ko'rfazga loy va qumlarni oqizib kelib yiqqan va ular ma'lum vaqt o'tgandan keyin slanes va qumtosh qatlamlariga aylangan. Keyingi geologik davrlarda bu joy birnecha marta ko'tarilgan va cho'kkan. 10–20 million yillar oldin esa, bu joyda tepalik paydo bo'lgan va asta-sekin yassi toqqa aylangan. Zarafshon suvi, nurash jarayoni va boshqa omillar bu yassi tog'ni asta-sekin nuratib, hozirgi holiga olib kelgan.

Cho'ponotaning machit va retranslyator joylashgan yuqori nuqtasi, Samarqandning o'rtacha balandligidan atigi 100 metr yuqoridir. Lekin bu arzi mas ko'ringan farq shahar va voha tarixida katta rol o'ynaydi. Bu yuqori nuqta ko'p asrlar davomida dushman kelayotganini kuzatuvchi joy bo'lgan. Tepalik ustida gulxan yoqiladigan joy va navkarlar uchun qorovulxona qurilib, agar xavf-xatar paydo bo'lsa, masalan, Samarqand tarixida ko'p bo'lgan ko'chmanchi qabilalarning shahar tomon harakati sezilsa, navkarlar gulxanga o't qo'yishgan va tutun shahar aholisini g'aflatda qolmaslikka undagan. Cho'ponota hamma tomonidan suv bilan o'ralganligi va o'tish qiyin bo'lganligi sababli dushman yo'lga tabiiy to'siq sifatida foydalanilgan. Shuning uchun uning strategik ahamiyati juda yuqori bo'lgan. Ayniqsa, uning qiyaligi katta bo'lib, sharqiy tomoni dushman ishg'ol qilishi uchun qiyin joyga aylantirilgan va uning tagida xuddi atayin qurilgan suvli xandaqdek Qorasuv daryochasi joylashgan.

Qadimiy Cho'ponota tepaligi 3000 yil ichida Samarqand vohasining boshidan o'tgan ko'p tarixiy voqealarga guvoh bo'ldi. Bu joydan Aleksandr Makedonskiy lashkarlari o'tgan. Turklar, arablar, Chingizxon, Temur, Shayboniyxon askarlari bu joyda to'xtab dam olgan. Bir so'z bilan aytganda Cho'ponota tarixi Samarqand tarixining bir bo'lagidir.

Cho'ponota tepaligidagi machitning qurilishi bilan bog'liq bir afsona mavjud. Bu afsona keksa cho'ponning vatanparvarligi haqida hikoya qiladi. Aytishlaricha noma'lum sabablarga ko'ra navbatchi

askarlar dushman kelganini bilmay qolishgan va halok bo'lishgan. Dushman otliqlari shahar darvozasiga yaqinlashib qolganda ular oldidan cho'pon chiqib qoladi. Keksa cho'pon shaharga dushman xavf solayotganini ko'rib, podasini dushman ustiga haydaydi. Poda bilan yo'li to'silib qolgan dushman shovqin bilan o'zini bildirib qo'yadi va shahar himoyachilari tomonidan daf qilinadi. Go'yo shu vaqtdan boshlab, cho'ponning bu jasorati uchun tepalikning eng baland joyiga machit qurilib, u Cho'ponota machiti deb atala boshlanadi. Uning qurilishining boshlanishi XIV asrga to'g'ri keladi deyiladi. Lekin kitoblarda bu machit haqidagi tarixiy ma'lumotlarining XVI asrgacha bo'lgan davri uchramaydi.

Cho'ponota tog'lari bir xil tog' jinslaridan tashkil topganiga qaramasdan, foydali ma'danlarga boy bo'lib, ular juda qadim zamonlardan buyon ishlatiladi.

Agar Omonqo'ton tog'larida istiqomat qilgan neandertal odamlar o'zlariga kerakli tosh qurollarni yashagan joylaridan topishgan bo'lsa, yuqori paleolit davrida Samarqand shahri o'rnida yashagan odamlar (ularning istiqomat o'ri shahar markazidagi park-ko'ldan topilgan) o'zlariga tosh qurollarni Zarafshon daryosi burilishlarida yoki Cho'ponota tepaliklaridan topishgan. Odam yashagan, yoshi 30 ming yildan kam bo'lmagan bu joydan chaqmoqtosh va qizil oxra topilgan. Bu qizil oxra koni Laylakxona tepaligida, kremniyli chaqmoqtoshlar esa butun Cho'ponota tepaliklarida uchraydi. Lekin ular qazib olingan joy ehtimol Qircha deb nomlangan joyda bo'lsa kerak. Bu joy Siyob arig'i sohilida bo'lib, kristall tog' jinslari yer yuziga yaqin chiqqan va atrofida suv hamda ov ko'p bo'lgan.

Yuqorida ta'riflangan Laylakxona tepaligi o'zining tuzilishi bilan ham Cho'ponota tepaliklarining qimmatbaho "g'aladonidir". Bu joyda paleogen davrida paydo bo'lgan ohaktosh va gipslar, neogen davri kvarsitlari, kulolchilik tuprog'i va konglomeratlar bor. Bu materiallarning bari o'tmishda qurilish materiallari bo'lib xizmat qilgan.

Soz tuproq asosan kulolchilikda ishlatilib, chinni ishlab chiqarishda shu tuproqdan foydalanishgan. Qalinligi 30–40 metrga yetuvchi soz tuproqdan g'isht va paxsa devorlar yaratilgan. Gipsni esa ganchga aylantirganlar. Toza kvarsli qum esa shisha ishlab chiqarishda qo'llanilgan. Bu qumlarni asrimizning 30-yillarigacha kavlab olingan, uning izi — g'orlar hozirgacha saqalanib qolgan.

Tepaning sharqiy qismida ohaktoshlar ochilib qolgan bu yerdan esa ohak olishda ishlatilgan. Ehtimol bu ochiq kon uzoq o'tmishda Samarqand uchun katta ahamiyatga ega bo'lgandir. Shaharning boshqa tomonidagi Ohalik konidagi ohak oluvchi pechlar X-XI asrlarda qurilib, asosan, ikki asr davomida quvvat bilan foydalanib kelingan. Cho'ponotadagi pechlar esa asrimizning elliginchi yillarigacha ishlab turgan. Shu kunlarda Cho'ponotada qumtosh va slanes kavlab oluvchi birnecha ochiq konlar bor. Olingan mahsulotlar qurilishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Cho'ponota Samarqandga kelgan barcha olimlarni qiziqtirgan. Bu yerda birinchi ilmiy izlanishlar 1869-yili A.P. Fedchenko tomonidan o'tkazilgan. Keyinchalik bu yerda mashhur rus olimlari P.P.Semenov Tyan-Shanskiy, N.M.Prijevalskiy, I.V.Obruchev va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bu olimlar tomonidan o'sha davridayoq boshqa turdagi nodir ma'danlar belgilari borligi aytib berilgan.

Cho'ponota atrofi o'tmish davrlardayoq dam olish hududiga aylantirilgan. Bu joylar faqat hozirgi sayyohlarnigina o'ziga jalb etmagan. O'tmishdagi ko'plab sayyohlar va o'sha davr aslzodalarining ko'plab bog'lari Cho'ponota tepaliklarida joylashganligi tarixdan ma'lum. Masalan, Bobur o'zining xotiralarida yozgan: "Samarqand atroflarida chiroyli maydonlar joylashgan. Ulardan eng mashhurlaridan biri — Konigil bo'lib, u Samarqanddan sharqqa qarab cho'ziladi. Ariqcha Konigilning o'rtasidan oqadi. Samarqand sultonlari bu joyni qo'riqxonaga, deb e'lon qilishgan va har yili ular bu maydonga bir yoki ikki oy chiqib, shu joyda yashashgan.

Konigil hozirda Cho'ponota tepaligining janubiy qismida joylashib, Siyobning butun vodiysini egallagan. Temur va Ulug'bek davrlarida butun Konigildan xiyobon o'tib, uning ikki tarafida daraxtlar o'tkazilgan, piyodalar yuruvchi yo'lklar atrofida kanallar va hovuzlar qazilgan. Navbatdagi harbiy yurishdan qaytayotganda Amir Temur ham bu joyda birnecha kun to'xtab o'tgan. Bu xushmanzara xiyobon hozirgi Tayloq posyolkasigacha cho'zilgan. Uning atrofida qator-qator choyxonalar joylashgan va u yerda sayillar o'tkazilgan.

Cho'ponota atroflarida XIV-XVI asrlarda amirlarning ko'plab yozgi oromgohlari qurildi. Bu oromgohlar to'g'risida Temuriylar zamondoshlari Sharafiddin, Hofizi Abru, Ibn Arabshoh, Bobur-

lar xabar beradi. Bularning ichida eng go‘zali Bog‘ibaland bo‘lib, u Cho‘ponotadan g‘arbda — Siyobning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Undan birmuncha sharqroqda Bog‘imaydon joylashib, uning chekkasida yozlik qasr Chulustun va kichik bog‘ “Bog‘cha” joylashgan. Keyinroq Bog‘ibaland oldida darvesh Muhammad Tarxon bog‘i paydo bo‘lgan.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra o‘sha davrlardagi shahar tashqarisidagi bog‘lar o‘ylab qurilgan va tartibli bo‘lgan. Ularni joylashtirishda rejalashtirish mavjud bo‘lib, hovuzlar va binolar ma‘lum qonuniyat asosida qurilgan. Bularning hammasi o‘sha davrdagi bog‘bonlarning ulkan hayotiy tajribasidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda Konigil xiyobonlarining shon-shuhrati qayta tiklanmoqda. Obirahmat arig‘ining ikki tarafida dam olish hududi, profilaktoriy va katta bog‘ barpo etilgan. Cho‘ponota tepaliklarining boshqa qismlarini obodonlashtirish ishlari davom ettirilmoqda.

Cho‘ponota tepaliklari yashil boyligini tiklash bo‘yicha birinchi izlanishlar 1927-yildan boshlangan. Shu davrdagi o‘lkashunoslar fikriga ko‘ra, bu tepaliklarda qurg‘oqchilikka chidamli daraxtlar ekish mumkin ekan.

Hozir Cho‘ponota yonbag‘irlaridagi yaydoq yerlarni ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu yerlarga ekilgan qayin daraxtlari sharoitga tez moslashib, o‘rmon xo‘jaligi posyolkasini issiq, chang va shamoldan yaxshi himoya qilmoqda. Laylaxona tepaligi yonbag‘ri va Obirahmat arig‘i yonbag‘irlari yashil o‘tlar bilan qoplanadi. Bu tepaliklar yonbag‘rida joylashgan 8-avtokolonna maydoniga ekilgan mevali daraxtlar hosilga kirganiga o‘n yildan oshdi. Cho‘ponota tepaligining g‘arbiy va shimoliy yonbag‘riga ekilgan ko‘chatlar ko‘kka bo‘y cho‘zdi.

Yerlarni sug‘orishning ilg‘or usullarini qo‘llash asrlar davomida qo‘l tegmagan joylarda xilma-xil mevalar, uzum hamda poliz ekinlari hosilini yig‘ish imkoniyatini bermiqda. Tepaliklar yonbag‘ri bo‘ylab kelajakda chiroyli keng ko‘chalar, baland imoratlar va xiyobonlar tushadi. Yetti tepalik ustida yangi shahar barpo bo‘ladi.

Ohalik

Samarqand shahri janubida joylashgan tog‘li xushmanzara Ohalik qishlog‘i shahar mehmonlari va samarqandliklarning deyarli ham-

masiga tanish. Tog' va daryo yoqasida, bog'larning qalin soyasida yozgi oromgoh va dam olish bazalari, sanatoriylar joylashgan. Daryo qirg'oqlari va tog' yonbag'irlari bo'ylab ulkan dam olish hududi deyarli o'n kilometrga cho'zilib ketgan.

Ohalik qishlog'i Qoratepa tog'ining shimoliy yonbag'ridagi barcha tog' qishloqlari kabi uzoq o'tmishda-qadimiy Sug'd eli o'zining poytaxti atrofini o'zlashtirayotgan davrda paydo bo'lgan. Ohalikning paydo bo'lishi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Lekin bu tog' vohasi ichidagi ikki qo'rg'on qoldiqlariga qarab, bu maydonlarni mehnatsevar dehqonlar Qushonlar davri-ning boshidayoq o'zlashtirganini, shahar atroflarida ulkan suv omborlari va kanallar qurganini taxmin qilish mumkin.

Bu davrga qadar Ohalik o'rnashgan tog' darasidan chorvadorlar yaylov sifatida foydalangan bo'lishi, undan oldingi-bronza davrida esa bu yerda ovchilar yashagan bo'lishi kerak. Bu haqda Ohalik maydonida topilgan kamoning chaqmoqtoshli o'qlari xabar beradi.

Ehtimol, bu yerlar uzoq vaqt davomida Samarqand oliy tabaqasi uchun dam olish joyi bo'lib xizmat qilgandir. Chunki ularning shahar tashqarisidagi qasrlari daryo bo'yida joylashgan bo'lgan. Bu yer istirohatgoh bo'lganligi uchun savdo-sotiq va kosibchilik bilan shug'ullanmaganlar. Shu sababli na arab geograflari, na boshqa Zarafshon vodiysini o'rgangan olimlar o'zlarining xotiralarida bu joydagi kosibchilik haqida eslashmaydi. XIX asrda Samarqandda bo'lgan barcha sayyohlar Ohalikda ham bo'lishgan. Bular qatoriga Xanikov, Vamberi, Fedchenko, Obruchevni ko'rsatishimiz mumkin. Qishloqning Ohalik deb nomlanishiga ayrim sabablar bor.

Birinchidan, IX asrdan boshlab, bu yerdagi mahalliy aholi to'liq ohak qazib olishga ixtisoslashgan bo'lib, bu yerdagi ohak g'amlamasi hozirgacha juda ulkandir. Ohak kengayayotgan Samarqand uchun kerak bo'lib ilgaridan shaharni ana shu qurilish materiali bilan ta'minlayotgan Cho'ponota mahsuloti yetishmay qolgan.

Ohalik qishlog'ining nomi ham shu davrda paydo bo'lib, asli Ohaklik, ya'ni "o"— "oy", "xok"— "tuproq", ya'ni oyning oq tuprog'i ma'nosini anglatgan. Uning yonida joylashgan Oqbo'yra qishlog'ining nomi ham bu yerdagi ohak g'amlamasidan xabar beradi. Haqiqatan ham uzoqdan bu joyga qarasangiz oq tepaliklarga birinchi ko'zingiz tushadi.

Ikkinchidan, qurilayotgan Samarqand shu davrlarda mustahkam va chiroyli qurilish materialiga ehtiyoj sezardi va bu materillar Temuriylar davrida qurilayotgan mahobatli binolarga kerak bo'lardi. Marmarni esa Nurotaning G'ozg'on va Omonqo'tonning Gurmak konlaridan olib kelishardi. Ulkan granit bo'laklari esa yaqindagi tog'lardan olib kelinardi. Shu kunlarda ham Oqbo'yra qishlog'i yaqinidagi tosh konlarida yarim yo'nilgan granit bloklarini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, Amir Temur va temuriylar davrida Qashqadaryo vodiysidagi Tarag'ay qishlog'iga yo'l Ohalik orqali o'tgan va undan Sangto'ra dovoniga (1860 m) keng karvon yo'li mavjud bo'lgan. Tarag'ay qishlog'i mutaxassislari fikricha Temurning urug'i, barlos qabilasining yurti bo'lgan.

Bu tog' yo'li inqilobgacha Turkistonga kontrabanda tovarlarini Sharqiy Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Sherobodan olib keluvchi yashirin yo'lga aylangan.

Grajdandar urushi davrida bu tog' yo'li Qashqadaryodan keluvchi dushman to'dalarini to'sib qo'yish uchun yopiladi va dovonga, yo'lning tor qismlariga soqchilar qo'yiladi. Yoz fasli kunlaridan birida dushmanlarning ko'p sonli to'dasi to'siqlarni yorib o'tadi. Ohalik oldida bu to'da va xitoylik komandir Pau-Ti-San boshchiligidagi baynalmilal jangchilar o'rtasida birnecha soat davom etgan jang bo'lib, dushman yengiladi va toqqa qarab qochadi.

Ohalik qishlog'ining doimiy yashovchilari har-xil millatli bo'lib, asosan o'zbeklar va tojiklardan iborat. Qolgan millat vakillari bu joyga Pargar va Kishtut qishlog'idan inqilobga qadar ko'chib kelishgan. Keyinchalik O'rmiton qishlog'idan ham o'nlab xonadonlar ko'chib kelgan.

Ohalik qishlog'i atrofida yer maydonlarining kamligi sababli qishloq aholisi vaqti-vaqti bilan boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lgan. Shu yo'l bilan ohaliklilardan iborat Oqati, Oqbo'yra qishloqlari vujudga kelgan.

Hozirga kelib Ohalik maydoni Samarqand shahri uchun eng qulay davolash va sport-turistik markazdir. Har yili bu oromgohda, lagerlarda, sanatoriylarda, "Yoshlik" turbazasida o'n mingga yaqin kishi dam oladi. Bahor faslida esa tabiatning bu go'zal burchagiga yuz minglab Samarqandliklar va shahar mehmonlari dam olishga chiqadi.

Ohalik qishlog'i atrofida ko'pgina tabiat mo'jizalari mavjud. Pas, tog'lik hududda ohaktoshlar mavjud bo'lgan joylarda g'orlar, eski shtolnyalar va ohak kuydirishda ishlatiladigan pechlar uchraydi. Tog' jinslari ichida sinchkov sayyohlar island shpati donalarini topishi mumkin.

Qoratepa tog'ining asosiy qismini tashkil etgan granitlar va granodioritlar ichida grafit, xrustal shodalarini uchratish mumkin. Tog' bag'rida esa qalay, volfram, molibden g'amlamalari bor.

Bu hududning asosiy suv manbayi bo'lgan Oqdaryo vodiysi ham takrorlanmas go'zallikka ega. Bu joyda olcha, qayrag'och, bodom daraxtlaridan tashkil topgan bog'lar ko'p. Daryo o'zanining tor joylarida sharsharalar mavjud. Sayyohlar uchun Oqdaryodagi katta sharshara Boshsuvtushar, ayniqsa, go'zal bo'lib, u Afg'on dovoniga chiqishda joylashgan.

Qishloq yuqorisida — tog'ning yuqori qismida (1700–2200 m) kamdan kam uchrasa-da, tabiiy holda o'sayotgan archalar saqlanib qolgan. Aytishlariga qaraganda ilgari ularning soni ancha ko'p bo'lgan. Bu yerdagi archalar sonining kamayishiga asosiy sabab, ularning ohak pechlarida yoqilg'i sifatida ishlatilganidadir.

Toqqa chiquvchilarni bu yerdagi qoyali cho'qqilar ham jalb etadi. Ular ichidagi Kamqo'ton cho'qqisi (2189 m) Qoratepa tog'idan balandligiga nisbatan ikkinchi o'rinda turadi. Ulkan cho'qqi yonida kichkina, shaffof suvli Qulbobo ko'li joylashgan bo'lib, tabiat tomonidan tayyorlangan tabiiy o'yiqcha suv bilan to'ldirilgandir. Kamqo'tondan keyin Kichkinasoyini yarim halqa shaklida granit qoyalar o'rab olgan. Ular "Ohalik toji" deyiladi va 1900–2100 m balandlikdagi Toshbaqa, Qoratosh, Dostto'da kabi nomlar bilan ataladi. Bu cho'qqilarga ko'tarilish hatto sportchilar uchun ham unchalik oson emas.

Qishloq atrofidagi "tosh haykallarni" tomosha qilish ham ancha maroqlidir. Bunday tabiat mo'jizalari bu yerda ancha. Oqtosh massivida ot, dinozavr va xayoliy hayvonlarga o'xshagan tosh bo'laklarini ko'rish mumkin. Bular ichida hajmi juda ulkan tosh bo'laklar ham uchraydi. Bularga "Toshbaqa", "Shohtosh", "Somontosh" va "Igna" cho'qqisi kiradi.

Ohalikdan qo'shni vodiylarga ko'p sonli sayyoh so'qmoqlari o'tadi. Bu so'qmoqlar tog' cho'qqisi orqali Sangto'da, Afg'on, Beshozor, Govxona dovonlari orqali Amir Temur g'origa, Tara-

g'aysoyga, Alvasti ko'liga va Omonqo'tonga o'tadi. Sazvas dovoni orqali "ikkinginchi" cho'qqilar Kamqo'ton, Igna, Qiziltoqqa ko'tarilishi yoki Sazvasdaryo vodiysini kesib o'tib, Qoratepa qishlog'iga borish yoki Ilonsoyga tushish yoki Yontoq yassi tog'i orqali to'g'ri yo'l bilan Teraksoyning yuqorisiga chiqib, Qaynar-buloqqa tushish mumkin.

Ohalikdan so'qmoq yo'l bilan Mironko'lga, olti sharshara o'l-kasiga yoki Oqbo'yraga ham o'tish mumkin.

Lekin tabiatning bu go'zal burchagini tomosha qilish vaqtida, uning muhofazasini ham o'ylashimiz kerak. Bu joydagi hamma narsa—giyohlar, buloqlar, toshlar himoya talab qiladi. Dam olishga keluvchilarning soni oshgan sari, bu go'zal maskanning tabiatiga zarar keltirilmoqda. O'simlik dunyosi kamaymoqda. Dam olishga boruvchilar o'ylab o'tirmay boychechak, lola, yovvoyi piyoz, dorivor o'tlarni bilib bilmay yulishadi. Bularning ko'pchiligi esa Qizil kitobga kirgan va yo'qolish arafasida turibdi. Biz esa bu haqda o'ylab ham ko'rmaymiz.

Hayvonot dunyosining ahvoli bundan yaxshi emas. Ko'p nodir hayvonlar brakonerlar dastidan yo'qolib ketdi. Daryolardagi baliqlar ham yo'qolish arafasida turibdi. Qushlar uyalarini tashlab odamlar ko'zidan yo'qolmoqda. Hozir Ohalik atrofiga bir vaqtlar ko'p bo'lgan yovvoyi cho'chqa, bo'ri va bo'rsiqning izini ham uchratmaysiz. Quyon, tulki, jayralar ham kamayib ketdi.

Tabiatning bu go'zal in'omi Ohalikni saqlab qolish uchun vaqt o'tmasdan uni davlat himoyasiga olish va qo'riqxonaga deb e'lon qilish kerak. Bu joyda ovning barcha turini ovlashni, meva va o'tlar terishni taqiqlash lozim. Yo'qolgan hayvon va qushlar turlarini qayta tiklashga urinish va o'rmon ekib melioratsiya ishlarini amalga oshirish kerak.

Sayyohlar va o'lkashunoslar bu joyda tabiatning sodiq do'stlariga aylanishlari kerak. Hozircha kichik-kichik uchastkalarda sayyohlar tomonidan tabiatni tiklashga bo'lgan urinish bor. Buning uchun ular mahalliy materiallardan foydalanishmoqda, ya'ni yovvoyi daraxt va changalzorlarning qalin qismini qisman siyraklashtirib, shunga o'xshash iqlimli ko'chatni joylarga ko'chirib o'tkazmoqdalar. Mo'jiza ro'y berib, kechagi taqir joylarda inson tomonidan yaratilgan o'rmon shovullamoqda.

Omonqo‘ton

“Tabiat—san’atning abadiy nusxasidir”. Vissarion Belinskiyning bu so‘zlari respublikamizning takrorlanmas bir bo‘lagi bo‘lgan — kichik tog‘ maydoni Omonqo‘tonga ham tegishlidir.

XIX asr oxirlarida inson ongi va mehnati tabiatga yordamga keldi va halokat oldida turgan maydon qayta tiklandi. Biz quyida Omonqo‘tonning kechagi va bugungi kuni haqida hikoya qilamiz.

Tog‘ oldi tepaliklari orasida kulrang sariq tusli o‘simliklar bilan qoplangan yo‘ldan borishingizda oxirgi ko‘tarilishdan keyin ko‘z oldingizda chiroyli bir manzara namoyon bo‘ladi. Cho‘qqilari oppoq qor bilan qoplangan baland qoyalar etagida inson qo‘li bilan yaratilgan o‘rmon shovullaydi.

Omonqo‘ton respublikamizda ko‘pchilikka yoshlikdan tanish. Axir bu yerda ko‘pchilikning yoshligi o‘tgan mashhur “o‘quvchilar respublikasi” joylashgan. Ko‘pchilikning hayotdagi ona tabiatga bo‘lgan birinchi qadami shu yerdan boshlangan. Bu joydagi neandertal odam makoni to‘g‘risida butun dunyo biladi. Tabiatning bu bo‘lagi respublikadagi betakror, tabiat-tarix xazinasi bo‘lib, osmon gum-bazi ostidagi ulkan bir muzeydir.

Omonqo‘ton va uning ayrim joylari to‘g‘risida bir qator afsonalar mavjud. Shu yerlik oqsoqollar Gurmor tog‘idagi toshga aylangan ilon, Taxtaqoracha dovonidagi badjahl jinlar, Shoxaksoydagi Ulug‘bek yashiringan joy hamda Aflotunsoy haqida sizga hikoya qilib berishadi.

Lekin asosiy afsona Omon ismli cho‘ponga atalgan bo‘lib, go‘yo u o‘z jasorati bilan odamlarga baxt ato etgan, ya’ni soyga kirishni qo‘riqlab turgan ulkan ilonni o‘ldirib, boy yaylovli va hosildor tuproqli yerni undan ozod etgan. Shu sababli bu joy Omonqo‘ton deb atalgan emish deyishadi. Lekin bu joyning eng kekxa nomi sug‘dcha Gurmak bo‘lib — shu nomli qishloq Konsoyning yuqori qismida hali ham saqlanib qolgan va u eramizning birinchi asrlarida tashkil topgan. Keyinchalik Omonqo‘ton Taxtaqoracha nomi bilan G‘iyosiddin Alining “Temurning Hindistonga yurishi xotiralari” kitobida tilga olinadi. Temur va Ulug‘bek davrida qurilgan yozlik qasr ham Taxtaqoracha nomi bilan atalgan.

Archazorlar qirqilib ketganidan keyin odamlar uchun Omonqo‘tonning fayzi yo‘qoldi. Bulloqlar quridi, yaylovlar o‘tsiz qoldi,

iqlim quruqlashdi, sel oqimlari tog' yonbag'ridagi barcha narsalarni yuvib keta boshladi. Yoki boshqa so'z bilan aytganda odamlar boy yaylovlarni xarob qilib, bu joyni boshqacha nom bilan Yomonqo'ton deb atay boshlashdi.

Bu joylardagi archalar qir qilishiga yana bir sabab bor edi. XVIII asrdan boshlab bu joyda cho'yan va temir eritila boshladi, ular o'z navbatida daraxtdan qilingan ko'mir bilan, ko'mirni esa archa daraxtni kuydirib olinardi. Shu sababli maydoni 24 kvadrat kilometr bo'lgan archazor atigi 10–20 yil ichida qir qilib ketdi.

Birinchi bo'lib Omonqo'tonning iqlimi va tuprog'iga e'tibor qilgan tashabbuskor-o'rmonchi general N.I. Korolkov bo'ldi. U o'rmonchilik bo'yicha mutaxassislar S.N. Navrotskiy va M.I. Nevskiy bilan birgalikda vodiyni shimoliy yonbag'riga o'rmon ekishni boshladi. Chunki o'sha vaqtda bu yonbag'ir sel bosishi uchun eng xavfli edi. Bu ishlarni ular asosan o'z hisoblaridan olib bori-shardi, chunki bu ish uchun xazinadan juda oz mablag' ajratilgandi. Bu yerda o'rmon barpo etish bo'yicha jahonda birinchi bo'lib maxsus Omonqo'ton usuli ishlab chiqildi, ya'ni tog' yonbag'rida ko'ndalangiga supasimon shaklda tekisliklar yaratilib, ko'chatlar ekildi. Bu ko'ndalang supasimon yerlar tagidagi ariqlar o'z navbatida yomg'ir va qor suvlari tezligini kamaytirar, ularni tuproqning o'ziga yig'ar va ob-havo quruq vaqtida o'simliklarga berar edi. Keyinchalik Korolkovning bu usuli fransuz o'rmonshunoslari tomonidan yuqori baholangan va u "Shuhrat Legioni" ordeni bilan mukofotlangan edi. Shu yo'l bilan 1879-yil 500 desyatin joyda yosh nihollar o'tqazildi. O'sha vaqtlar uchun bu juda katta ish bo'lib buning ustiga u asosan tashabbuskorlik hisobiga bajarildi. Lekin tezda mablag' yetishmaganligi sababli ishni to'xtatishga to'g'ri keldi.

Ammo shu bilan Omonqo'tonda o'rmon barpo qilish ishi to'xtamadi. 1887-yili o'rmonshunos K. Rauner Gazamasoy boshida qarag'ay ko'chatlari ekdi (hozir bu joyda 117 ta ulkan qrim qarag'ayi o'sib yotibdi). Ularning balandligi 20 metrgacha, tanasining kengligi 0,8 metrga yetadi. Qarag'aylar o'zlari uchun notanish quruq iqlimga yaxshi moslashdi.

O'n yildan keyin bu joy yaqinida igna bargli daraxtlar va oq qayinni iqlimlashtirish bo'yicha tajriba o'tkazildi. 1908-yil Omonqo'tonsoy boshida Aprelevskiy o'rmon dachasi tashkil etilib,

qarag'ay va oq qayin ko'chatlari ekildi. Hozir bu kichik o'rmonchada Qumbelsoyning ustki qismida o'quvchilar oromgohi joylashgan.

1908-yilda Omonqo'tonning inqilobga qadar o'zlashtirish davri tugadi. Bu davrning sel va surilmalarning oldini olishdagi maydonni yanada ko'chish jarayonini cheklashdagi xizmati katta. Bu vohaning paydo bo'lishi ko'p jaryonni o'zgartirdi, ilgari yoz jazirasidan qurigan, qaqragan yonbag'irlar ko'm-ko'k daraxtlar bilan qoplandi, ko'chib kelgan yangi mezbbonlar — qushlar qo'shig'i bilan to'ldi, hatto ilgari nomsiz soy Bulbulzorsoy deb atala boshladi, yovvoyi cho'chqa, bo'ri, bo'rsiqlar paydo bo'ldi. 1933-yilga kelib Omonqo'tonda o'rmon xo'jaligi tuzildi va maydonni o'rmonlashtirish qizg'in davom etdi. Shu yerning o'zida maxsus ko'chat o'stiruvchi uchastka tashkil etilib, bu yerda yetishtirilgan ko'chatlar butun o'rmon xo'jaligi bo'ylab tarqatildi. Hozir Omonqo'tonning hamma burchaklarida bodomzorlar, qayrag'ochzorlar, olmazor va yong'oqzorlar tashkil etilgan.

Endilikda Omonqo'ton o'rmon dachasi 2200 gektar yerni tashkil etadi. O'rmon tashkil qilish ishlari davom ettirilmoqda. Yangi o'zlashtiriladigan maydonlar hisobga olinib, kelajakda ular eskilari bilan qo'shilib, bir umumiy bog'ni tashkil etishi kerak.

Omonqo'ton bazasida milliy bog' tashkil qilish masalasini ko'taradigan vaqt keldi. Chunki, inson qo'li bilan yaratilgan bu xushmanzara o'rmon, uning himoyasiga muhtoj bo'lib qoldi. Omonqo'tonni tomosha qilish uchun har yili ko'p minglab Samarqandliklar, sayyohlar, chet ellik mehmonlar kelishadi. Shuning uchun ham tabiatning bu nodir burchagini himoya qilish vazifasi birinchi o'rinda turadi.

Har holda Omonqo'ton qishlog'i nimasi bilandir odamlarni har doim o'ziga jalb etadi. Birinchidan, yirik sayohat shahri Samarqanddan uni atigi 40 kilometr ajratib turadi. Ikkinchidan, tog'lar bilan o'ralgan bu vodiya alohida mikroiklim mavjud bo'lib, tekislikka nisbatan u yerda 3 marta ko'proq (yiliga 1000 mm ga) yog'ingarchilik bo'ladi. Havoning harorati esa shaharga nisbatan deyarli 4–5 daraja pastdir. Bu joyda yozning eng jazirama kunlarida ham yengil shabada esib, salqin bo'lib turadi.

Omonqo'tonning ko'p sonli buloqlari hamma vaqt muzdek va xushta'mdir. Qishda esa chang'ichilar baxtiga bir metrlik qor qoplamasi ham paydo bo'ladi.

Bu tog‘li joyda bir qator ekskursiya va turistik obyektlar mavjud. Tabiat yodgorliklariga o‘rmonni ham qo‘shish mumkin. Chunki bu yer o‘simlik dunyosiga juda boy.

Omonqo‘tonning tabiiy boyliklari ham mo‘l. Bu joyda yuqori sifatli marmar, ohaktoshlar, qum, marganes va temir rudalari, dala shpati, yarim qimmatbaho granit minerali, slyuda va grafit g‘amlamalari bor. Vodiyni ulkan va go‘zal qoyalar o‘rab olgan. Say-yohlarni tog‘lar yuqorisida uchraydigan suvayirg‘ichdagi kvarst voronkalari, g‘orlar, Quruqsoy va Qumbel daralari o‘ziga tortadi.

60–100 ming yil oldin Omonqo‘ton ibtidoiy odamlar tomonidan o‘zlashtirila boshlagan. Bu joydagi g‘orlardan birida tosh qurollar, gulxan qoldiqlari, yovvoyi hayvonlar suyaklari, paleolit, mezolit, bronza davriga xos qoldiqlar topilgan.

Aflotunsoyning yuqori qismida V-VII asrda qurilgan qorovul qasrlarning qoldiqlari uchraydi. Vodiyning yuqori qismidagi Taxtaqoracha dovoni to‘g‘risida akademik V.V. Bartoldning fikricha, bu yerda arab istilosi davrida arablar va mahalliy xalq o‘rtasida eng katta jang bo‘lib o‘tgan. Samarqand viloyati o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tomonidan bu joyda arxeologik izlanish ishlari olib borilmoqda. Bu joydagi X-XI asrlarda qurilib, XVIII asr o‘rtalarigacha foydalanilgan bino qoldiqlari o‘rganilmoqda. Shu joy yaqinida qadimgi Buyuk Ipak yo‘lining tarmoqlaridan biri bo‘lgan “Shohlar yo‘li”ning qoldiqlari topilgan.

XX asr oxirida Omonqo‘ton orqali 20 ta sayohat marshrutlari o‘tgan. Har yili 15–20 ming shaharliklar dam olish vaqtlarini, minglab o‘quvchilar yozgi ta‘tillarini bu yerdagi oromgohlarda o‘tkazishadi. Ba‘zan oromgohlar va ularning atroflari, daraxtlar tagidagi dam oladigan joylar tez ifloslanmoqda. Bu joylardagi baland musiqa to‘vushlaridan cho‘chigan qushlar inlarini tashlab ketmoqda.

Nima uchun safarga chiqqanlarga tayoq ushlash odat bo‘lganini hech kim ayta olmaydi, lekin yosh daraxt novdalari kesilib, nobud bo‘layotganini ko‘pchilik ko‘rib turibdi. Dam olish joylarida gulxan yoqish odati tufayli necha kubometr o‘tinlar yoqilib ketmoqda, lekin ular orasida yangi nihollar — ignabargli daraxtlar yoki archalarning qirqilishiga nima deysiz. Bu olovda halok bo‘layotgan mayda jonivorlarning-ku son-sanog‘i yo‘q.

Biz hali ham tabiatni ehtiyot qilishni bilmaymiz. Axir bahorda va kuzda oromgohlar atrofini tozalash, unga yangi ko‘chatlar

ekish, yangi ayvonlar qurish, kelgan ota-onalar uchun suhbatxonalar tashkil etish, tongda va kechqurun radiolar ovozi pasaytirish, dam oluvchilar o'rtasida tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish qiyin emas-ku!

Siz ham, ehtimol, o'z avtomashinalariga "ehtiyotkor" xo'jayinlarning qanday qilib tiniq tog' daryosida shaxsiy mulkini yuvayotganini ko'rgandirsiz. Buning natijasida suvni bulg'ayotgan moy va benzin daryodagi oxirgi xonbaliqlarni zaharlamoqda.

Yana eng achinarli voqealardan biri shuki, Omonqo'tonda ajoyib tomosha – "alpinist sigirlarni" ko'rishingiz mumkin. Ular to'da to'da bo'lishib, shuncha mehnat evaziga o'stirilayotgan yosh daraxt novdalarini yemoqda. Ular orqasida yurgan "o'tlar sartaroshi" bo'lgan echkilar esa o'tlarni ildizi bilan yeb daraxtlarning po'stlog'ini kemirmoqda. Axir bu hayvonning o'tlarni ildizigacha yeyishi natijasida hamda ular boqilgan va ko'paygan yerlarda tuproq eroziyasi kelib chiqadi-ku. Ular yetkazgan zarar foydasidan ham oshib tushganini sezgan Yugoslaviya kabi davlatlar allaqachon echkilarni yaylov usulida boqishdan voz kechib, taqiqlovchi qarorlar chiqarmaganmidi? Nima uchun biz inson mehnati bilan yaratilgan Omonqo'tonning yana ham kambag'allashishiga sababchi bu jonivorlarni boyligimiz bo'lgan daraxt nihollarini nobud qilishga befarq qarab turamiz. Bunday noxushliklar, e'tiborsizliklar deyarli tog'lardagi barcha o'rmonlar, oromgohlarda yuz bermoqda. Mustaqillik sharofati tufayli bunday ekologik zararlarga barham berish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Oyqor

Oyqor cho'qqisi (Jizzax viloyatining Baxmal tumani) "oy" va "qor" so'zlarining qo'shilishidan kelib chiqqan. U Sangzor vodiysining ko'rki va Turkiston tizma tog'larining bir qismi bo'lgan Chumqartog'ning baland joyida joylashgan. Chumqartog'ning Oyqordan ham balandroq qismlari ko'p bo'lsa-da, ular ichida Oyqor o'z go'zalligi bilan ajralib turadi. Oyqor cho'qqisi ulkan, mukammal va yodda qoladigandir. Uning gumbazsimon cho'qqisi nimasi bilandir o'chgan vulqon konusini eslatadi va uzoqdan ulkanligi bilan kishida ajoyib taassurot qoldiradi. Cho'qqi ufq ustida o'zining tik yonbag'irlari bilan muallaq turgandek ko'rinadi.

Oyqor cho'qqisi yozning faqat ikki oyidagina qor qatlamidan holli bo'ladi. Bu davrda yonbag'irlarni qalin o't va gullar gilami qoplaydi. Boshqa vaqtlarda, hatto vodiya saraton jaziramasini boshlangan davrda ham uning cho'qqisida qor bo'ladi. Oyli tunlarda qor qoplami o'zidan sehrli oq nur taratgandek bo'ladi. Shimolga qaragan baland tik yonbag'ir o'zgacha, yorqin oy nuriga cho'madi. Oyqorning dengiz sathidan 3200 metr, O'smat posyolkasidan 2500 metr baland bo'lgan ulkan gavyasi bunday tunlarda oy nurida billurdek yaltiraydi, ayniqsa, to'lin oyli kechalarda ajoyib taassurot qoldiradi.

Shu sababli Oyqor tog'lar ichida shunday go'zal nom bilan atalgan.

Xalq o'rtasida bu afsonaviy toqqa atab ko'plab afsonalar, hikoyalar va hattoki qo'shiqlar to'qilgan. Afsonalardan birida tog' etagidagi tarixi uzoq asrlarga bog'langan O'smat qishlog'i (hozir O'smat posyolkasi) nomining kelib chiqishiga izoh berilgan.

Afsonaga ko'ra, bir vaqtlar tog' etagida yashovchi, aholi o'zidan kuchi birnecha marta ortiq bo'lgan Aleksandr Makedonskiy lashkariga qarshi jangga kiradi... Makedonskiy tog' etagidan Ushrushona o'lkasiga o'tib ketayotgandagi bu jangda kam sonli Vatan himoyachilari birnecha kun mardonavor jang qilib, birin-ketin halok bo'lishadi. Faqatgina birnecha jangchilari bilan qolgan jasur sarkarda O'smat dushman halqasini yorib chiqadi va daraga kiradi. Quvib kelayotgan dushman ko'z oldida ular oy nurida billurdek yارقirab turgan tog' yonbag'riga kirib g'oyib bo'lishadi. Dushmanlar yaqinlashgan vaqtda esa oy bulut ostiga yashirinadi va yonbag'ir zulmatga ko'miladi. Keyinchalik aholi tog' ichiga kirib ketgan qahramon sharafiga qurilgan qishloqni uning nomi bilan O'smat deb atay boshlaydi.

Albatta, afsona bu afsona, lekin u go'zal joyga husn beruvchi yangi bir qo'shimchadir.

Bundan tashqari qadimgi yunon tarixchilarining ishlarida shu hudud atrofida bosqinchilar bilan Vatan himoyachilari o'rtasida bo'lib o'tgan bir jang haqida xotira bor. Aleksandr Makedonskiy Ushrushona o'lkasiga yurishida yo'lini qoyalar ustiga chiqib olgan 30 ming qurollangan mahalliy aholi to'sadi. Shiddatli jangda Aleksandr Makedonskiy birinchi marta tizzasidan yarador bo'ladi. Lekin kuchlar teng bo'lmaganligi sababli Vatan himoyachilaridan ko'plari qoyalarda dushman o'qidan halok bo'ladi.

Shunisi qiziqki, tog'li Zarafshonning ko'p qismida Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq joylar ko'p bo'lsa (masalan, Is-

kandar ko'li), Samarqanddan sharqda va Jizzax atrofida bunday nomlar yo'q. Bu esa, albatta, Aleksandr Makedonskiyning Ushrushona aholisida eng yomon taassurot qoldirgani uchun, ataylab xalq uning nomini unutganidan bo'lsa kerak.

Oyqor hozirgi yozuvchilar o'rtasida ham mashhurdir. Uning haqida M. Sheverdin va Nurali Qobul o'z kitoblarida ko'p yozishgan. U haqida IX-XII asr arab sayyohlari va Bobur ham yozib ketgan. Faqat Oyqorning go'zalligini o'z ko'zi bilan ko'rgan sayyohgina, uni ko'rgan va bilgan o'tmish sayyohlarining u haqda kuylamasligi mumkin emasligini tushunishi mumkin. Hozirgi vaqtda Oyqor dam oluvchilar uchun ajoyib maskanlardan biri bo'lib, u yerga dam olish uchun Jizzax, G'allaorol va boshqa joylardan aholi chiqadi. Qishda ham, yozda ham dam olish mumkin bo'lgan Oyqor yonida qishlik chang'i sporti bazasi tashkil qilinsa, bu bazadan deyarli 5 oy noyabrdan martgacha foydalanish mumkin.

Oyqor dam olish hududi kelajak uchun ulkan xazinadir. Agar tog' oldi hududi yaxshi o'rganilib, yo'llar solinsa, tabiat va tarix yodgorliklari ta'mirlansa, sayyohlar uchun sayohat marshrutlari tuzib chiqilsa sayohat uchun ajoyib joylardan biriga aylanadi. Shu kunlarda ham Oyqor oldidagi Nauqaning kvars buloqlari-yu oltin baliqchalari, salqin bog'lari-yu undagi XIX asrda qurilgan machit el og'zidan tushmaydi.

Baxmalsoydagi uch yuz yillik ulkan chinorlar, Oqtoshsoydagi bronza davrida ibtidoiy odam chizgan rasmlar galereyasi sayyohlar xotirasidan hech qachon chiqmaydi. Kattasoydagi archazorlarning sof havosini aytmysizmi?

Bu yerga kelgan sayyohlarga har xil ko'rinishdagi birnecha marshrutlarni taklif etish mumkin. Bulardan Oqtoshsoy, Kattasoy va Ko'ktepa dovoniga (2600 metr) qilinadigan sayohat marshrutlari mashhurdir. Avtosayyohlar uchun esa, bu joydagi Baxmalsoy, Go'ralash va Zominsuvni kesib o'tuvchi asfalt qoplangan, go'zal archazorlarni kesib o'tuvchi katta yo'l doim xizmatda.

Baxmal

Tabiat hamma narsaga qodir va unga barcha narsaga ruxsat etilgan. Asosan u aqlli me'mor va quruvchi. Bizni o'rab turgan landshaftlar, sahrolar, cho'llar, o'rmonlar, tog'lar tabiatning takror-

lanmas ijod namunalari bo'lib, biz ularni muhofaza qilishimiz kerak. Faqat tabiatga bo'lgan ijobiy-ijodiy munosabatimiz bilan-gina biz o'z harakatlarimizga baho bera olamiz, ruhan o'samiz va shakllanamiz.

Tabiatning mukammalligi, takrorlanmas go'zalligini sahro va tog' oldi hududi orasida joylashgan va Turkiston tog'larining ikki tizmasi orasida turgan kichik tog' hududi Baxmalga tushganda bi-lamiz.

Haqiqatga o'xshagan ertak. Uzoq o'tmishda bu yurtlarda shohlar hukmronlik qilib, xalq nochor yashagan vaqtda Samarqand hukm-ronlaridan biri o'z elidagi barcha usta va to'quvchilarni yig'ib, ularga qizining to'yiga go'zal va beqiyos so'zana to'qishni buyuribdi.

Kun tun bilan almashib, ish qizib ketibdi, ustalar tinim bil-masdan mehnat qilishibdi. Nihoyat kutilgan vaqt kelib, ustalar hukmron qoshiga so'zanalarni keltirishibdi.

Saroy amaldorlari har bir so'zana go'zalligini ko'rib, lol qo-lishar, faqat shohgina ular ishidan xursand emasdi. To'quvchilar esa bundan xavotirlanib, hukmron qahridan qo'rqishardi. Navbat yosh va hech kim tanimaydigan ustaga kelibdi. U eski, chang bosgan kiyimiga qaraganda uzoqdan kelganga o'xshardi.

Shu vaqtga qadar u kamtarona chekkada turar va qo'ltig'iga qo'lbola bo'z tugunga o'ralgan yengilgina narsani qo'ltiqlab olgandi.

To'quvchi navbati kelgach, tugunni ochib, uni silkitdi va tu-gundagi harir so'zana osmonga yashil rangli bulut shaklida suzib ketdi. Bu afsonaviy bulut yer yuziga ohista tushdi va saroyning mar-mar devorlarini chulg'ab oldi. U chulg'ab olgan hamma yoq feru-zasimon yashil rangga kirgandi, havoda dala gullari hidi paydo bo'ldi, bahor gullari ochildi, tog' shabadasi paydo bo'ldi va qasr atroflari quyosh nurlari bilan yoritilgan yashil gilam bilan qoplandi.

Barcha hayron va hayajonda qotib qoldi. Shohning o'zi ham uzoq vaqtgacha biron so'z aytolmadi.

— Bu qanday mo'jiza? — nihoyat so'radi u.

— Baxmal, — soddagina tushuntirdi to'quvchi. Bu mening, Vata-niming jilosidir.

Shu vaqtdan boshlab kamalakning barcha ranglari bilan tov-lanuvchi go'zal matolar Baxmal deb, atala boshlangan ekan.

Molguzar va Chumqartog' orasida joylashgan Baxmal vodiysi haqida shunday go'zal afsona to'qilgan.

Haqiqatan ham boshqa joylarda kishini Baxmaldagidek lol qol-diradigan go‘zal tabiat manzaralarini ko‘rmaysiz. Tog‘larning va keng daryoning supasimon yonbag‘irlari erta bahordan boshlab may-salarning baxmal to‘shovi bilan qoplanadi, yozga borib atrof oltin-dek bug‘doyzorga burkanadi, ular o‘rtasida bog‘lar va o‘rmon halqalari qorayib ko‘rinadi. Sal yuqoriroqda, tog‘lar yonbag‘rida archazorlar hukmronlik qiladi, undan ham balandroqda esa alp o‘tloqlari va qishki qorlar ko‘rinib, ular cho‘qqilar orasidagi chu-qurliklarni egallab yotadi.

Tabiat uni Qizilqum va Mirzacho‘lning jazirama issig‘idan va Pomirning abadiy sovuq‘idan atayin himoya qilgandek, bu joylarda mehnat va dam olish uchun qulay iqlim yaratgandek.

Baxmal yilning hamma faslida, hattoki iqlim noqulay vaqtlar dovul va jaziramada ham takrorlanmas va go‘zal. Faqat bir joyning o‘zida yilning to‘rt faslini kuzatib, har faslda uning o‘ziga xos go‘zalligini ko‘rasiz.

Mayli, tog‘larning cho‘qqilarini qoramtir bulutlar o‘rasin, atrof-ni oppoq sovuq tuman bossin, baribir bu joy o‘z go‘zalligi bilan kishini maftun etadi.

Bu yerda qish takrorlanmasdir, u o‘z nomiga mos keladi. Archalarning tik qomatini, yashil barglarini oppoq qor qoplagan. Qalin va momiq qor yer yuzi past-balandligini tekislab, bahordagi toshqin suv izlarini yashirib, yerni tekislashga intilgandek qoplab yotadi. Ko‘pchilik joylarda oppoq qor ustida yovvoyi cho‘chqalar yoki hurkak quyonlarning izi bir-birini kesib o‘tadi.

Quyosh-chi? U shunchalik yorqinki, go‘yoki oppoq qorni oyna singari yaltiratib, nur qaytarishga majbur etishga intilgandek yoritadi va bu yaltiragan yonbag‘irda archalar xuddi qora hollardek har joy, har joyda ko‘rinadi.

Erta bahorda, tog‘larning pastki qismidagi qor iliq g‘arbiy shamol ta’sirida tezda erib ketadi va sharqirab oquvchi irmoqlar shaklida borliqni to‘ldiradi. Lekin ko‘pincha ular qo‘shilib, tosh-qum bilan to‘yingan vaqtincha ariqlar hosil qiladi. Bu ariqlardagi loyli, suvli bo‘tqalar yengil avtomobil tezligida qishloq ko‘chalariga bostirib kiradi va yo‘lida uchragan barcha narsani yuvib ketadi.

Tog‘da esa qor asta-sekin eriydi, go‘yoki qish o‘zi erishgan muvaffaqiyatini qaytarib berishni orqaga surmoqchi bo‘lganday harakat qiladi.

Qorlar xuddi bahordan yashiringandek, chuqur jarlar, qoyalardan orasiga kirib oladi. Lekin baribir chekinishga majbur bo'ladi, qorlar erigan joyni esa bahor ko'katlari gilami qoplaydi, ular orasidan oq, sariq boychechaklar, ko'm-ko'k chuchmomalar yuqoriga bosh ko'taradi.

Bahor yomg'iri bilan tozalangan musaffo havoda, feruza rangli ko'katlar bargidagi shudringda quyosh nurlari jilva qiladi. Bodom, qayrag'och, yong'oq ko'chatlari uyg'onadi.

Keyin birdan haqiqiy bahor keladi. Baxmal o'z nomiga mos baxmal so'zana bilan qoplanadi. Bahor qishning qoldiqlari ustidan bosib o'tib, uning oxirgi qal'asi tog' cho'qqilari tomon intiladi. Havoda nam tuproq, gullar va shudring hidi hukmronlik qiladi.

Yozning boshlanishida Baxmal birnecha kun qip-qizil lolaqizg'aldoqlar bilan qoplanadi. Bu lolaqizg'aldoqlarni hamma joyda ko'rasiz. Ularni bug'doyzorda, bog'larda, hattoki uylarning tomlarida ko'rishingiz mumkin. Lolaqizg'aldoqlar kelayotgan yozni, uning oppoq osmonini, issiq havosini, sayozlashgan daryo va ariqlarini eslatib turadi.

Ulardan keyin birdaniga yashil o'tlar quriydi, bug'doyzorlar esa oltin rangga kiradi. Bahorda keng vodiydagi ulkan toshlarni dumalatib oqizgan daryo sayozlashib, tagidagi toshlar ko'rinadi. Shuning uchun ham bu daryoni Sangzor deb atashadi.

Baland tog'larda esa hali ham bahor bilan yozning kurashi davom etadi. Bu kurash butun yoz davomida bahor foydasiga hal bo'lgandek, yonbag'irlarni ko'm-ko'k o'tlar gilami qoplab yotadi, ular orasida qizil, sariq lolalar ko'zga tashlanadi. Yengil shabada archazorlardan o'rmon va yelim hidini olib keladi.

Yozning oxirida esa teskari jarayon boshlanadi. Baland tog'liklar birinchi bo'lib kuzni kutib oladi. Kechalari kuchli sovuq tushadi, shamol kuchayadi. Ertalab toshlar yuzasida shudring paydo bo'ladi. Lekin bu shudringlar birinchi quyosh nurlari ta'siridayoq yo'qoladi. Kuz asta-sekin o'z kuchini ko'rsata boshlaydi va vodiya ham namoyon bo'ladi. Lekin uning ta'siri tog'dagidek kuchli emas. Faqat ertalab sariq o'tlar ustida shudring yaltirab ko'rinadi.

Mana, daraxtlarning birinchi sariq barglari ham ko'rinadi. Daryo yoqasidagi changalzorlar qizg'ish tusga kiradi, havo borgan sari musoffo bo'lib, tiniqlashadi. Ariqchalar yonida hali ham yangi ko'katlar paydo bo'ladi, ammo ular tez-tez tushayotgan sovuq-

dan ko‘p yashamaydi. Nihoyat toqqa birinchi qor tushadi, u odatdan tashqari oppoq va yaltiroqdir. Kuzning iliq kunlari xavfli emas. Qor ko‘payib, o‘z maydonini kengaytiradi va cho‘qqilardan vodiyya tomon asta-sekin pasayadi tushib keladi.

Daralardagi birinchi qor ko‘chkisining baland tovushi Baxmalga qish qaytganidan xabar beradi.

Baxmal bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki geografik hududdan tashkil topgan.

Birinchisi, Sangzor daryosining keng o‘zani bo‘yidagi tepalik joylardir. Qadimgi dengiz supasimon yonbag‘irlarida va adirlarda ko‘p sonli qishloqlar, bog‘lar, bug‘doy va arpa ekilgan maydonlar yastanib yotadi. Bu zona 80 kilometrdan oshiqroq joyni egallab, G‘allaorol shahridan Qorashaqshaq qishlog‘igacha boradi hamda sayyohlarni asosan bahor va kuzda jalb etadi.

Ikkinchisi, yozning jaziramasida sayyohlar tog‘li zonaga, o‘rmon va suv, salqin hukmron bo‘lgan joyga intilishadi.

Sangzor havzasi yonidan o‘tib, Zominsuvga ketuvchi avtomobil yo‘li qurilgandan keyin Baxmalga borish qulaylashdi. Avtosayyohlar bu asfalt yo‘ldan borib, Avliyo, O‘smat, Dangari, Ko‘kjar va Qashqasuvni tomosha qilishlari mumkin. Piyoda yurishni yaxshi ko‘rgan sayyohlar uchun sodda va murakkab marshrutlar bor. Ularning e‘tiborini o‘rmonli Aldashman, Takoba, O‘smat, qoyali cho‘qqilarga va chuqur daralarga boy Chashmor va Ko‘ktepa, Lataband va Langar, Pargar va Chandir dovonlari tortishi mumkin. Balandligi 3000 metrdan yuqori bo‘lgan Chimqartog‘, Oyqor, Oqtosh, Uchqizga ko‘tarilish uchun, albatta, tajriba va mahorat ko‘proq bo‘lishi kerak.

Baxmal atrofida ko‘pgina sayohatbop joylar — Nauqa va Avliyoning ko‘p buloqlari va undagi baliqlar, ko‘p asrlik chinorlar va qayrag‘ochlar, g‘orlar, eski qasrlarning xarobalari, qadimiy qo‘rg‘onlar, machitlar va maqbaralar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi tarixiy ahamiyatga ega.

Baxmal kelajakda davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan dam olish hududiga aylanadi. Bu joyda yangi dam olish uylari va sanatoriylar, sog‘liqni tiklash bazalari va kempinglar, pansionatlar va oromgohlari, shu yerda tayyorlangan qimiz bilan davolovchi shifoxonalar quriladi.

Minglab kishilar bu joyda dam olish kunlarini o‘tkazadilar.

Shu sababli, hozirdan ko'p narsalarni hisoblab chiqish, o'rganish, dam olish inshootlarini loyihalashtirayotganda daryolar tozaligini, o'simlik va hayvonot dunyosining sonini saqlab qolish chorasini ko'rish kerak.

Dam olish kuni va ko'pkunlik sayohatlarni uyushtirish va o'tkazish qatnashchilarning yoshi, jismoniy va maxsus tayyorgarliklariga qarab tashkil etiladi. Aholining turli tabaqalari bilan sayohatlarni o'tkazish alohida bobda berilganligi sababli, bu joyda umumiy tushunchalar va talabalar haqidagina fikrlar bildirildi.

Barcha turdagi va qiyinchiliklar darajasidagi (kategoriya) sayohatlarni uyushtirish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar keyingi bo'limlarda beriladi.

4.2.3. Mehnatkashlarning sayohatlari

Mamlakatimizning yirik shaharlaridagi ishlab chiqarish korxonalari xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Shu asosda so'nggi yillarda qo'shma korxonalar tashkil etilib, ishlab chiqarishning salohiyati va mehnatkashlarning turmush farovonligi yaxshilandi. Ularning jismoniy madaniyat, sport, turizm bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sport klublari tarkibida qator sport to'garaklari (seksiya) yoki terma jamoalar tashkil etilib, ko'pchilikni o'ziga birlashtirmoqda. Ular tarkibida alpinizm, tog' turizmi, avto turizm kabi seksiyalarning mavjudligi e'tiborga molikdir.

Yana bir tomoni shundaki korxonalardagi kasaba uyushmalar qo'mitalarining rahbarligi va homiyligida tog'li joylarda dam olish uylari, sog'lomlashtirish-sport maskanlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning ish mazmunida sayohatlar ham o'rin egallaganligi muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat jamoalaridagi kishilarni sayohatlarga jalb etish asosan ikki yo'l bilan amalga oshirilmoqda.

1. Dam olish uylari, sog'lomlashtirish sport maskanlarida hordiq chiqaruvchi va davolanuvchilar uchun kunlik sayohatlarni o'tkazish.

2. Tajribali va havaskor sayohatchilarning rejali, bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayohatlarini uyushtirish. Bu tadbirlar maxsus tayyorlangan yo'riqchilar tomonidan tashkil etilib, sayo-

hatlar mazmunli va qiziqarli tashkil etiladi. Respublikamizdagi sanoat va ko‘plab korxonalar sport klublari bu sohada namunali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Rasul Hamzatovning “Cho‘lga uchmagan burgut — burgut emas, cho‘ldan o‘lja bilan toqqa qaytmagan burgut — burgut emas”, — degan falsafiy satrlarini sayohatchilarga qiyoslash mumkin. Ya’ni yillab mehnat qilgan inson so‘lim go‘sha va xushmanzara joylarda hordiq chiqarmasa uning qalbida g‘amginlik yig‘ilaveradi. Yoki tog‘li, suvli yashil manzaralarda piyoda kezib, hordiq chiqarmagan inson ko‘ngli g‘ashlikdan holi bo‘lmaydi. Salomatligidan nolib yurgan, nimjon yoki xasta odamlar tog‘ning zilol suvlari, salqin soyalari, orombaxsh etuvchi shabadalarning qadrini bilmaydi. Demoqchimizki, yaxshi imkoniyat va shart-sharoitlarga ega bo‘lgan ziyolilar, ba’zi mehnatkashlar tabiat qo‘ynidan bebahra qolmoqdalar.

Piyoda yurish sayohatlarining salomatlikni yaxshilashdagi fazilatlarini haqida naqlar, maqollar, ommabop kitoblar nihoyat darajada ko‘p. Lekin ularni o‘qimagan yoki o‘qishga hafsalasi kam bo‘lgan katta va kichik yoshdagi mehnatkashlar, ziyolilar, turli xil mutaxassis egalari ko‘pchilikni tashkil etadi. Qolaversa ommaviy axborot vositalari, teleradiolarda sayohatlar va ularning umrni uzaytirish, ish qobiliyatini oshirish, jismoniy barkamollikni tarbiyalashdagi mohiyatlari haqida targ‘ibotlar kam olib borilmoqda.

Ana shu sabablarga ko‘ra barcha mehnat jamoalarida turizm sekiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

1. Turizmning mazmuni, maqsadi va ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyatlari haqida ma’ruzalar, suhbatlar, muloqotlar olib borish.

2. Turizm bilan doimiy ravishda shug‘ullanib borayotganlarni moddiy taqdirlash (mukofotlar, ish haqiga qo‘shimchalar va hokazo).

3. Turizm faollarini (aktiv) maxsus seminar mashg‘ulotlariga tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ish haqi to‘lash.

4. Turistik jihozlarni g‘amlash, ularni ijaralarga berish bilan mablag‘ to‘plash.

5. Turizm bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish, g‘oliblar va faol ishtirokchilarni rag‘batlantirib borish.

6. Ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, gazeta, radio va televideniyalarda ularni targ‘ibot qilish.

Xulosa qilib aytganda piyoda yurish sayohatlari mehnatkashlarning sevimli mashg'uloti va ish qobiliyatini oshirishning asosiy omili bo'lishi kerak.

Shu sababdan bo'lajak mutaxassislar sayohatlar haqidagi tushunchalarni kengaytirishlari, tashkiliy ishlarni puxta bilishlari lozim bo'ladi.

4.3. Sayohatlarda jismoniy chiniqish yo'llari

4.3.1. Sayohatlargacha jismoniy tayyorgarlik

Ma'lumki piyoda yurish sayohati ishtirokchilar, ayniqsa, turizm bilan shug'ullanuvchilarning jismonan sog'lom, baquvvat va chiniqqan bo'lishini talab etadi.

Shu sababdan sayohatlarga tayyorgarlik ko'rishda maxsus jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa quyidagi talablarni bajarish shartdir:

1. Tibbiy ko'rikdan o'tish, shifokorlar ruxsatini olish.
2. Har kuni erta tongda badantarbiya mashqlarini (yurish, yugurish, 8–10 ta umumrivojlantiruvchi mashqlar) bajarish.
3. Ob-havoning qulayligiga qarab yarim belgacha sovuq (iliq) suvda yuvinish va badanni nam sochiq bilan qattiq ishqalab artish.
4. Jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari va musobaqalarda faol shug'ullanish.
5. Imkoniyat darajasida kunora (har kuni) kechki paytlarda 4–5 km masofalarni tez yurish va o'rtacha tezlikda yugurish bilan o'tkazish.
6. Mashqlar (yugurish) oldidan tinch holda qon tomirlarining urishini o'lchash. Mashqlar tugagach (ba'zan oraliqda ham) yana qon tomirlarning urishi darajasini o'lchab, har doim solishtirib borish. Keskin o'zgarish yuz bersa shifokorga uchrashish.
7. Jismoniy rivojlanish darajasini (turnik yoki daraxtlarda qo'llarda tortilish, qo'llarga tayangan holda bukib yozish, gantel yoki toshlarni ko'tarish, tizzalarni bukib o'tirish va turish va hokazo) va rivojlanishini o'lchash va ularning miqdorlarini asta-sekin oshirib borish.
8. Sekin va katta qadamlar tashlab yurayotganda chuqur nafas olish (qadamlarni sanash) va sekin chiqarish (qadamlarni sanash). Bu holatlarni ham nazorat qilib borish va miqdorlarni oshirish.

Mazkur mashq — faol harakatlar o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlarning jismoniy tayyorgarligi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishiga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

Sharoit va imkoniyat bor joylarda ertalab yoki kechki bo'sh paytlarda futbol, voleybol, basketbol, tennis, badminton o'ynash va havzalarda (ariq, kanal) cho'milish tavsiya etiladi.

Xullas, piyoda yurish sayohatlariga tayyorgarlik jarayonlarida (umuman hamma vaqt) jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish zarur bo'ladi. Bunga o'rgangan kishilar sayohatlarda uchraydigan har qanday qiyinchiliklarni yenga oladi yoki ularga chiday biladi.

4.3.2. Sayohatlar jarayonida jismoniy chiniqish

O'tgan bo'limlarda bayon etilganidek, piyoda yurish sayohatlarida past-baland tepaliklar, adirlar, qirlar va tog'larda turli harakatlar bilan yurishga to'g'ri keladi. Bunda eng avvalo nafas olish chuqurlashadi va hansirash paydo bo'ladi. Shuningdek, oyoqlar, bel, yelka va qo'llarning toliqishi, charchashi vujudga keladi. Jilg'a, ariq, jarlik, tosh-to'siqlardan hatlab yoki sakrab o'tishda oyoqlar kuchi, belning mustahkamligi seziladi. Umuman sayohatchidan epcillik, chaqqonlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar talab etiladi. Sayohatlargacha jismoniy jihatdan tayyorlanganlar yoki biron sportning (ayniqsa, yengil atletika, gimnastika, suzish, basketbol va hokazo) turi bilan muntazam shug'ullanuvchilar yuqorida ta'kidlangan qiyinchiliklarni osongina o'tkazadi.

Sayohatlar davomida jismoniy jihatdan chiniqish kelajakdagi kundalik faoliyatlar, mehnat (o'quv) jarayonlarida katta foyda beradi. Shu sababdan sayohatlar jarayonida sayohatchilarga quyidagi mashq-harakatlarni bajarishni o'rgatish tavsiya etiladi.

1. Qisqa (3—5 daqiqa) va muddatli (5—10 daqiqa) to'xtash (priv) paytlarida oyoq, qo'l va belni dam oldirish uchun u yoq-bu yoqqa sekin yurib, qo'llarni yonga, yuqoriga siltash, tirsaklarni oldinga va orqaga aylantirish, bo'yinni yon tomonga burish va aylantirish. Yotgan holda oyoqlarni baland ko'tarib, tosh, daraxt yoki xaltaga (rukzak) suyanish. Sof havodan to'yib-to'yib chuqur nafas olish.

2. Tushki nonushta paytida ovqatlanish oldidan tomonlarga aylanib (yurib) kelish, qo'l, oyoq va gavgaga yengil mashqlar berish,

ovqatlanib bo'lgach, rahbarning ruxsati bilan ariq, jilg'a, soy bo'ylari yoki soya-salqin joylarda yurish. Vaqtga qarab futbol, voleybol, badminton (qizlar) o'ynash.

3. Tunab kelish (1–2 kun) sayohatlarida ertalab jismoniy mashqlarni (yugurish, daraxtlarga osilib-tortilish, toshlarni ko'tarish, oyoqlarni bukib o'tirib-turish, joyida aylanib sakrash va hokazo) bajarish. Tushki paytda muzdek suvda cho'milish, yoki yarim yalang'och holda yuvinish (sheriklar suvni quyishi lozim). Quyosh nurlarida belgacha yalong'och holda yotib toblanish, yengil kiyimlarda oftobda yurish, soya-salqin joylarda o'tirib, yotib dam olish. Baland qirlar, tog' qoyalariga chiqqanda atrof-muhitni kuza-tish bilan bir qatorda o'tirgan va yurgan paytlarda chuqur nafas olish (10–15 soniya) va chuqur nafas chiqarish (10–20 soniya davomida). Nafasni burun orqali olib, og'izdan tutib, sekin chi-qarish kerak.

Kechki ovqatlanish oldidan sharoitlarga qarab 1,5–2 km maso-fani tez yurib o'tish, zarur joylarda sakrash va yugurish lozim. Toshlarni (10–15 kg chamasi) ikki qo'llab baland ko'tarish (10–20 marta), daraxtlarga qo'llarda tortilish (8–12 marta), chalqan-cha yotganda (qizlar) oyoqlarni baland ko'tarib – pastga tushirish kabi mashqlarni ko'proq takrorlash zarur.

Ko'p kunlik (10–15 va undan ortiq)sayohatlarda (sog'lom-lashtirish-sport maskanlari va dam olish oromgohlari sharoitida) jismoniy chiniqish yo'llari juda ko'p bo'ladi. Bunda o'qituvchi yoki yo'riqchi (metodist-instruktor) tomonidan mashg'ulotlar re-jali ravishda olib boriladi. Unda barcha kishilar ishtirok etishlari loz-im. Shunday bo'lsa-da, ba'zi bir sayohatchilar (dam oluvchilar) mustaqil ravishda jismoniy chiniqishini o'zi olib borishi mumkin. Bunday hollarda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Odatdagi ertalabki jismoniy mashqlarni (yurish, yugurish, sakrash, tortilish, o'tirib-turish, uloqtirish va hokazo) bajarish va ularning miqdor hamda me'yorlarini oshirib borish.

2. Tashkil etiladigan sayohatlarda faol ishtirok etish.

3. O'zi sevgan (shug'ullanadigan) sport turi bo'yicha mashg'u-lotlarda (trenirovka) qatnashish.

4. O'tkaziladigan sport musobaqalarida faol ishtirok etish.

5. Havzada (ariq, kanal, ko'l va hokazo) har kuni 1–2 marotaba cho'milish (tushgacha va tushdan keyin).

6. Baland qirlar, tepaliklar va cho‘qqilarga tez chiqish (rahbarning ruxsati va 2–3 kishi bilan birgalikda).

7. Quyoshda yarim yalang‘och holda yurish, yotib toblanish (10–15 daqiqa), soya-salqin, namlik bo‘lmagan joylarda o‘tirib, yonboshlab, yotib dam olish (ortiqcha o‘tirish va uzoq uxlash mumkin emas).

O‘quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlar o‘zlarining xohishi bilan ko‘p kunlik (6–8) sayohatlar uyushtirganda sharoitlarga qarab yuqorida keltirilgan talab va tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa shundan iboratki, piyoda yurish sayohati ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon sifatida shug‘ullanuvchi va ishtirokchilarni jismoniy tarbiyalashda muhim vositalardan biridir.

Yu.A. Shalkov, R.Abdumalikov, T.Xoldarov va boshqa mutaxassis olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijalariga qaraganda (adabiyot ro‘yxatiga qarang) turizm (piyoda yurish, tog‘ turizmi va hokazo) bilan muntazam shug‘ullanib borgan kishilarning o‘rtacha yashash umri boshqa kishilarnikiga nisbatan 10–15 yil uzoq bo‘ladi. Shuningdek, ish qobiliyatining yuqori darajada bo‘lishi sababli ularning mehnat mahsulotlari boshqalarga qaraganda 15–20% ko‘p bo‘ladi.

O‘quvchi-yoshlar va talabalar o‘rtasida turizm bilan shug‘ullanganlar barcha fanlarni o‘zlashtirishda boshqalarga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. Demak sayohatlar orqali jismonan chiniqish va aql-zakovatni o‘stirish, mehnat qobiliyatlarni oshirish, eng muhimi esa umrni uzaytirish imkoniyatlari mavjuddir.

4.4. Sayohatlarda o‘lkani o‘rganish, tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy foydali mehnat

4.4.1. Sayohatlar jarayonida o‘lkashunoslik

Maktab o‘quvchilarining piyoda yurish sayohatlarida reja asosida, ya’ni botanika, zoologiya, tarix, adabiyot va boshqa fanlarda nazariy jihatdan o‘rganilgan bilimlarni amaliy tadbirlar bilan boyitish va mustahkamlash amalga oshirilishi mumkin. Bevosita fan o‘qituvchilarining ishtirokida yoki maxsus topshiriqlar (uy vazifalari)

asosida o'quvchilar mustaqil ravishda o'lkani o'rganish borasida faoliyatlarni bajaradilar.

O'simlik dunyosini o'rganishda tanish va notanish o'simliklar, ularning ildizi, barg shoxlari, gullari va hosillarini (urug', don, meva) tekshirib ko'rish, tahlil qilish hamda namunalar olinadi.

Mamlakatimizning Chotqol, Qurama, Xumson, Chimyon, Shohimardon, Zomin, Oyqar (Baxmal), Nurota, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Bobotog' va boshqa tog'li hamda tog' oldi hududlarda xilma-xil o'simliklar (lola, ravoch, qatron, boychechak, qoqi va hokazo) hamda daraxtlar (archa, yovvoyi anjir, olma, qizilcha, yong'oq, jiya, tok va hokazo) juda ko'p uchraydi. Ularning turlari va o'sish darajalarini o'rganish barchani qiziqtiradi.

Kasb-hunar kollejlarining o'quvchi-yoshlari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari o'z kasblari asosida o'simlik dunyosini o'rganishlari mumkin.

Yuqorida qayd etilgan tog'li joylarda burgut, kalxat, kaklik, yovvoyi kurka turli rangdagi sayroqi qushlar, parrandalar behisob. Shuningdek, bo'ri, tulki, cho'chqa, olqar (yovvoyi qo'y), kiyik, jayra, quyon va shunga o'xshash hayvonlar ham yil sayin ko'paymoqda. Chunki, deyarli barcha tog'li joylar o'rmon xo'jaligi yoki qo'riqxonalarga aylantirilib, nodir o'simliklar va hayvonlar davlat tomonidan qo'riqlanadi. Shu sababdan sayohatchilar, ayniqsa, birinchi marta ishtirok etuvchilar tartib-qoidaga bo'ysunishlari shart. Ya'ni man etilgan o'simliklarni uzish (piyozlarini kavlab olish), daraxt shoxlarini sindirish, parranda va hayvonlarni tutish (ov qilish) mumkin emas.

O'lkashunoslik ishlarining yana bir muhim turi shundaki, joylarning nomini aniqlash (qishloq, ovul, yakka uylar, tog', soy, daryo, ariq va hokazo). Bunda mahalliy kishilar bilan suhbatlashish, qiziqarli joylarni fotosuratga (video) olish va ularni o'quv (mehnat) joylarida o'rganish. Eng muhimi esa o'tgan va atrofdagi joylarni chizmaga (sxema) tushirish, chizma rasmlarda ifodalashdir. Bu yo'lda rangli toshlar, turli shakldagi ildizlar, kundalar, qattiq jismli narsalarni yig'ish, ularni o'quv (mehnat) jamoalaridagi muzey (maxsus xona) yoki shaxsiy kutubxona-muzeyda saqlash mumkin.

Qishloq aholisining qabila, urug'-aymoqlari, urf-odatlarini, kiyimlari, shevalari, raqs-qo'shiqlari, harakatli o'yinlarini bilib yozib olish muhim ahamiyatga ega.

Tunab qolish va ko‘p kunlik sayohatlarda geografik jihatdan izlanish ishlarini olib borish qiziqarlidir. Ya‘ni tosh, tuproqlarni no-odatiy turlari, shamollarning esish vaqti, tomoni, ob-havoning o‘zgarish jarayonlari, shunga asosan qushlar, hayvonlarning harakati (boqishi yoki erkin yurish) ham maxsus kuzatish va izlanishlarni talab etadi.

4.4.2. Tabiatni muhofaza qilish

Tabiatni muhofaza qilish deganda, asosan ikki muhim tadbirni bajarishga to‘g‘ri keladi, ya‘ni: 1. Sayohatchilar tartib-qoidalarini buzmasligi. 2. Boshqalar tomonidan qilingan nojo‘ya harakatlarning oldini olish yoki uning salbiy oqibatlarini tugatish. Ularning qisqacha mazmunlarini quyidagilar bilan ifoda etish mumkin:

1. Sayohatlar jarayonida barcha qatnashchilar o‘z joylarini tozalashlari, yong‘inlarga yo‘l qo‘ymaslik, daraxtlarni kesish (sindirmaslik), suvlarni iflos qilmaslik, yashil o‘tloqlar, nodir gullarni payxon (oyoq osti) qilmaslik lozim. Bu qoidalar tabiat muvozanatining (ekologiya) saqlanishi va yanada yaxshilanishiga sabab bo‘ladi.

2. Ba‘zi sayohatchilarning e‘tiborsizligi yoki ataylab qilishi natijalarida qurigan o‘tlar, shoxlar, daraxtlar yonib ketishi, atrof-muhitga, ayniqsa, hayvonot olamiga katta zarar keltirishi aniq. Shuningdek, odamlarning ekin maydonlari, uy hayvonlari va yashil o‘tloqlarda ularga zarar keltirish hollari ham uchrashi mumkin. Ya‘ni mevalarni ruxsatsiz olish, tovuq, kurka, qo‘zi-uloqlarni o‘g‘irlash, ot, eshaklarni ruxsatsiz minib boshqa joylarga tashlab kelish kabilar. Bunday salbiy va noxush xususiyatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun eng avvalo sayohat rahbari va uning faol yordamchilari doimo, har qadamda hushyor bo‘lib, kuzatuvchilik ishlarini olib borish lozim bo‘ladi.

3. Tabiatni muhofaza qilishning eng muhim yo‘li shundaki, joylardagi yerli aholi bilan muloqotda bo‘lish, ularning roziligi va ruxsati bilan quyidagi ijtimoiy mehnatni bajarish kerak:

- daraxt ko‘chatlarini ekish (bahor yoki kuzda), ularni sug‘orish;
- chorva mollari uchun xashak o‘rish, to‘plash, tashish;
- qo‘zi va uloqlarni yig‘ish va ularni parvarishlash;
- yig‘im-terimda (meva, sabzavot, don, poliz va hokazo) ko‘maklashish;

– yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, imkoniyat darajasida amaliy yordam ko‘rsatish yoki mutasaddi tashkilotlar, idoralarga xabar berish.

Xulosa qilib aytganda sayohat jarayonlarida barcha maxsus tadbirlar qatorida o‘lkani o‘rganish, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy foydali mehnatlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega-dir. Shu asosda o‘quvchi-yoshlar va mehnatkashlarning ma’naviy-ma’rifiy madaniyatini tarbiyalash, insoniy fazilatlarini mustahkamlash imkoniyatlari kengayib boradi.

4.5. Sayohatlarda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish

4.5.1. Tibbiy bilim va amaliy malakalarga ega bo‘lish

Ma’lumki tibbiy punktlar tashkil etilmagan maktab, kollej, litsey, oliy dargoh va mehnat jamoasi yo‘q hisobi. Shu sababdan shifokorlar bemorlarni tekshirish, davolash va aholini tibbiy bilimlar bilan qurollantirishda astoydil mehnat qilmoqda. 2006-yilning Prezidentimiz tomonidan “Homiylar va shifokorlar yili”, – deb e’lon qilinishi buning negizida o‘quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkash ommaning birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishga doir nazariy bilim hamda amaliy malakalarini egallashlari ham nazarda tutilgan.

Umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’lim muassasalarida tibbiy bilim va tushunchalar haqida maxsus suhbatlar, ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, videotasvirlarni namoyish etish yo‘lga qo‘yilgan. Bunda asosan kasallikning oldini olish, o‘z vaqtida davolanish, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish kabi sohalarga e’tibor berilmoqda.

Qizil yarim oy jamiyati va tibbiyotning ba’zi tarmoqlari hamkorligida birinchi tibbiy yordam berishga doir amaliy mashg‘ulotlar ahyon-ahyonda o‘tkazib turiladi. Bu aholining tibbiy bilimlarga yetarli darajada ega bo‘lishiga kamlilik qiladi.

Ta’lim muassasalari va mehnat jamoalari qoshidagi tibbiy punkt yoki kabinetlar (mahkamaxona) jarohatlangan va shu kabi voqealar sodir bo‘lganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘quvchilar, talabalar va yosh mehnatkashlarga doimiy ravishda o‘rgatishlari lozim.

Bunday faoliyatlardan sport to'garaklari, ayniqsa, turizm bilan shug'ullanuvchilar (to'garak-seksiya) maqsadli foydalanishlari kerak. Sayohatlarga tayyorgarlik jarayonida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha aniq tushuncha va malaka hosil qilish zarur. Eng muhimi dorilarning (apteчка) ishlatilishini yaxshi o'zlashtirish, maxsus tibbiy yordam ko'rsatuvchini (shifokor o'rnida) avvaldan tayyorlash lozim.

4.5.2. Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam berish usullari

Sayohatlar jarayonida jarohatlanish yoki boshqa tasodiflar bo'lmazligiga hech kim kafolat beraolmaydi. Qatnashchilarni tartib-qoidalar bilan qurollantirish, ularni doimiy ravishda nazorat qilib, kuzatib borish natijasida ko'ngilsiz hodisalarning kamroq bo'lishiga erishish mumkin. U yoki bu sabablar oqibatida quyidagi hodisalar bo'lishi mumkin.

1. Yiqilish, surinish, dumalab ketish oqibatida terining shilinishi, bo'g'inlarning cho'zilishi yoki qo'zg'alishi, suyaklarning chatnashi (yorilishi) yoki sinishi mumkin.

2. Tosh, shox va boshqa o'tkir uchli narsalarga urilish, yiqilish oqibatida mushaklarning yirtilishi (kesilishi), qon tomirlarining yorilishi (uzilishi) natijasida ko'p qon yo'qotish mumkin.

3. Ehtiyotsizlik sababli ovqat pishirish, choy qaynatish, gulxan yoqish yoki atroflarda olov yonishi (pojar) tufayli badan, a'zolarining kuyishi sodir bo'ladi.

4. Quyoshda yalang'och bo'lib ko'p yurish, yotish oqibatida nurlanish (quyosh urishi) vujudga keladi.

5. Daryo, katta ariq, kanal, ko'l, ko'lmaklarda cho'milib cho'kib yoki oqib ketish natijasida ko'p suv yutib hushdan ketish mumkin.

6. Yoqimsiz, eski (achigan) ovqatlar, zamburug', qo'ziqorin va yovvoyi mevalarni (olcha, jiyda, do'lana, olxo'ri, yong'oq va hokazo) iste'mol qilish natijasida ko'ngil aynish, qusish, qorin og'rig'i va hokazo bo'ladi.

7. Surunkali (xronik) kasalliklarning (ich ketish, yo'talish, bosh og'rig'i, buyrak shamollashi va hokazo) asoratlari qo'zg'alishi kabi illatlar ham sodir bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan voqealar va yana boshqa hodisalar tibbiy bilimlarga yetarlicha ega bo'l-

masligining oqibatidir, deyish ham mumkin. Shu sababdan bir kunlik, tunab kelish, ayniqsa, ko'p kunlik sayohatlarda tibbiy xodimning (shifokor yoki feldsher, hamshira) bo'lishi shart. Ular-ga maxsus tayyorlangan sanitarlar (qatnashchilar hisobidan) va ma'lum darajada tibbiy malakaga ega bo'lgan bevosita yordam be-rishlari lozim bo'ladi. Tibbiyot xodimlari sayohat sharoitlarini bilishlari, zarur bo'lgan dori-darmonlar, texnik vositalar, mosla-malarni olib yurishlari shartdir. Shunday bo'lsa-da, sayohat qat-nashchilarining deyarli barchasi birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoida va usullarini sayohatlar davomida (musobaqa-slyot) amalda yana sinab ko'rishlari lozim. Zaruriyat bo'lganda esa amaliy yordam ko'rsatish kerak bo'ladi.

Ularni quyidagi usullar bilan amalga oshirishga to'g'ri keladi:

1. Yengil yaralarni artib-tozalab (spirt yoki odekalon) bog'lash.
2. Qon tomirlaridan qonning otilib yoki to'xtovsiz oqib turgan joyning yuqori qismini qisib (jugut yoki ro'mol bilan) bog'lash.
3. Qo'l yoki oyoqlarning bo'g'ini chiqsa yoki suyaklar sinsa yog'ochlardan moslama (shina) yasab uni qo'shib bog'lash.
4. Yurish holiga ega bo'lmaganlarni 2–3 kishi bo'lib qo'lda yoki tayoqlardan yasalgan zambillarda (nosilka) ko'tarib tegishli joyga olib borish.
5. Kuyishning darajalariga qarab yog' (vazelin) surtish va bog'lash.
6. Suvda cho'kib yoki yiqilib hushsiz bo'lganlarga sun'iy nafas oldirish, og'ziga puflash. Ichidan suvni chiqarish uchun uni qorni bilan tizzaga yotqizib, belidan (orqasidan) bosish, og'zini ochib ro'molni (qoshiq yoki birorta buyum) tishlatish.

Bemor nafas olmasa, uning og'zini zo'rlab bo'lsa-da ochish va ro'mol, do'ppi (shapochka) yoki biron buyumni tishlatib qo'yib tilini barmoqlar bilan tortish, chiqarish, ko'kragini (o'pka va yurak usti) sekin-sekin bosish lozim bo'ladi.

Og'ir ahvoldagi bemor yoki jarohatlanganlarni yaqin atrofdagi shifoxonaga (medpunkt) yetkazish yoki u yerga borib telefon orqali tibbiy xodimlarni yordamga chaqirish kerak bo'ladi.

Hozirgi texnik taraqqiyot jarayonida qo'l telefonlaridan (sotka) sayohatlarda ham maqsadli foydalanish kerak.

Umuman olganda sayohatlarda jarohatlanish va ko'ngilsiz hodi-salar sodir bo'lmasligiga jiddiy e'tibor berish lozim. Buning eng asosiy chorasi qatnashchilarni avvaldan tayyorlash, tartibuzarlarni

doimo ogohlantirish, ular ustidan qo'shimcha (o'rtoqlari, faollar yordamida) nazorat o'rnatish lozim.

Mazkur birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bo'lajak kasb-hunar egalari puxta egallashlari maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday holatlar mehnat jarayonida yoki ko'cha-ko'yda ham sodir bo'lishi mumkin. Ularni ko'rganda insoniy fazilat sifatida tezda ko'maklashish har bir kishining vijdonan burchi bo'lmog'i kerak.

Mazkur bobga umumiy xulosa qilib shuni aytish lozimki, hozirgi texnik taraqqiyot, odamlarning mehnat va turmush yumushlari bilan o'ta bandligi sababli sihat-salomatlikni saqlash, jismonan barkamol bo'lish kabi hayotiy ehtiyojga e'tibor susaymoqda. O'quvchi-yoshlar va talabalarining kundalik jismoniy mashqlarni (o'yin, sport va hokazo) bajarish miqdorlari susayib bormoqda. Sport to'garaklari, jamoalarda muntazam shug'ullanuvchilar soni 15–20% dan oshmaydi. Yil davomida o'tkazilayotgan 10–15 ta sport musobaqalarida faol ishtirok etuvchilar ham 15–20 %ga yetib boradi. Xullas 65–75% o'quvchi-yoshlar va talabalar jismoniy mashqlar (sport, o'yinlar va hokazo) bilan muntazam shug'ullanib o'zlarining barkamolligini oshirishdan orqada qolmoqda. Bunday sayohat ko'rsatkichlar ziyolilar va mehnatkashlar o'rtasida ko'p bo'lsa-ko'pki, oz emas. Buning ustiga ommaviy piyoda yurish sayohatlarini tashkil qilish e'tibordan chetda qolib ketmoqda.

Sayohatlarning tarbiyaviy va sog'lomlashtirish xususiyatlarini keng targ'ibot qilish, o'quv dasturlari va ish rejalarida mazmun topgan sayohatlarni maqsadli tashkil qilish hamda o'tkazishni yo'lga qo'yish, ularning sifat darajasini doimiy ravishda nazorat ostiga olish lozim.

Bunda mutasaddi vazirliklar, jamoatchi sport uyushmalari (“Yoshlik”, “Talaba” va hokazo) va ayniqsa, “O'zbekturizm” kompaniyasining quyi tarmoqlaridagi (viloyat, shahar-tuman, o'quv yurti) mutasaddi xodimlarning mas'uliyatlarini oshirish lozim bo'ladi. Eng muhimi esa ta'lim muassasalarida turizm bo'yicha klublar (seksiya yoki jamoa) tashkil qilish, ularning faoliyatini zamon talablari darajasida olib borish zarur.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Ommaviy sayohatlar haqida qanday tushunchalarga egasiz?
2. Piyoda yurish sayohatining asosiy xususiyatlari nima?

3. Jamoalarda sayohatlar qanday tashkil qilinishi lozim?
4. Jamoatchi faollar (aktivlar) qanday vazifalarni bajaradi?
5. Sayohatgacha va sayohatlarda qanday jismoniy tayyorgarlik amalga oshiriladi?
6. Sayohatlar jarayonida o'lkani o'rganish, tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy foydali mehnat qanday amalga oshiriladi?
7. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda nimalarni bilasiz?
8. Sayohatgacha va sayohatlarda birinchi tibbiy yordam berishni qanday qilib o'rgatish, ularni amalga oshirish mumkin?
9. Ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida piyoda yurish sayohatlarini yo'lga qo'yish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rsa bo'ladi?
10. Ommaviy piyoda yurish sayohatlariga sizning shaxsiy munosabatingiz qanday?

V bob. TURISTIK JAMOALAR VA ULARNING FAOLIYATLARINI TASHKIL QILISH

5.1. Turistik jamoa haqida tushunchalar

Turistik jamoa deganda sayohatchilarning boshlang'ich tashkiloti yoki uyushmasi tushuniladi. Ya'ni ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining tarkibida jamoatchilik asosida mazkur jamoa tuziladi. Jamoalarning yirik shaklidagi birlashmalarni (uyushma) klubga aylantirish mumkin. Turistik jamoani tashkil qilish mumkin bo'lmagan jamoalarda (o'quv yurti va ishlab chiqarish), ya'ni ular kichik va sharoitlari yetarli darajada bo'lmasa, to'garak (seksiya) yoki jamoa (5–10 kishi) tuzish ham mumkin bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, oldingi davrda markaziy kasaba uyushmalari tomonidan maxsus “Nizom” (положения) ishlab chiqilib va tasdiqlanib, yirik korxonalar va oliy ta'lim muassasalari qoshida alohida turistik klublar, seksiyalar tashkil etilgan edi.

Nizomga ko'ra jamoalardagi jismoniy madaniyat jamoasi (fiz-kultura kollektivi) tarkibida turizm seksiyasi yoki mustaqil ravishda turistik klub tashkil qilishga keng imkoniyatlar yaratilgan edi. Ular o'zlarining nizomlari va ish rejalarini tuzib o'quvchi-yoshlar va mehnatkashlarni turizm bilan shug'ullantirish ishlarini olib borar edi. Bunday klublar ko'pincha mustaqil ravishda ish olib borib, ko'plab havaskor turistlarni o'ziga jalb etar edi.

Respublika va viloyatlar miqyosidagi “Spartak” sport jamiyati qoshida turizm seksiyalari mavjud bo'lib, ular boshlang'ich tashkilotlarda turizm to'garaklari, jamoalarni tashkil qilib, ommaviy piyoda yurish sayohatlarini uyushtirishiga muvaffaq bo'lgan edi.

Boshida ta'kidlanganidek, mustaqillikka erishish arafalari davrida (1989–1991-yillar) va keyingi vaqtlarda turizmga bo'lgan e'tibor ancha susaydi. Bu tashkiliy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy islohotlar bilan bog'langanligining sababidir. Lekin ijtimoiy-madaniy turmush, aholining har sohadagi e'tiqodi, ehtiyoji va boshqa bir qator sabablar bilan mamlakatda turizm ishlarini olib borishga qaratildi. Bu

yo'lda "Turizm to'g'risida"gi Qonun (1999-yil) va turizmni rivojlantirish hamda kadrlar tayyorlash haqidagi hukumat qarorlari (1999-yil) muhim bosqich bo'lib hisoblandi. Bu asosan tarixiy shaharlar, madaniy-arxitektura yodgorliklariga sayr (экскурсия) uyushtirish, xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratildi. Piyoda yurish sayohati esa deyarli e'tibordan chetda qolmoqda. O'quvchi-yoshlar va mehnatkashlarning sayr-sayohatlarini tashkil qilish asosan har bir jamoaning (o'quv va mehnat) rahbarlari, kasaba uyushmalari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlar tomonidan uyushtirilmoqda. Ularni boshqaruvchi turizm jamoasi tashkil qilingan emas.

Shu sababdan har bir jamoada (o'quv va mehnat) turizm jamoasi yoki to'garagini (seksiya) tashkil etishga doir ba'zi bir takliflar tavsiya etilmoqda (avvalgi nizomlar asosida):

1. Jamoa rahbarlarining roziligi va ruxsati bilan turizmga qiziquvchilarning (maxsus e'lon asosida) umumiy yig'ilishini o'tkazish. Bunda turizmning ahamiyati haqida ma'ruza o'qish (rahbar yoki taklif etilgan mutaxassis). Yig'ilishda to'garak rahbariyatining kengashini (sovet 9–11 kishi) saylash. Kengash esa seksiya yoki turistik klubning raisini saylab, qolgan a'zolarning burchi va vazifalarini belgilash.

2. Har 1–2 oyda kengash yig'ilishini o'tkazib, unda rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash, a'zolarning hisobotini eshitish.

3. Faol o'quvchi, talabalardan (mehnatkash) turizm bo'yicha yo'riqchi (metodist-instruktor) tayyorlash. Bunda seminar mashg'ulotlarni o'tkazish yoki markaziy turizm seksiyalariga safarbar etib, u yerda maxsus tayyorgarlik amalga oshirish.

4. Dam olish kunlari, ta'til paytlari va ulug' sanalarga bag'ishlab bir kunlik, tunab kelish (2–3 kun) va ko'p kunlik (6–8 kun) sayohatlarni o'tkazish.

5. Tarixiy yodgorliklar, madaniy obidalar, xotira maydonlari, ilg'or ishlab chiqarish korxonalari, muzey, teatr, sport inshootlari va hokazo joylarga sayr (ekskursiya) tashkil etishda faol ishtirok etish.

6. Jamoada (o'quv va mehnat) turistik burchak yoki muzey tashkil qilish, unda kitoblar, plakatlari, nodir topilmalar, turistik jihozlar, videotasvir tasmlari, rasm-suratlar va hokazoni to'plash hamda saqlash.

7. Ilg'or tajribalar bilan tanishib borish, o'z tajribalarini matbuot, teleradiolarda yoritib borish.

8. Shahar (tuman), viloyat va respublika turizm anjumanlari, musobaqalarida (slyot) faol ishtirok etish.

9. O'quvchi-yoshlarning yozgi oromgohlari, talabalarning sog'lomlashtirish-sport maskanlari va mehnatkashlarning dam olish uylari, sanatoriya, kurortlardagi sayohat ishlarida qatnashish, amaliy yordam berish.

Yuqoridagilardan ma'lumki, jamoalarda turistik klub yoki seksiyalarni tashkil qilishning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jihatdan afzalliklari ehtiyojlarga juda kattadir. Shu sababdan havaskor turistlarining sonini ko'paytirish, ommaviy sayr va sayohatlarni tashkil qilish bugunning muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

5.2. Turistik klublar va seksiyalarning faoliyati

Mamlakatimiz mustaqilligi, olib borilayotgan turli xil tub islohotlar barcha sohalar kabi turizm ham ishlarni aniq rejalashtirish, shart-sharoitlarni hisobga olish, ijroni amalga oshirish, nazorat qilish va tekshirish kabi eng zarur vazifalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish (qo'shma) korxonalar, aholi istiqomat joylarida tashkil etilgan (yoki tashkil etiladigan) turistik klublar yoki seksiyalar (to'garaklar) o'z ish faoliyatlarini rejalashtirish va yuritishda quyidagilarga (namunaviy ish rejasi) asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni:

1. Boshqaruv (tashkiliy) faoliyatlar:

- umumiy (ta'sis) majlisni o'tkazish. Bunda hisobot berish va yangi boshqaruv kengashini saylash. Shuningdek, yillik ish rejasini tasdiqlash;

- kengash (sovet yoki byuro) yig'ilishlarini har oyda o'tkazib borish;

- bunda a'zolarning hisoboti, rejalarni ishlab chiqish, ehtiyojga zarur bo'lgan ishlarni amalga oshirish;

- yuqori turistik tashkilotlar faoliyati bilan aloqador bo'lish, ularning ko'rsatma va topshiriqlarini bajarish;

- jamoatchi kadrlar tayyorlash, ularning malakalarini oshirish, seminar mashg'ulotlarini o'tkazib borish.

2. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish:

- dam olish, ta'til kunlari va ulug' sanalarga bag'ishlab sayr-sayohatlar o'tkazish.

- sayohat yo‘llarini (marshrut) ishlab chiqish va tasdiqlatish;
- “Ajdodlar merosi”, “Tarixiy obidalar”, “Zamonaviy qasr va koshonalar” mavzusida sayr o‘tkazish;
- “O‘zbekiston sayohatchisi”, “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlaridagi turizm normativlarini (talablar) bajarish uchun ommaviy sayohatlar tashkil qilish;
- Xotira maydonlariga sayr uyushtirish;
- turistik texnika bo‘yicha jamoa birinchiligi uchun musobaqalar o‘tkazish.

3. Targ‘ibot ishlari:

- jamoaning “Sayohatchi” devoriy (nashrli) gazetasini tashkil etish, uning sifatiga e‘tibor berish;
- turizm mavzusida ma‘ruzalar tashkil etish va unga mutaxassislar, faxriylarni jalb etish;
- “Mening vatanim”, “Tabiatni asra” (ekologiya), “Jismoniy chiniqish” kabi mavzularda muloqotlar, davra suhbatlarini o‘tkazish;
- videotasvirlarga olingan eng namunali tabiat manzaralari va sayohatchilarning faoliyatlarini doimiy ravishda namoyish qilib borish;
- matbuot va teleradiolarda chiqishni tashkil qilish;
- faol sayohatchilarning fotosuratlarini va faolliyatini haqida eksponatlar, vitrinalar tashkil qilish;
- turizm bo‘yicha musobaqalarda g‘olib chiqqanlarni taqdirlab borish, rag‘batlantirish;
- kasb-hunar bilan bog‘langan sayohatlar, jismoniy chiniqishlar haqida tashviqotlar olib borish.

4. Moliyaviy-xo‘jalik ishlari:

- klubning (seksiya) moliyaviy smetasini tuzish. Bunda kirim manbalarini (a‘zolik badallari, xomiylik, shaxsiy yordam, tijorat, pullik xizmat – ijara va hokazo) aniqlash va mablag‘larni to‘plash;
- smetaga asosan turistik jihozlarni xarid qilish, ularni ijaraga berish, ommaviy tadbirlar va musobaqalar (slyot) uchun moddiy-texnik manbalarni belgilash;
- o‘quvchi-yoshlar va talaba-sayohatchilarning turli xil xizmatlarda (bo‘sh vaqtlarda) ishtirok etishi va mablag‘ topishlarini yo‘lga qo‘yish, ya‘ni ishlab chiqarish, savdo, bozor va hokazoda mehnat qilishlarini ta‘minlash. Ularning topgan mablag‘laridan bir ulushini klub (seksiya) xazinasiga (qonuniy asosda) o‘tkazish.

5. Rasmiylashtirish va hisobot ishlari:

5.1. Hujjatlarni rasmiylashtirish:

– sayohatchilar va ularning faoliyatlarini ko‘rsatuvchi kartalar (hujjat);

- tadbirlarni ro‘yxatga olish daftari;
- kirim-chiqim qog‘ozlar ro‘yxati;
- seksiya jurnali;
- rejalar papkasi;
- yo‘nalish (marshrut) varaqalari to‘plami;
- qonun, qaror, nizomlar to‘plami;
- moliyaviy hujjatlar;
- jihozlar ro‘yxati.

5.2. Hisobot ishlari.

- davriy (oylik, kvartal, yarim yillik) va yillik hisobotlar;
- moliyaviy hisobotlar;
- mutasaddi rahbar tashkilotlarga hisobot, ma’lumotnomalar.

Eslatma: yuqoridagi rasmiy hujjatlarning ba’zi bir namunaviy nusxalari ilova qilindi.

5.3. Jamoatchi faollarni tayyorlash

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti va viloyatlardagi jismoniy tarbiya fakultetlarida turizm fan sifatida o‘qitilsa-da, maxsus kadrlar tayyorlanmayotir. Turizm fakulteti (TDIU) va viloyatlardagi turizm kollejlari asosan sayyohlarga madaniy xizmat ko‘rsatish o‘rgatilmoqda. Piyoda yurish turizmi bo‘yicha mutaxassis kadrlar hech yerda tayyorlanmaydi. Faqat maxsus kurs, seminar-kengashlardagina yo‘riqchi-instruktorlar tayyorlanmoqda. Demak, har bir o‘quv yurti va mehnat jamoasi o‘z faollarini yuqori kurslarni seminarlarga yuborishlari lozim. Shu asosda o‘z jamoalarida ham maxsus dastur va rejalar asosida (namuna ilovada) jamoatchi faollarni tayyorlashga to‘g‘ri keladi. Bunda mutaxassislar, tajribali turistlarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda turizm harakati va uning ommaviyligi asosan boshlang‘ich turistik tashkilotlar (klub, seksiya) faoliyatiga bog‘liqdir. Shu sababdan sayr va sayohatlarni ta’lim muassasalari, mehnat jamoalarida ommalashtirishda turistik klub va seksiyalarni tashkil qilish, ularga amaliy yordam qilish lozim.

Ta'kidlash lozimki, kasb-hunar kollejlarining o'quvchi-yoshlari, talabalar va mehnatkash faollar jamoalarda (kollektiv) turistik klublar va seksiyalarni tashkil qilish, ularning faoliyatlarini maqsad-dagidek yuritishda har bir jamoaning bosh rahbari, yetakchi mu-taxassislari asosiy rol o'ynashi hamda kasaba uyushmalari qo'mitalari (профсоюз), "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati hamda turli xil xayriya jamg'armalari, xomiylarning amaliy yordamlari muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish lozim. Shu asosda bo'lajak ish, mehnat joylarida turizm ishlarini yo'lga qo'yish yo'llarini o'rganishlari lozim bo'ladi. Buning uchun turistik klublar, markaziy seksiyalar, jamoatchi tashkilot hamda uyushmalarning nizomlari bilan yaqin-dan tanishish zarurdir.

O'z bilimlarini sinash uchun nazorat savollari

1. Turistik jamoa deganda nima ko'zda tutiladi?
2. Turistik klub va seksiyalarni (to'garak) tashkil qilish uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?
3. Turistik klubning (seksiya) nizomida asosan qaysi yo'nalishlar bayon etilgan?
4. Klub va seksiyaning ish faoliyatlari nimalardan iborat?
5. Klub (seksiya) o'z faoliyatini qaysi hujjatlar asosida olib boradi?
6. Klubning (seksiya) moddiy-texnik ta'minoti qanday bo'ladi?
7. Yangidan tashkil etiladigan turistik klub (seksiya) faoliyatiga kimlar rahnamolik qilishi kerak?
8. Jamoatchi faollar qanday tayyorlanadi?
9. Jamoalarda (o'quv va mehnat) turistik klublar va seksiyalarni tashkil qilishga qanday munosabat bildirasiz?

VI bob. TOPOGRAFIK TUSHUNCHALAR VA TURISTIK TEXNIKA BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH

6.1. Topografik bilimlar haqida tushunchalar

Sayohatlar jarayonida va umuman atrof-muhitni yaxshi bilish, tabiatni kuzatish hamda ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan voqealar, hodisalar, faoliyatlarni anglash muhim ahamiyatga ega-dir. Bu sohada umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim muas-sasalarida o'qitiladigan geografiya, tarix, adabiyot va boshqa fanlar aniq ma'lumotlar beradi.

Mustaqillik yillari davrida “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talablari tarkibida sayr-sayohatlar aholining yoshiga qarab normativlar berilganligi hayotiy zaruriyatdir. Uning me'yoriy talab-larini bajarishda barcha amaliy faoliyatlar bilan bir qatorda nazariy jihatdan tegishli bilim hamda malakaga ega bo'lish ham talab etiladi. Ya'ni, sayyohatchilar yo'lni (marshrut) tanlash, chizmalar (sxema) tayyorlash, xaritani o'qish, ulardagi shartli belgilar haqida tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Shu sababdan sayohatlarga tayyor-garlik va ularni maqsaddagidek amalga oshirish uchun barcha ish-tirokchilar topografik bilim va tushunchalarga ega bo'lishlari shart.


Ular bevosita maxsus (seminar) mashg'ulotlar jarayonida va mustaqil ravishda o'rganiladi. Sayohatlar davomida topografik tu-shunchalar va bilimlar amaliy jihatdan mustahkamlab boriladi.

6.1.1. Topografiya va shartli belgilar

Yer va uning tuzilishini qog'ozda rejali ravishda aks ettirish **to-pografiya** deyiladi. Bu geodeziyada ko'proq ishlatiladi.

Kartada yer va undagi asosiy belgilar aniq va qisqartirilgan holda beriladi. (1–4-rasmlar).

Sonli masshtab kartada tasvir etilgan to'g'ri chiziqlar oralig'ini aniqlab beruvchi belgidir. U quyidagicha ko'rsatiladi: $1 : A$ yoki $\frac{1}{A}$



1-rasm. Magnit chizig'i va azimutning og'ishi.

Bunda: A — chiziqlar kartada necha marta qisqartirilganini ko'rsatuvchi son. Masalan, 1:50000, 1:100000, 1:250000, 1:1000000,

$$1:40000, \frac{1}{84000}.$$

Chiziqli masshtabda joyning biror bo'lagi aniq sonlar asosida chiziq bilan belgilanadi va bu aniq belgi kartaning tagida to'g'ri chiziq bilan taqsimlab ko'rsatiladi.


Chiziqli masshtab $23 = r$ sonli masshtabga nisbatan oraliqni hisoblashga birmuncha qulay. Chunki sonlarni ko'paytirib turmasdan aniq chiziq belgilari asosida ma'lum oraliqni o'lchab, masofani tez belgilash mumkin. Turistlar ko'proq 1:25 000 masshtabli kartadan foydalanadilar.

Shartli belgilar kartani o'qish kalitidir, shartli belgilar asosida uch


xil kartalar mavjud: masshtabli, masshtabsiz, izohli.

Shuni hisobga olish kerakki, kartadagi ayrim shartli belgilar faqat yoz mavsumiga moslab olinadi.

Joylarning relyefi yirik masshtabli kartalarda ko'rsatiladi, bunda dengiz sathiga nisbatan balandliklar aniq o'lchov bilan belgilanadi.



2-rasm. Ufq tomonlarini soat va quyosh bo'yicha aniqlash usullari.




3-rasm. Chiziqli masshtab.

Balandliklarning yo‘nalishi, nishabligi uning tuzilishiga qarab aks ettiriladi.

Ayrim hollarda, ayniqsa, sxemalarda joyning balandligi yoki pastligi oddiy chiziqchalar bilan ham ifodalanadi.

Marshrutga tegishli bo‘lgan joylarning sxemasini tuzish yoki uni aynan ko‘chirishda kartaning masshtablarini o‘zgartirmaslik zarur. Ayrim hollarda kartadan ko‘chirishga fotosurat usulidan foydalanish mumkin. Kartadan foydalanishda uning chiqqan yiliga e‘tibor berish, faqat yangisini ishlatish lozim.



4-rasm. Sirkul yordamida kartaga qarab masofani o‘lchash.

6.1.2. Joylarni chamalab topish usullari

Biror joyni chamalab topish uchun kartani gorizontal holatda saqlab, uning ustiga kompasni qo'yish lozim. Keyin karta kompasning ko'rsatkichi meridianga to'g'ri kelguncha aylantiriladi. Magnit ko'rsatkichi geografik qutbni to'la ko'rsatmaganligi tufayli shunday qilinadi. Umuman, ikki meridian, ya'ni geografik (haqiqiy) va magnit meridianlari mavjud (5-rasm).

Haqiqiy va magnit meridianlarning oralig'i magnit og'ish burchagi deb ataladi.



5-rasm. Tomonlarni qor erishiga qarab chamalash usullari.

Bu og'ishning farqi $10-20^\circ$ va undan ham ko'proq bo'lishi, shuningdek, turli belgilarga ega bo'lishi mumkin. Turgan joyni aniq belgilash uchun kartada belgilangan og'ish burchaklarini bilish zarur. Bundan tashqari turgan joyni Qutb yulduzi orqali ham aniqlash mumkin.


Agar magnit og'ish burchagi sharqiy tomonda bo'lsa, unda kartada plus (masalan, $+7^\circ$) bilan belgilanadi. Demak, haqiqiy Shimol yo'nalishning shimoliy chap tomonida ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunda kompas ko'rsatkichini 7° ga to'g'rilash zarur va shimol-janub kesishmasi haqiqiy geografik meridiandan o'tadi. Agar og'ish burchagi g'arb tomonda bo'lsa, unda haqiqiy meridian chizig'ini topish uchun karta magnit og'ish burchagiga qarab o'ng tomonga

buriladi. Shu tariqa shimolni aniq belgilab olishga erishiladi. Kompas orqali kartaning shimoli aniqlangach, turist o'zi turgan joyni belgilab, yo'nalish tomonini va aniq joyni belgilaydi. Shartli belgilar orqali u marshrutni o'rganadi va yo'lga tushadi.

Turist kompassiz karta orqali chamalashda joylarning chizig'i yoki belgilar orqali amalga oshiradi.

Joylarni chiziq orqali chamalashda yo'l, daryo yoki boshqa obyektlar belgilab olinadi.

Bunday paytlarda qo'ldagi kartaga tez-tez qarash va belgilarni solishtirib borish kerak (6-rasm).



Piyoda yurish
so'qmoqlari



Qumtepalar



Qishda yuriladi-
gan yo'llalar



Tik qoyalar




Ko'priklar



Qo'rg'onlar




Daryoning sayoz
joylari




Katta va eski
chuqurliklar



Kemalar
to'xtaydigan joy



Birtekis qumliklar



Odamlarni o'tka-
zuvchi yassi sol



Balandlik, gorizonta
l va dovonlar belgisi



Tundralar



Jarliklar



O'tish mumkin
bo'lgan botqoqlik




Muzlik va tog'
jinsi tepaliklari



Butazor



Dala va o'rmon
yo'llari




Quduqlar



O'tli to'siqlar



Buloqlar



Ikki tomonlama temir yo'llar




G'orlar




Bir tomonlama temir yo'llar




Chamalab topish uchun zarur bo'lgan alohida daraxtlar




Tor izli temir yo'llar




Mevali bog'lar



Balandlik




O'tloqlar



Temir yo'llarning eski tasviri




O'tib bo'lmas qamishli botqoqlik



Shosse (katta yo'l)



O'tish mumkin bo'lgan sho'rxok joylar



Tosh terilmagan yo'l



Yodgorlik



Suv tegirmoni




Aralash o'rmon



Trubali zavod, fabrikalar



Ninabargli o'rmon



Meditsina punktlari

	Keng bargli o'rmon		Suv tegirmoni
	Kesilgan o'rmon		Shamol tegirmoni
	Yongan o'rmon		Trigonometrik punkt
	Shamoldan yiqilgan daraxtlar		Telegraf idoralari
	Daraxtni kesib yasalgan yo'l		O'rmon qorovulining yo'li
	Trubasiz zavod, fabrikalar		Yo'l ko'rsatkichlari

6-rasm. Kartadagi shartli belgilar.

Joylarni ayrim hollarda yulduz, quyosh hamda ayrim predmetlarga qarab ham chamalab topish mumkin.

Soatga va quyoshga qarab yurish yo'nalishi va tomonlarni aniq belgilash mumkin. Buning uchun soatning ko'rsatuvchi strelkasini quyoshga qaratilib, 1 raqami bilan quyosh tomondagi son o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bunday hollarda soat mahalliy vaqtlarga to'g'rilanishi zarur. Bu usul bilan yozgi sharoitlarda tomonlarni belgilash uncha qiyin bo'lmaydi va unda ko'pi bilan 20–25° ga xato qilish mumkin.

Qutb yulduzi bo'yicha chamalash usuli quyidagicha: kechalari havo ochiq bo'lganda samodagi yulduzlarni belgilash juda oson. Katta ayiq yulduzi oldidagi qator ikki yulduz ustidan to'g'ri chiziqli xayol Kichik ayiq yulduzining oldidan o'tgan cho'michsimon yulduzlarning eng chekkasidagi (dumli) yulduzini bildiradi va uning

geografik meridiandan og‘ish burchagi 2° dan oshmaydi. Qutb yulduzi topilganda tomonlarni aniq belgilash mumkin bo‘ladi.

Turistlarning oy harakatini bilishi ham tomonlarni belgilashga yordam beradi.

Joylardagi predmetlar orqali chamalash usuli ham turistlar uchun qo‘l keladi.

Tabiatda uchraydigan turli predmetlar tomonlarni belgilashda foydalidir.

Atrofni chamalab belgilab olgach, uzoq va yaqinda ko‘ringan predmet yoki masofalarni aniqlash zarur bo‘lib qoladi. Buning uchun quyidagicha ish tutish kerak: har bir kishi o‘zining qadami va uning kengligini chamalay bilishi lozim. Odatda, bir juft qadamni 1,5 m bilan belgilashadi.

Shunga asosanib, ma‘lum oraliqni qadamlar bilan o‘lchash va masofani belgilash mumkin. Agar masofa uzoq bo‘lsa, har yuz qadamda ma‘lum sonlarni yozib borish kerak, yozish imkoni bo‘lmaganda barmoqlarni bukish bilan hisob qilib boriladi (1-jadval).

1-jadval

Uch qadamni metrغا aylantirish (S.V. Obruchev usuli, kurs bo‘yicha)

Egilish burchagi, gradus	Uch qadam sonlari							
	100	200	300	400	500	600	700	800
	Metrlar							
Tushish 20	198	396	594	792	990	1188	1386	1584
Tushish 10	214	428	642	856	1070	1284	1498	1712
Tushish 0	228	456	84	912	1140	130	1596	1824
Chiqish 10	185	370	555	740	925	1110	1295	1480
Chiqish 10	148	296	444	592	740	888	1026	1184
Chiqish 10	112	224	336	448	560	672	784	896

Oraliqni qadamlab o‘lchashning aniq bo‘lishiga yuqoridagi jadval yordam bersa, oraliqni ko‘z bilan chamalash miqdorini navbatdagi 2-jadval orqali bilib olish mumkin.

Masofalarni o‘lchash va chamalashning turli usullari mavjud. Bulardan eng qulay usul uchburchak shaklida o‘lchashdir. Buning uchun gugurt cho‘pi o‘lchov vositasi bo‘lib xizmat qiladi (7-rasm). Gugurt cho‘pi imkoni boricha millimetrlarga bo‘lib chiqiladi. Shu-

ningdek, o'lganadigan joygacha bo'lgan masofada turgan narsaning (daraxt, tosh, uy va hokazo) taxminiy balandligini bilish zarur. Masalan, odamning uzunligi 1,7; velosiped g'ildiragining balandligi 0,75; ot ustidagi kishi 2,2; telegraf ustuni – 6; shifr yoki tunukalanmagan oddiy uylarning balandligi 2,5–4 metr bilan belgilanadi.

2-jadval

Oraliqni ko'z bilan chamalash miqdorlari

Predmetlarning nomi	Oraliq
1	2
Katta minora, g'alla ombori, machitlar	19–21 km
Shamol tegirmonlari	11 km
Qishloq va katta imoratlar	9 km
Fabrika trubalari	6 km
Alohida uylar	5 km
Uy derazalari	4 km
Tom ustidagi trubalar	3 km
Alohida daraxt, odamlar	2 km
Kilometr, ko'rsatkich va yo'l ustunlari	2 km
Otlarning oyog'ini ko'rish	700 m
Oynalardagi turli bezaklar, belgilar	530 m
Odam boshi	400 m
Kiyim va uning rangi	270 m
Tom ustidagi taxtalar, tuynuklar	210 m
Tugmalar	160 m
Odam yuzi	160 m
Chehraning o'zgarishi (kulishi, qovoq solish)	110 m
Ko'zlar	60 m
Ko'zning oqi	20 m

Aytaylik, telegraf ustunigacha bo'lgan oraliqni o'lchash kerak. Buning uchun qo'limizdagi gugurt cho'pini barmoqlarda ushlab, qo'lni to'la oldinga uzatamiz va uning uchini ustun bilan baravarlalashtiramiz (bir ko'z bilan qarash kerak). Katta yoshdagi kishining qo'li taxminan 60 sm uzunlikka ega. Gugurt cho'pi bilan ustun ufqda tenglashtirilganda ustun gugurt cho'pining ikki chizig'iga (4 mm) teng keldi, deylik. Oraliqni belgilash va hisoblash uchun quyidagi proporsiyadan foydalaniladi:

$$\text{qo'l uzunligi} = \text{gugurt cho'pi chizig'i} = 0,60 \ 0,04$$


$$X = 0,60 \times 6,0 = 900$$

Bunda: qo'l oralig'i ustun balandligi X 6,0 0,04

Shunday qilib, ustungacha bo'lgan masofa 900 metrni tashkil qiladi.

Sayohat jarayonida masofalarni o'lchashning turistik o'lchov, ya'ni andozalarini bilib qo'yish kerak. Turistik andozalar quyidagi belgilar bilan aniqlanadi:

- qarich (bosh va kichik barmoqlar oralig'i) 18–22 sm;
- bosh barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 11–13 sm;
- uchinchi barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 7–8 sm;
- bosh barmoq bilan ikkinchi barmoq uchlari yozilganda uning oralig'i 16–18 sm bo'ladi; ikkinchi va uchinchi barmoqlar yozilganda ularning oralig'i 8–10 sm ni tashkil qilishi mumkin.



7-rasm. Oraligni gugurt cho'pi bilan o'lchash.

Ikki qo'lni yozganda (quloq), uning uzunligi odatda, bo'y bilan baravar bo'ladi. Ikkinchi barmoqning eni 2 sm va tirnoq eni 1 sm, to'rtta barmoqning juft holdagi eni 7–8 sm ni tashkil qiladi.

Ma'lumki, havo ochiq paytda yuqorida ko'rsatilgan predmet va narsalarni belgilangan km yoki m hisobida har bir sog'lom kishi bemalol ko'ra oladi va shu sababli marshrutdagi masofalarni ko'z bilan chamalash mumkin bo'ladi.

Joylarning tuzilishiga qarab predmetlar turli xilda ko'rinishi ham mumkin. Masalan, cho'l sharoitida kichik predmetlar (daraxt, uy va boshqalar) juda uzoqda bo'lib ko'rinadi. Tog' sharoitlarida toshlar, tepaliklar, cho'qqilar juda yaqin bo'lib ko'rinadi. Bu narsa pastdan ham, yuqoridan ham qaraganda shunday seziladi. Kanal, daryo juda uzunga o'xshab ko'rinadi.

6.1.3. Sayohatlarda o'lkashunoslik va qidiruv ishlari

Sayohatlar jarayonida turli xil o'lkashunoslik va qidiruv ishlari olib boriladi. Buning uchun maktab kollektivi, asosan, sayohat rahbari o'quvchilarning ko'p kunlik turistik sayohati davomida qanday qidiruv yoki o'lkashunoslik ishlari olib borish kerakligini avvaldan rejalashtirishi va tegishli mutaxassislardan maslahat olish kerak bo'ladi. Bu sohada esa mutaxassislar ilmiy tekshirish institutlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi kafedralar, kabinetlar, muzeylar va muassasalar tegishli yordam ko'rsatishi yoki bevosita topshiriqlar berishi mumkin.

Meteorologik kuzatishlar

Tabiatda uchraydigan turli hodisalar, jumladan, meteorologik o'zgarishlar sayohatchilar, umuman sayyohlarning hayotida muhim o'rin tutadi.

Ob-havoning o'zgarishini bilish uchun birnecha kun davomida aniq bir vaqtda (soat 1, 7, 13 va 19 da) kuzatishlar olib borish lozim.

Bulutlarni balandroq va ochiq joyda kuzatish kerak bo'ladi. Ko'z bilan bulutlarni kuzatish ballar bilan o'lchanadi. Bulutsiz osmonni, no'l ball bilan, osmon bulut bilan to'la qoplangan bo'lsa — 10

ball bilan belgilanadi. Agar bulutlar osmonni 1/10, 2/10, 3/10, 4/10 miqdorda qoplagan bo'lsa, unda 1, 2, 3, 4 ball deb hisoblanadi.

Bulutlar past, o'rta va baland qatlamlardan iborat. Yuqori qatlamdagi bulutlar yupqa, oq bo'ladi va soya tashlamaydi. Bunday bulutlar ob-havoning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. O'rta qatlamdagi bulutlar zangori-sarg'ish tusda bo'lib, tuman va to'liqinni eslatadi. O'rta qatlamdagi bulutlar quyosh nurini o'tkazmaydi.

Bulutning pastki qatlami quyuk sarg'ish tusdadir. Bunday bulutlar osmonni to'la qoplab oladi.

1. Bulutlar ko'pincha shimoli-g'arb tomondan sharqqa qarab ko'chib yuradi.

Bu osmondagi shamollarning yo'nalishini bildiradi.

Odatda quyoshning chiqish va botishida osmon qizaradi. Bunday hollarda havo o'zgarishi mumkin. Osmon zangori, ko'kroq bo'lganda esa ob-havoning uzoq muddatlarga o'zgarmasligini bildiradi.

Ob-havoda bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan bilishning ayrim belgilari:

1. Yoz paytlarida osmon bulutli bo'lib, shamol pasaysa, kechasi salqin bo'lishidan darak beradi.

2. Quyosh chiqishi bilan bulutlar paydo bo'la boshlaydi va kunning yarmiga borib ko'payadi. Kech kirishi bilan bulutlar yana yo'qoladi.

Havo yaxshi bo'lishning belgilari:

- qaldirg'ochlar balandlab uchadi;
- chumolilar juda tez harakat qiladi;
- kechqurun chigirtka va boshqa hasharotlar uzoq chirillashadi;
- asalarilar dalalarga juda erta uchib ketadi;
- burchaklar, o't oralari, tosh kovaklari o'rgimchak uyasi bilan to'la qoplanadi;

– qoqigullarning hamma gullari, suv hamda ko'lmak, havzalarida oq nilufarlar ochilgan bo'ladi;

- shamol bo'lmaganda changlar tik yuqoriga ko'tariladi;
- gulxan cho'g'larining usti oqarib, o'chganday bo'lib ko'rinadi.

Ob-havo buzilishining belgilari:

- yulduzlar qizg'ish yoki tiniq, zangori bo'lib yarqiraydi;
- qaldirg'ochlar va boshqa qushlar past uchadi;
- boyqushlar kunduzi sayray boshlaydi;
- o'rdaklar, oqqushlar suvga ko'p sho'ng'iydi;

- kaltakesaklar iniga yashirinadi;
- baqalar suv, balchiqdan chiqib qurullay boshlaydi;
- asalarilar kechgacha uchadi va kechqurun aktivlashadi;
- itlar kam ovqat yeb, ko‘p uxlaydi, bekorchi yugurishadi;
- mushuklar yuz-qo‘llarini “yuvadi”;
- tovushlar tez eshitiladi va hidlar tez tarqaladi;
- telegraf ustunlaridagi simlar guvillaydi;
- gulxan ochiq va tiniq ko‘rinadi.

Topografik kuzatishlar

Topografik kuzatishning eng qulay turi o‘tgan marshrutni rasmsga olish yoki sxemaga tushirishdir. Shuningdek, masofa yoki oraliklar qadamlab o‘lchash yo‘li bilan, yo‘nalish esa kompas bilan aniqlanadi.

Agar arxelogik yoki foydali qazilma boylik va hokazolarni chizish kerak bo‘lsa, unda uning aniq rejasini tuzish lozim. Bunday hollarda aniq o‘lchov asboblari (metr va boshqa asboblari) ishlatish kerak.

Ko‘p hollarda turistlar o‘zlari turgan joyning balandligini o‘lchashga urinib ko‘radilar. Bunday paytlarda eklimetr (joylarning nishabligini o‘lchaydigan asbob) yoki barometr (высотометр) kabi asboblardan foydalaniladi.

Joylarning sxemasini chizish va shartli belgilarni ko‘chirish turistlarning topografiya sohasidagi malakalarini mustahkamlaydi.

Geologik kuzatishlar

Sayohatchilarning geologik kuzatishi marshrutning geologik suratga olinishini taqozo qiladi. Geologik kuzatishlarda turistlar yer tuzilishi, uning qatlamlari, foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

U yoki bu joyning sxemasini chizish, muhim topilmalar tavsifini yozish-da ularning hajmi, aniq joyi, uzunligi, kengligi aniq ko‘rsatilishi kerak.

Topilmalardan hajmi 3×3 sm qalinligi 2 sm dan kam va ortiq bo‘lmagan hajmda na‘muna olish lozim.

Geologik kuzatishlarga chiqqanda geologik bolg‘a, arra, o‘lchov lentasi (bochevka), tog‘ kompassi (eklimetrli), 10 protsentli tuz

kislotasi solingan shisha (togʻ jinslarining qaynashini aniqlaydi), matodan qilingan xalta va boshqa kerakli asbob hamda jihozlarni olish lozim.

Geomorfologik kuzatishlarda sayohatchilar yer tuzilishidagi oʻzgarishlarni oʻrganadilar. Buni quyidagi reja asosida olib borish mumkin:

Obyektning nomi.

Uning aniq yoʻnalishlari.

Dengiz sathiga nisbatan uzunligi va balandligi.

Kesib oʻtish chizigʻi boʻyicha (eniga) uchraydigan turlar, boʻlinmalar toʻgʻrisida xarakteristika.

Yoʻnalish boʻyicha xarakteristika.

Ayrim qismlarni qamrab olgan oʻsimliklar.

Territoriyaning xalq xoʻjaligi uchun ahamiyati.

Gidrologik kuzatishlar

Gidrologik kuzatishlarda hali toʻla oʻrganilmagan koʻl, daryolar tadqiq qilinadi.

Bunda koʻl yoki daryoning boshlanishi, oqish tezligi, kengligi, atrofidagi sharoiti, tabiatning oʻzgarishiga qarab uning ham oʻzgarishi, qirgʻoqlarning tuzilishi, daryo suvining oqish xususiyatlari toʻgʻrisida materiallar yigʻiladi. Ayrim hollarda mahalliy kishilar bilan ana shu mavzularda suhbat qilishga toʻgʻri keladi.

Turistlar bunday kuzatishlar uchun 20–30 metr uzunlikdagi ip, reja-shetli kompas, belgili lineykalalar, yengil langar choʻp, sekundomer, boshqa asboblalar bilan taʼminlanishlari lozim.

Botanik va zoologik kuzatishlar

Sayohat jarayonida joylarning oʻsimlik dunyosini oʻrganish yoki oʻsimlikni izlash uchun botanik kuzatishlar olib boriladi. Bunday paytlarda tegishli oʻsimliklardan gerbariy yasaladi, ular turlarga ajratilib, nomlari aniqlanadi.

Oʻsimliklarni terish oldidan mahalliy kishilar bilan maslahatlashish, uning rangi, bargi, boʻyi, tuzilishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni quritish, joylashtirish qoidalarini ham bilish talab etiladi.

Ayrim o‘simlik va gullarni o‘z holicha yig‘ish florizm deyiladi. Rassomlar tasviriy san‘at ishlarida bu gullarning tuzilishi, rangi umumiy formalaridan foydalanadilar.

Sayohat paytida zoologik kuzatishlar asosan hasharotlarning turlarini belgilash va ularni yig‘ishdan iborat. Hasharotlar zararli va foydalilarga ajratib o‘rganiladi. Hasharotlarni yig‘ib, uni saqlash juda oson. Buning uchun maxsus banka yoki shishalardan foydalaniladi. Hasharotni tergan joyning nomi, maydon kengligi va ularning miqdorini maxsus daftarchaga qayd etish lozim. Hasharotlarni izlash unchalik murakkab emas, oddiy durbinlarni ishlatish kifoya.

Fenologik kuzatishlar

Fenologiya biologiya fanining o‘simliklar hamda hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar qonuniyatini, ularning iqlim sharoitiga bo‘lgan munosabatini o‘rganuvchi sohasi hisoblanadi.

Fenologik kuzatishlar uchun maxsus jihoz yoki asbob talab qilinmaydi. Lekin kuzatishlar uchun maxsus kundalik tutish lozim (3-jadval).

3-jadval

Fenologik kuzatishlarda hisobga olinishi kerak bo‘lgan ba’zi belgilar
(A.Menchukovning “В мире ориентиров” kitobidan. —М.: 1960-й.).

Oylar	Tabiatdagi kuzatishlarning taxminiy muddati			Mavsum sharoitlarining nomi
	Eng erta	Kechki	O‘rtacha	
1	2	3	4	5
Mart	7 III	31 III	19 III	Birinchi quzg‘un kelishi
		15 IV	30 III	Chug‘urchuq (mayna)ning kelishi
Aprel	18 III	5 IV	1 IV	To‘rg‘aylarning kelishi
	24 III	18 IV	4 IV	Qayin darxatida suvning harakat qilishi
	25 III	17 IV	11 IV	Turnalarning shimolga uchishi
	17 III	10 V	17 IV	Gullardagi changlanish
	30 III	5 V	19 IV	Tog‘ teragining gullashi
	5 IV	7 V	22 IV	Olxaning (zirk daraxti) gullashi
	4 IV	13 V	22 IV	Baqalarning qurullay boshlashi
	8 IV	12 V	24 IV	Shumrutning kurtak otishi

1	2	3	4	5
	6 IV	14 V	25 IV	Yong‘oqning gullashi
	24 IV	9 V	30 IV	Kakkuning birinchi sayrashi
May	15 IV	24 V	7 V	Navro‘z gulining gullashi
	22 IV	23 V	9 V	Qayinlarning gullashi
	1 V	18 V	10 V	Bulbulning birinchi sayrashi
	26 IV	24 V	11 V	May qo‘ng‘izlarining uchishi
	29 IV	1 V	12 V	Qaldirg‘ochning kelishi
	2 V	27 V	13 V	Qoqining gullashi
	2 V	5 VI	24 V	O‘rmon yertutining gullashi
	6 V	5 VI	22 V	Olchalarning gullashi
	6 V	6 VI	24 V	Olmalarning gullashi
	10 V	12 VI	26 V	Marvaridgul (ландыш)ning gullashi
	8 V	14 VI	27 V	Sirenning gullashi
	11 V	17 VI	29 V	Chetan (рябина)ning gullashi
Iyun	17 V	28 VI	12 VI	Itburunning gullashi
	25 V	3	16 IV	Javdar bug‘doyning gullashi
Iyul	24 VI	20 VII	5 VII	Javdarning boshqolanishi
	28 VI	28 VIII	12 VII	Javdarning sarg‘ayishi
	15 VI	30 VII	13 VII	Lipa (arg‘uvon)ning gullashi
Avgust	1 VIII	17 VIII	10 VIII	Barglarning tusha boshlashi
Sentabr	26 VIII	26 IX	3 IX	Quzg‘unlarning ketishga hozirlanishi
	14 VIII	21 X	27 IX	Turnalarning qaytishi

Yuqoridagi tabiiy belgilar O‘zbekiston sharoitida qariyb bir yoki bir yarim oy oldin paydo bo‘ladi.

Toponomik kuzatishlarda daryo, tog‘, ko‘llar, aholi yashaydigan punktlar va joylarning nomlari, ularning kelib chiqish tarixi o‘rganiladi.

Iqtisodiy-geografik kuzatishlarda esa xo‘jaliklarning tuzilishi, tashkil qilinishi, ishlab chiqarish mahsulotlarining hajmi bilan tanishiladi.

Qishloq va suv xo‘jaligi, chorvachilik, ekologiya (o‘rmon xo‘jaligi, qo‘riqxonalar), tibbiyot va boshqa sohalarda ta‘lim olayotgan o‘quvchi-yoshlar va shuningdek, mehnat jarayonlarida faoliyat ko‘rsatayotgan yosh mutaxassislar yuqorida zikr etilgan kuzatish hamda izlanish ishlarini amalda sinab ko‘rishlari lozim. Shular asosida o‘z tajribalarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6.2. Turistik texnika bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish

Umumta'lim maktab o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning o'quvchi-yoshlari hamda oliy ta'lim tizimidagi talabalar, xizmatchilarning ommaviy piyoda yurish sayohatlarida turli xil musobaqalar o'tkazishning asosiy maqsadi quyidagidek bo'lishi mumkin.

1. Sayohat ishtirokchilarining jismoniy sifatlarini takomillashtirish, kasb-hunar bilan bog'liq amaliy faoliyatlarni mustahkamlash.

2. Piyoda yurishlarda jismoniy qobiliyatlarni sinovdan o'tkazish, "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari talablarini bajarish.

3. Turizmga bo'lgan qiziqish va havaslarni yanada oshirish, ularni keng targ'ibot qilish.

4. Ijtimoiy mehnat qilish (qishloq, o'rmon xo'jaligi, qo'riqxonalar va b.q.) yo'li bilan aholiga ko'mak berish, tabiatga tahdid soluvchilarga qarshi kurashish yoki uning oldini olish.

5. Vatan himoyasi uchun mudofaa ishlarida xizmat qilishga tayyorgarlik, maxsus jismoniy mashqlarni amalda bajarish bilan malka hosil qilish.

Turistik sayohatlar, yurishlarda xilma-xil musobaqalar, slyotlar tashkil qilinadi. Katta yoshdagi kishilarning sayohatlar jarayonida sportning voleybol, futbol, badminton, suvda suzish kabi turlaridan oddiy qoidalar bo'yicha musobaqalar, ko'ngil ochish tadbirlari tashkil qilinadi. Turli harakatli o'yinlar uyushtiriladi. Balandliklarga chiqish, tushish, chodirlarni tez o'rnatish, ovqat pishirish kabilar bo'yicha ham musobaqalar, estafetalar tashkil qilinadi. Turistik sayohatlar va yurishlar davomida tashkil etiladigan turli musobaqalar ham avvaldan tayyorlangan bo'lib, maxsus reja yoki nizom asosida o'tkaziladi.

Maktab o'quvchilarining barcha sayohat va yurishlarida yo'lda yurish tartibi, atroflarni ko'zdan kechirish, joylarni o'rganish, muzey va diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, sxema tuzish kabi tadbirlar bilan birgalikda turistik musobaqalar ham tashkil qilinadi.

Maktab o'quvchilarining turizm bo'yicha musobaqalari turistik texnika va slyot hisoblanadi.

Turistik texnikani bilish uchun unda ishlatiladigan asboblardan va tog'li joylardan o'tishda arqonlardan foydalanish, suvdagi toshlar-

dan o'tish, o'zidan oldinda ketayotgan kishining xavfsizligini ta'minlash qonun-qoidalarini mukammal bilishi kerak (8, 8a, 9, 10, 11, 12-rasmlar).

Turistik texnikaning asosiy elementlari past-baland joylarda yurish, yugurish, to'siqlardan arqon va oddiy moslamalardan qilingan vositalar yordamida o'tish, shikastlangan paytda birinchi yordam berish, karta (sxema) bo'yicha joylarni belgilash, azimuth bo'yicha yurish, chodirlarni vaqtida qurish, rukzakka kerakli buyum va ji-hozlarni joylashtirish, ovqat pishirish, choy qaynatish, devoriy ga-zeta tayyorlash, fotoalbomlarni namoyish qilish kabilardir.



Ana shu elementlar turistik musobaqa yoki slyotlarda bajariladi.

Turizmning elementlari bo'yicha musobaqani bir jamoaning o'zi ham tashkil qilishi mumkin. Bunda birnecha jamoa tashkil qilishiga to'g'ri keladi. Jamoalar tuzish imkoni bo'lmaganda namuna sifatida 10–15 turistning ishtirokida musobaqa tashkil qilinadi. Bunday musobaqalar o'quvchi va turistlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, turistik malaka hosil qilish, yirik musobaqa yoki slyotlarga tayyorlanish maqsadida maktab turizm seksiyalarida yil davomida muntazam o'tkaziladi. Bunday musobaqalar talabga javob beradigan tabiiy sharoitlarda tashkil qilinadi.


Musobaqalarni yaqinroq daryo sohillari, jar, tepa yoki uncha baland bo'lmagan tog' zonalarida o'tkazishni mo'ljallash lozim. Bunday sharoitlar bo'lmagan paytlarda, bahor, kuz hamda ta'til vaqtlarida 2–3 kunlik poxod tashkil qilish, asosiy manzilga yetgach, musobaqalarni uyushtirish kerak bo'ladi.

Turistik texnika bo'yicha musobaqa tuman yoki shahar miqyosida tashkil qilinadi. Turistik musobaqalarning eng yirigi slyot hisoblanadi.



Slyot turistlarning katta anjumani, yig'inidir. Slyot asosan tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida maxsus nizom asosida o'tkaziladi. Maktab o'quvchilarining turistik slyotlari, kasaba uyushma va xalq ta'limi organlari tomonidan tashkil qilinadi. Boshqa tashkilot, muassasa va ta'lim muassasalarida tashkil qilingan turistik slyotlarga ham tegishli sport jamiyatlari, turizm kengashlari rahbarlik qiladi. Slyot o'tkazishdan birnecha oy ilgari nizom ishlab chiqiladi va tegishli joylarga yuboriladi. Nizom asosida ta'lim muassasalari, tashkilotlari, muassasalar jamoa tayyorlaydi.



8-rasm. Arqonni qoyaga mustahkamlash usullari.



8-a rasm. Arqonni tanaga bog'lash usullari.



9-rasm. Tog'li joylarda arqonda osilib o'tish.

Slyotni o'tkazish uchun tashkiliy qo'mita tuziladi. Qo'mita hakamlar va slyotda xizmat qiladigan mas'ul xodimlarni tayinlaydi, xavfsizlik va qutqarish bo'linmalarini avvaldan ogohlantiradi. Marshrut kvalifikatsion qo'mitasi (MKQ) musobaqa o'tkaziladigan joy chizmasi va rejasini ko'rib chiqib, uni tasdiqlaydi. Bu qo'mita hakamlarni belgilangan trassa va nazorat joylariga taqsimlaydi, musobaqa oldidan esa bevosita ko'rib chiqadi. Slyot kuni hakamlar o'z joylariga ertaroq borib joylashadilar. Oriyentirlash (chamalash) elementlari bo'yicha musobaqa bo'lganda bu jaryonlar asosan yashirin (sirli) ravishda amalga oshiriladi. Chunki, jamoa vakili yoki uning a'zolari noma'lum trassani avvaldan bilmasliklari kerak. Chizma yoki azimut belgilari faqat start oldidan qatnashchilar qo'liga beriladi.

Slyot dasturida asosan quyidagi tadbirlar bo'ladi:

1. Umumiy saf, ma'lumot berish.
2. Turizm to'g'risida ma'ruza yoki biron jamoaning ish tajribasi joriy qilinadi (qisqacha mazmunda).
3. Musobaqa, estafetalar.
4. Chamalash elementlari bo'yicha musobaqa.
5. Mazali ovqat pishirish, choy qaynatish bo'yicha musobaqa.
6. Jamoa hayotini aks ettiruvchi ko'rgazma (fotoalbom, muzey materiallari, devoriy gazetalar, tanlovi.
8. Gulxan tayyorlash va uni yoqish.
9. G'oliblarni mukofotlash.

Slyotlar 2–3 kun va undan ortiq vaqtga mo'ljallanadi. Slyotlar davomida, ya'ni kechki paytlarda katta gulxanlar tashkil qilinadi. Gulxan atrofida turli suhbat, ma'ruza, konsertlar uyushtiriladi. Badiiy havaskorlar konkursi, turli raqslar, tajriba almashish, ilg'or tajribalarni joriy qilish to'g'risida ko'pgina ishlar qilinadi.

Har bir o'qituvchi yoki turizm seksiyasining rahbari turistlarga slyot nizomi, dasturi va tashkiliy ishlar shaklini izchil o'rgatishi va ularni to'la amalga oshirish uchun bor imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Slyotlar yoki turistik musobaqalar uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitni (oziq-ovqat, transport, turistik jihozlar) maktab jamoasi, tuman kasaba uyushmasi va xalq ta'limi boshqarmalari yaratib beradi. Ko'pchilik sport jamiyatlari bunday slyotlarni o'tkazganda tashkiliy ishlarni o'z zimmlariga oladilar.

O'quvchilar yozgi oromgohlarida o'tkaziladigan tadbirlarning katta qismini turistik sayohat va poxodlar tashkil etadi. Shu sababdan yozgi mavsumda va doimiy ishlaydigan oromgohlari kalendar reja asosida turistik sayohat va yurishlar uyushtiriladi.

Oromgohning har bir choragi oxirida turizm bo'yicha slyot tashkil qilinadi. Slyotni tashkil qilish va uyushtirish umumiy qoidalariga ko'ra o'tkaziladi. Slyot dastur oromgoh sharoitiga moslashtirib tuziladi. Slyotga qo'shni oromgoh yoki qishloq yoshlari hamda rasmiy kishilar taklif qilinadi. Slyot oxirida umumiy gulxan tashkil qilinadi. "Yosh turist", "Turistlar", razrad me'yorlarini yoki "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari talablarini to'la bajargan o'quvchilarga ko'krakka taqiladigan nishon va guvohnomalar tantanali ravishda topshiriladi. Gulxanda turizmga va oromgoh ishlariga ham yakun yasaladi.

Maktab o'quvchilarining turistik musobaqa va slyotlari jarayonida tibbiy xizmat tashkil qilinadi. Shunga qaramasdan markaziy turizm seksiyalari, turistik klublar va bolalar turistik-ekskursiya stansiyalarida qutqarish bo'linmalari tuzilib, ular eng tajribali turistlar, alpinistlar, jamoatchi yo'riqchilardan tashkil topadi.

Har bir turist yoki o'quvchi turistik texnika elementlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa-da, ayrim hollarda baxtsiz hodisalarga uchrashi mumkin. Shuning uchun slyot va musobaqalarda qutqarish bo'linmalarni doimo tayyor holda turadi. Ayniqsa, toshlardan, jarlardan, kanal yoki katta suvlardan arqon bilan o'tishda, chiqish va tushishda xavfsizlik va qutqarish bo'linmalari shay turadi, tegishli choralarni ko'radi.

Qutqarish bo'linmasi yoki a'zolari yil davomida, ayniqsa, qiyin ob-havo sharoitida murakkab trassa yoki joylarga borib, muntazam mashq qiladi, malaka oshiradi va o'z mahoratlarini mustahkamlab boradi.


Maktablarda, barcha ta'lim muassasalarida, shuningdek, korxona, tashkilot va muassasalardagi turizm seksiyalari bir yilda ikki marta ya'ni o'quv yili va yil oxirida o'z jamoasi va yuqori tashkilotlar uchun yozma hisobot tuzadi. Yozma hisobot tuzish uchun yil davomida qilingan ishlarni ko'zdan kechiradi, tahlil qiladi. Hisobot tuzish uchun quyidagi hujjatlarni yuritish va ularni muntazam ravishda hisobga olib borish tavsiya etiladi:



10-rasm. Oldindagi kishining xavfsizligini ta'minlash.



11-rasm. Chuqur suvdan o'tish tartibi.



12-rasm. Suvdagi toshlar ustidan o'tish.

1. Umumiy ish rejasi.
2. Seksiya ishining rejasi.
3. Turistik yurishlarning kalendar rejasi.
4. Seksiya jurnali.
5. Jamoatchi yo'riqchilar, tashkilotchilar, faollar tayyorlash jurnallari.
6. Maktab direktori, tuman xalq ta'limi bo'limi, sport jamiyati, sport tashkiloti va boshqa yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmalar, buyruqlar, nizomlar, rejalar va boshqalarni hisobga olib borish jurnali.
7. O'tkazilgan sayohatlarning yo'llari, rejasi, chizmasi tegishli tashkilotlar (MKQ) tasdig'idan o'tgan marshrut varaqalari, qaydnomalar, hisobotlar.
8. Ko'p kunlik turistik sayohatning rejasi, chizmasi, hisoboti, fotosuratlari.
9. Tayyorlangan fotogazeta, fotoalbom, fotomontajlar, video tasvirlar.
10. O'z jamoasi haqida gazetalarda bosilgan materiallar, maqola va xabarlar.

11. Turizm seksiyasi, o'quv yurti va mehnat jamoasining turizm to'g'risidagi umumiy yig'ilishlari qarorlari to'plami.

12. Turistik faollar ro'yxati.

13. Turizm bo'yicha razryad va boshqa me'yorlarni bajarganlik haqidagi hujjatlar, talabnomalar.

14. Turistik jihozlar ro'yxati.

15. O'quv muassasalari yoki otaliqdagi tashkilotlar, xo'jaliklar tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordamlarga doir hujjatlar.

16. "Kamolot" va o'quvchilar tashkilotlarining turizmga bevosita qatnashishini aks ettiruvchi hujjatlar.

17. O'tkazilgan tadbirlarni hisobga olib borish uchun daftar.

18. "Yoshlik", "Talaba" va boshqa ko'ngilli sport jamiyati, kasaba uyushma tashkilotlari, homiylarning ko'rsatgan yordamlarini aks ettiruvchi daftar.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Tashkiliy ishlar:

a) rejalashtirish;

b) seksiyani uyushtirish;

d) sayohat va yurishlarga kerakli jihozlarni to'plash;

e) turizmga doir umumiy yig'ilishlar o'tkazish;

f) amaliy tadbirlarda mas'ul kishilar, ya'ni jismoniy tarbiya, biologiya, geografiya, tarix o'qituvchilari, kamolot va o'quvchilar tashkilotlarining faol ishtiroki va to'la tahlili.

2. Umumiy tarbiyaviy, ommaviy va targ'ibot ishlari:

a) turizm to'g'risida suhbat, kechalar o'tkazish va video tasvirga olish;

b) devoriy gazetalar chiqarish, tanqidiy materiallar, uning natijalari, fotomontaj tashkil qilish;

d) sayohatlar, yurishlar, slyotlar o'tkazish va uning natijalari;

e) o'quvchilarning bir kunlik, ko'p kunlik yurishlari, yurish davomida ijtimoiy-foydali ishlar;

f) o'lkani o'rganish, qidiruv ishlari yakuni;

g) turizm bo'yicha muzey (burchak) ishlariga tavsifnoma.

3. Moliyaviy va xo'jalik ishlari:

a) turistik jihozlarning soni, yangidan olish, ish tahlili;

b) sarflangan pul, otaliqdagi tashkilotlar yordami;

d) jihozlar bilan ta'minlashdagi kamchilik yoki ilg'or tajribalar, rahbarlarning faoliyatlari.


4. Xulosalar:

a) o'quv muassasasi erishilgan yutuqlar yoki kamchiliklar sababi;

b) asosiy yutuqlar va kamchiliklar, uni tugatish yo'llari;

d) navbatdagi rejalarni amalga oshirish tadbirlari.

Umuman, hisobotda e'tiborga olingan hamda qilingan ishlarni aniq va xolisona yoritilishi, tanqidiy bo'lishi, jamoani turizmga jalb qilish yo'llarini topishga qaratilmog'i kerak. Hisobotni ilmiy-uslubiy shakllar va yo'nalishlarga qaratish, undan foydalanish zarur.




13-rasm. Turistik asboblari.

Keyingi vaqtlarda geografiya, botanika, zoologiya, tarix o'qituvchilari hamkorligida ko'pgina maktablarda o'lkashunoslik kabinetlari tashkil qilinmoqda. Ularda o'lkashunoslikning muhim tarmog'i bo'lgan turli gerbariyalar, tabiatda uchraydigan xilma-xil

toshlar va boshqa narsalar mavjud. Qisqasini aytganda, o'quvchilar sayohat davomida uchratgan qiziqarli narsalarni olib kelib, o'z muzeylariga yig'ishadi, ularni avaylab saqlashadi. Sayohatda yig'ilgan kolleksiyalarni to'plab, ularni muzeylarga yoki burchaklarga topshirishda jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamda faol turistlarning hissasi katta. Lekin shuni ham qayd qilish kerakki, ayrim sayohatchilar kolleksiya yoki gerbariy to'plashga unchalik e'tibor berishmaydi, buni o'z vazifalari deb qaramaydilar. Natijada maktablarda turizm bo'yicha maxsus muzey yoki burchaklar juda kamchilikni tashkil qiladi.

O'quvchi-yoshlarning turistik ishlarini yaxshilash, muzeylar tashkil qilish, dam olish oromgohlarida turistik poxodlarni uyushtirish, turistik jihozlarni jamg'arish va ulardan foydalanishga hozirgi kunda alohida e'tibor berilmoqda.



14-rasm. Arqonni bog'lash usullari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya, sport va turizmni rivojlantirishga qaratilgan maxsus qarorlarida (1999-yil) o'quvchi-yoshlarning sayohatlarini ommaviy ravishda tashkil qilish masalalari muhim o'rin egallaydi. O'lkashunoslik, turistik

ishlarni yaxshilash, bu bilan o'quvchilarning yaxshi hordiq chiqarish, sog'lig'ini mustahkamlash, fan olamini chuqur o'rganish, bilim, o'zlashtirishni shu yo'l bilan mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib bermoqda.

Shularni nazarda tutib, har bir o'quv muassasasi o'lkashunoslik va turistik seksiyalarni jonlashtirish, ish faoliyatini kuchaytirish, tegishli jihoz va imkoniyatlar bilan ta'minlash, maxsus muzeylar (burchak) tashkil qilish davri keldi.

Yana shuni e'tiborga olish kerakki, o'lkashunoslik va turistik muzeylar birinchi navbatda geografiya, tarix, biologiya, jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamkorligida tuzilishi lozim. Muzeyda faqat o'lkashunoslikka oid materiallarga emas, balki quyidagi turistik materiallar ham mavjud bo'lishi lozim:

a) asosiy turistik jihozlarning (chodir, ryukzak, arqonlar, idish-tovoqlar, turistik kiyimlar, binokl) namunalari 13, 14, 15-rasmlar;

b) turizmga doir adabiyotlar, plakatlari, targ'ibot vositalari;

d) ko'p kunlik sayohatlarda ishlatiladigan turistik jihozlar hamda oziq-ovqatlarning turlari, me'yorlari, tibbiyot qutisidagi dorilar, turistik me'yorlar ro'yxati;

e) jarohatlanganda birinchi yordam ko'rsatish tadbirlari, shakllari va ularning vositalari;

f) arqon bilan ishlash, uning tugunlari;

g) turistlar hayoti, musobaqalari, turistik texnikalar aks etdirilgan fotomontaj, plakatlari va fotoalbomlari;

h) sayohatlar, mashg'ulotlar davomida yozib olingan magnit lentalar, sayohat xotiralari yozilgan daftarlar, gazeta, jurnal materiallari;


i) sayohatni aks ettiruvchi hujjatli filmlar, video tasvirlar;

j) faol turistlar, faxriy turistlar, jamoatchi yo'riqchilar va tuman, shahar hamda viloyat chempionlarining fotosuratlari, ularning erishgan yutuqlari, biografiyalari.

O'quv muassasasida turistik muzeyning mazmunini ilg'or tajribalar asosida boyitish, kengaytirish lozim.

Xullas, mamlakatimizda turizm kishilarining ijtimoiy va ishlab chiqarish faoliyatidagi eng muhim jarayonlaridan biriga aylanib bormoqda. Eng kichik yoshdagi bolalar, barcha ta'lim muassasalarining talabalari, ishchi, xizmatchi, injener, ziyoli va barcha jabhadagi kishilar ham bunday tadbirga qo'shilmoqdalar.

Turizm tadbirlarini amalga oshirish, unga ommani jalb etishda kasaba uyushmasi, kamolot, sport tashkilotlari, ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish mehnat jamoalarining rahbarlari, turar-joylardagi jamoatchi faollar, ota-onalar, turistlar targ'ibot va tushuntirish ishlarini o'tkazishlari, turistik yurishlar, slyotlar uyushtirishlari zarur bo'ladi. Bu faoliyatlarni tashkil qilish va o'tkazish shakllarini talabalar nazariy va amaliy turistik mashg'ulotlar hamda yurishlar jarayonida to'la o'zlashtirib olishlari, mustahkam malaka va bilimga ega bo'lib olishlari kerak.




15-rasm. Ryukzak turlari.


Xulosa tariqasida aytish lozimki, turistik texnika bo'yicha musobaqalar va boshqa tadbirlarni tarixiy shaharlarga o'tkazilgan sayohat jarayonlarida ham o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni shahar atrofidagi mavjud bo'lgan turistik bazalar yoki oromgohlarda 1—2 kun dam olish, atrof-muhit bilan tanishish, jismoniy chiniqish tadbirlarini ham rejalashtirish lozim. Sayohatchilarning istak-xohishlariga nisbatan (yoshlar) jamoalar tuzish, oddiy estafetalar o'tkazish, balandliklarga tez chiqib-tushish, chodir o'rnatish, ovqat pishirish kabi turlarni ko'proq o'tkazish lozim.

YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA USULI BO'YICHA TARQATMA MATERIAL VA JOYLARNI TASHKIL QILISH

XX XX XX
XX XX XX
XX XX XX
XX XX XX
XX XX XX




XXXXXX
X X
X X
X X
X X



XXXXXXXXXX

XX
XX
XX
XX
XX
XX
XX



XXXXXXXXXX
XXXXXXXXXX
XXXXXXXXXX
XXXXXXXXXX
XXXXXX
XXXXXX
XXXX
X



YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA USULI BO'YICHA TARQATMA MATERIAL. MAVZU BO'YICHA «KLASTERA» USULI, 1-VARIANT



Izoh: Bu usul o'quvchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlash-tirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

MAVZU BO'YICHA «KLASTERA» USULI, 2-VARIANT



Izoh: Bu usul o'quvchilarni fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlash-tirish hamda talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

MAVZU BO'YICHA «BUMERANG» USULI, 1-VARIANT

Mavzular mazmuni (turizmning turlari)				
1	2	3	4	5
Ekspursiya	Sayr	Ekspeditsiya	Poxod	Sport turizmi

Izoh: Bu usul texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dailillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

MAVZU BO‘YICHA “BUMERANG” USULI, 2-VARIANT

Mavzular mazmuni (jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi o‘yinlari)				
1	2	3	4	5
Kuchni rivojlantirish	Chaqqonlik	Chidamlilik	Tezkorlik	Egiluvchanlik

Izoh: Bu usul texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, xotirani, g‘oyalarni, fikrlarni, dahlillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

MAVZU BO‘YICHA “ZANJIR” USULI, 1-VARIANT

Azimut – tayyorgarlik – keda – arqon 100 ta so‘zga qadar (10 – 15 daqiqa vaqt beriladi).

Izoh: bu usul jismoniy tarbiya va sport psixologiyasiga taalluqli so‘zlarni o‘z ichiga olib, talabalarni fikrlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti jarayonlariga, sport maydonlariga, suv havzalariga, stadion, sport zallariga yetaklaydi. Talabalarining bilimni baholanishi $80 - 100 = 5$ baho; $60 - 79 = 4$ baho; $40 - 59 = 3$ baho qo‘yiladi.

MAVZU BO‘YICHA “ZANJIR” USULI, 2-VARIANT

Turizm – mashq – qop – palatka –

Izoh: bu usul jismoniy tarbiya va sport psixologiyasiga taalluqli so‘zlarni o‘z ichiga olib talabalarni fikrlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini jismoniy tarbiya va sport mashg‘uloti jarayonlariga, sport maydonlariga, suv havzalariga, stadion, sport zallariga yetaklaydi.

**MAVZU BO‘YICHA “TAROZI” USULI, 1-VARIANT.
SPORT MUSOBAQASIDA QATNASHGAN SPORTCHI
(BOLA) SHUG‘ULLANUVCHI YUTUQLARINING IJOBIY VA
SALBIY TOMONLARI HAQIDA FIKR YURITISH**

Atamalar nomlari			
Ekskursiya		Poxodga chiqish	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Obyektni ilmiy o‘rganish	Iqtisodiy qiyinchiliklar	Kayfiyatni ko‘tarilishi	Yurishga qiynalish

Izoh: Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida tatbiq etiladi. Shuningdek, o‘quv materialini o‘rgatishning turli bosqichlarda qo‘llanilishi mumkin. O‘tilgan materiallar bo‘yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o‘qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o‘rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

**MAVZU BO‘YICHA “TAROZI” USULI, 2-VARIANT.
TURIZMNI TASHKIL QILISH ORQALI JISMONIY
TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING SALBIY VA
IJOBIY TOMONLARI**

Mavzular nomlari	
Ekskursiyaga borish	Chodir qurishni bajarish
Iqlim sharoitini o‘rganish	Chodir qurish usullarini bilish

Izoh: Bu texnologiya kichik guruhlarda va jamoalar orasida tatbiq etiladi. Shuningdek, o‘quv materialini o‘rganishning turli bosqichlarda qo‘llanilishi mumkin. O‘tilgan materiallar bo‘yicha xulosa qilish bosqichida yuqori samara va natija beradi, chunki o‘qiyotganlarning yuqori darajada xabardorliklarini va o‘rganilgan materiallardan erkin foydalanishini nazarda tutadi.

**MAVZU BO‘YICHA
“AGARDA MEN.....” USULI, 1-VARIANT**

Izoh: bu usul interfaol texnologiya bo‘lib, tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z

g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, har bir qatnashuvchining o'z fikrlari, o'zgalardan kutadigan tarbiyaviy xarakteridagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.


MAVZU BO'YICHA “AGARDA MEN.....” USULI, 2-VARIANT

Agarda men sayohatga borsam

Izoh: Bu usul interfaol texnologiya bo'lib, tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, har bir qatnashuvchining o'z fikrlari, o'zgalardan kutadigan tarbiyaviy xarakteridagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

MAVZU BO'YICHA “YECHIM DARAXTI” USULI, 1-VARIANT

(turizm orqali turistda paydo bo'ladigan ijobiy va salbiy tomonlar)



Izoh: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishda ta'sir qiluvchi omillar mavzusi misolida olinib, bu texnologiya orqali talabalarni faol hayotiy nuqtai nazarini shakllantirish, o'z fikriga hurmat va toqat qilish, jamoada ishlashni eplay olish, murosali qarorga kela olish, xushmuomalalikni, mas'ullik va qiziqishni uyg'otadi.

XULOSA

Sayohatlar jahon xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmush sharoitida tarbiya, ta'lim va jismoniy chiniqish vositasi sifatida muhim o'rinlarni egallagan.

O'zbekiston sharoitida tarixiy va madaniy obidalarga sayr-sayohatlar tashkil qilish, ularda aholining barcha qatlam hamda toifalaridagi kishilarni faol ishtirok ettirish shu bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, ta'til paytlarida va ulug' sanalarga bag'ishlangan nufuzli tadbirlarda o'quvchi-yoshlar, talabalar va mehnatkashlar ommasi doimiy ravishda ishtirok etib kelmoqda.

Toshkentning bugungi jamoli, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning arxeologik, madaniy obidalari xorijiy mamlakatlarning ham sayyohlarini o'ziga rom etmoqda.

O'zbekistonning mustaqilligi tufayli o'quvchi-yoshlarni kasb-hunar egallashga safarbar etish, o'quv jarayonlarida jismoniy madaniyat va turizm orqali ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalashga alohida e'tibor kuchaytirilmoqda.

Ijtimoiy-madaniy turmushning tobora yaxshilanayotganligi tufayli sog'lom turmush tarzi mazmunida jismoniy madaniyat, sport va turizm chuqur o'rin egallamoqda.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlaridagi sayr-sayohat (turizm) talablarini bajarish, ta'lim muassasalarining “Jismoniy tarbiya” dasturlaridagi turizm mashg'ulotlarini tashkil qilish davr talabi hisoblanadi. Bu yo'lda maxsus kadrlar tayyorlash, kasb-hunar egalarining turizm sohasidagi bilim va malakalarini chuqurlashtirish sihat-salomatlikni ta'minlashda, ya'ni sog'lom avlod davlat dasturini amalga oshirishda asosiy vazifa hisoblanadi.

ILOVALAR

1-ilova

Turizm bo'yicha razryadlar va kategoriyalar ko'rsatkichi. Sayohatlar soni

Unvonlar va razryadlar	Jinsi	Sayohatlarning qiyinchilik kategoriyalari										
		I		II		III		IV	V			
		qatnashchi	rahbarlik	qatnashchi	rahbarlik	qatnashchi	rahbarlik	qatnashchi	rahbarlik	qatnashchi	rahbarlik	barcha sayohatlar
Sport ustasi	Erkaklar	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	11
	Ayollar	1	1	1	1	1	1	1	2	2	-	11
Sport ustaligiga nomzod												
	Erkaklar	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	11
	Ayollar	1	1	1	1	1	1	1	-	-	-	7
I	Erkaklar va ayollar	1	1	1	1	1	1	1	-	-	-	7
II	Erkaklar va ayollar	1	1	1	-	-	-	-	-	-	-	3
II	__#__	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
I yoshlar	__#__	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
II yoshlar *	__#__	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
III yoshlar **	__#__	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

* Dala sharoitida 5 kun tunash sharti bilan 1 marta poxod uyushtirilib, jami masofa 65 km dan kam bo'lmaganda beriladi.

** 3 kun poxodda 30 km masofani bosib o'tish kerak.

SAYOHATLARNING QIYINCHILIK DARAJASINI ANIQLASH BELGILARI

Ko'rsatkichlar	Qiyinchilik kategoriyalari				
	I	II	III	IV	V
Sayohatlarni muddati (kun hisobida shundan kam bo'lasligi lozim)	6	8	10	13	16
Sayohat masofasining oralig'i, km:					
piyoda	130	160	200	230	250
chang'i	130	160	200	250	300
tog'	100	120	140	180	150
Suv (sol va eshkak eshib)	150	175	200	275	250
velosiped	250	400	600	800	1100
avtomobil	2000	2000	2500	4000	4500
mototsikl	2000	2000	2500	3200	4000

2-ilova

Sayohatlar uchun shaxsiy turistik jihozlar:

1. Buyum xalta (ruksak).
2. Turistik ko'rpa (yoki odevay).
3. Krujka, qoshiq, kosa, pichoq, ochqich.
4. Oyoq kiyimlari (botinka, keda).
5. Sochiq, sovun, tish cho'tkasi, pasta.
6. Sport kostumi.
7. Issiq yoki soyabonli bosh kiyim.
8. Quyoshga qarshi ko'zoynak.
9. Jun va oddiy paypoqlar.
10. Ichki kiyimlar, sviter.
11. Shtormovka (yomg'irga qarshi kostum).
12. Yon daftarcha, ruchka, qalamlar.
13. Fotoapparat.
14. Flyaga.
15. Ledorub (muz va qorli joylarda ishlatiladigan asbob).
16. Soat.
17. Tibbiyot jihozlari (paketi).
18. Kompas.
19. Sellofan xaltacha.
20. Nina, ip.
21. Ustara (britva).

8–10 kishilik, guruh uchun ishlatiladigan sayohat jihozlari:

1. Chodirlar (palatka)- “Pamirka” yoki “Gimalayka”	2–3 ta
2. Xavfsizlikning oldini oladigan arqonlar (30–40 m)	1–2 ta
3. Ovqat tayyorlash idishlari (qozon, cho‘mich, chelak va b.q.)	1–2 ta
4. Boltachalar (bolg‘a, tesha)	2–3 ta
5. Karta yoki sxemalar	1–2 ta
6. Kompaslar	2–3 ta
7. Tibbiy quti (aptechka)	1–2 ta
8. Gugurtlar	10–15 ta
9. Ta‘mirlash jihozlari (ip, igna, qaychi va hokazo)	3–4 ta
10. Fonarlar, shamlar	5–6 ta
11. Kundalik daftar (ruchka, qalamlar, rezinka, olmos)	2–3 ta
12. Durbin	1–2 ta
13. Tranzistor yoki magnitafon, mobil telefonlar	1–2 ta
14. Fotoapparat (kinoapparat, videotasvir)	2–3 ta
15. Miltiqlar (karabin)	2–3 ta
16. Kerogas	1 ta

YO‘L (MARSHRUT) VARAQASI

(Dam olish kunlari va 1 kategoriyagacha bo‘lgan poxodlar uchun)

guruh _____

kishi _____

marshrut bo‘yicha (asosiy punktlar) _____

Dala sharoitida tunash yo‘li bilan “_____” _____

dan “_____” _____ 20____ gacha

Guruh rahbari _____

(ismi va sharifi)

Marshrut varaqasini beruvchi tashkilot _____

(Mas‘ul kishining imzosi)

Muxr o‘rni “_____” _____ 20____

Yurish rejasi

Kunlar	Marshrut yo‘llari	km	Yurish usullari	Ekskursiya obyektlari va ijtimoiy-foydali ishlar

Sayohat yo'lining chizmasi

Yo'llarda qilingan ijtimoiy-foydali ishlar

Guruh rahbari _____

(imzo)

“ ”

20 _____

3-ilova

Oziq-ovqatlar va ularning quvvat miqdori (100 g mahsulotga nisbatan gramm hisobida)

T/r	Oziq-ovqatlar nomi	Hazm qilinuvchi moddalar			Kaloriyalar soni (100 g ovqatda)
		oqsil	yog' - lar	uglevodlar	
1.	Dimlangan go'sht	25,0	12,8	0,5	223
2.	Quyultirilgan shakarli sut	13,4	27,8	0,4	315
3.	Shakarli qaymoq	7,1	8,6	54,9	334
4.	Quruq sut	8,1	18,5	46,9	396
5.	Qora non	27,1	24,6	25,8	480
6.	Bug'doy unidan tayyorlangan qattiq non (suxari)	4,7	0,8	39,2	187
7.	Shakar	10,5	1,2	68,5	335
8.	Grechixa ushog'i (yormasi)	-	-	98,9	406
9.	Manna yormasi (oqshoq)	8,6	2,3	62,4	312
	Arpa yormasi	9,5	0,7	70,4	334
10.	Suli yormasi	6,3	1,2	66,2	310
11.	So'k yormasi	8,9	5,9	59,8	336
12.	Guruch	8,2	2,2	63,8	316
13.	Makaron	6,4	0,0	72,0	330
14.	No'xat	9,6	0,8	71,2	338
15.	Yarim quritilgan kolbasa	15,2	2,1	49,3	286
16.	Qurtilgan kolbasa	14,5	31,1	-	349
17.	Mol yog'i	18,9	36,4	-	420
18.	Sariyog'	1,8	78,6	-	739
19.	Eritilgan yog'	0,5	79,3	0,5	742
20.	Pishloq	-	94,1	-	875
21.	Tuxum kukuni (uni)	19,2	27,0	3,4	348
22.	Ho'l va quruq mevalar talab asosida	49,9	34,2	-	523

TURIZM FANIDA QO‘LLANILADIGAN ASOSIY SO‘ZLARNING O‘ZBEKCHA – RUSCHA LUG‘ATI

Tasnif	Классификация
Mutlaq g‘olib	Абсолютный чемпион
Osiyo o‘yinlari	Азиатские игры
Bekor qilish	Аннулировать
Ajrim chiqaruvchi hay‘at	Аппелляционное жюри
Hakam	Судья
O‘rtadagi hakam	Арбитр
Hakamlar jamoasi	Арбитраж
Sport e‘lonnomasi	Спортивная афиша
Yon hakam	Боковой судья
Ishqiboz (shinavanda, muxlis)	Болельщик
Katta sport maydonining sahni	Большая спортивная арена
Sport faxriysi	Ветеран спорта
Musobaqa turlari	Виды соревнования
Uchrashuv	Встреча
Ikkinchi hakam	Второй судья
Ikkinchi darajali sportchi	Спортсмен
	второразрядник
Ikkinchi darajali sportchi ayol	Второразрядница
Yuqori natija	Высокий результат
Sport ro‘znomasi	Спортивная газета
Hakamlar bosh hay‘ati	Главная судейская коллегия
	Главный претендент
Bosh da‘vogar	Главный приз
Bosh sovrin	Главный судья
Musobaqa bosh hakami	соревнования
	Главный судья
Bosh hakam	Главный судья турнира
Turnir bosh hakami	Главный тренер
Bosh murabbiy	Главный тренерский совет
Murabbiylar bosh kengashi	Грамота
	Дворец спорта
Yorliq	Дважды победитель
Sport saroyi	Дебют
Ikki karra g‘olib	
Debyut (birinchi marta ishtirok etish)	

O'n ballik tizim
 Diplom
 O'yin (musobaqa)ga qatnashish
 xuquqidan mahrum etish
 Sportchi kundaligi
 Qo'shimcha iltimosnoma
 Ruxsat berish
 Sport yutuqlari
 To'pni yerga urib olib yurish
 Jamoa o'rinbosarlar tarkibi

 Yakkakurash
 Qur'a (chek) tashlash
 Hakamlar imo-ishorasi
 Ogohlantirish belgisi

 Hakamlar hay'ati
 G'alabada ko'rsatgan irodasi uchun
 Yakuniy o'yin
 Yakuniy hisob
 Xizmat ko'rsatgan sport ustasi

 Oltin nishon
 Mintaqa musobaqalari
 Oliy darajadagi o'yinchi
 Jamoa o'yinchilari
 Katta harakatli o'yinchi

 Tanlangan sport turi
 Shaxsiy o'yin
 Shaxsiy taktika
 Jismoniy madaniyat yo'riqchisi
 Axborotchi
 Otchopar
 O'yin natijasi
 Yakuniy jadval
 Yakuniy qaydnoma
 Sport ustaligiga nomzod

 Jamoa sardori
 Karate (yakkakurash)

Десятибальная система
 Диплом

 Дисквалификация
 Дневник спортсмена
 Дозаявка
 Допуск
 Спортивные достижения
 Дриблинг, ведение мяча
 Дублирующий состав
 команды
 Единоборство
 Жеребьевка
 Жестикуляция судьи
 Желтая карточка,
 предупреждения
 Судейская коллегия
 За волю к победе
 Заключительный матч
 Заключительный счет
 Заслуженный мастер
 спорта
 Золотая медаль
 Зональные соревнования
 Игрок высокого класса
 Игроки команды
 Игрок большой
 подвижности
 Избранный вид спорта
 Индивидуальная игра
 Индивидуальная тактика
 Инструктор физкультуры
 Информатор
 Ипподром
 Исход матча, игры
 Итоговая таблица
 Итоговый протокол
 Кандидат в мастера
 спорта
 Капитан команды
 Каратэ

Mehmonlar jamoasi	Команда гостей
Ayollar jamoasi	Женская команда
Erkaklar jamoasi	Мужская команда
Jamoaviy natija	Командный результат
Buyruq bermoq	Командовать
Sharhlovchi	Комментатор
Musobaqalar yig'indisi	Комплексы соревнований
Ko'rik	Конкурс
Tekshirish belgisi	Контрольная отметка
Tekshirish mashqi	Контрольное упражнение
Nazorat sinovi	Контрольные испытания
Hurmat davrasi	Круг почета
Sovrin	Приз
Shaxsiy birinchilik	Личное первенство
Shaxsiy natija	Личный результат
Bronza medali	Бронзовый медаль
Oltin medal	Золотой медаль
Kumush medal	Серебрянный медаль
Xalqaro uyushma	Международная федерация
Xalqaro musobaqalar	Международные соревнования
Xalqaro match	Международный матч
Xalqaro turnir	Международный турнир
Xalqaro Olimpiya qo'mitasi	Международный Олимпийский комитет
Dunyo miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalarida erishilgan eng yuqori ko'rsatkich	Высокие результаты в спортивных соревнованиях мирового значения
Kelmaslik, hozir bo'lmaslik	Неявка
Mukofotlash	Награждение
Milliy terma jamoa	Национальная сборная команда
Milliy uyushma	Национальная федерация
Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOK)	Национальный Олимпийский комитет (НОК)
O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi	Национальный Олимпийский Комитет Республики Узбекистан

Durang
Sport kiyimi
Olimpiya qishlog'i
Olimpiyachi
Olimpiya g'oyasi
Olimpiya qasamyodi
Olimpiya hakamlarining qasamyodi

Olimpiya o'yinlari
Olimpiada shiori
Olimpiada shahodanmomasi
Olimpiya olovi
Olimpiya mukofoti
Olimpiya stadioni
Olimpiada tumori
Olimpiya mash'ali
Olimpiada harakati
Ma'suliyatli musobaqalar

Ochko
G'alaba, zafar, yutuq
G'olib, yengib chiqqan
Ilgarigi rekord natijadan yuqoriroq
natija ko'rsatish
Razryadni qayta tasdiqlash
Yarim final
Dastlabki
Sovrinli o'rin
Kim o'zar, poyga
Musobaqa bayonnomasi
Shohsupa
Razryad, tur, daraja, malaka darajasi
Razryadli sportchi ayol
Razryad me'yori va talablari

Razryadli sportchi
Razryadli sportchi ayol
Terma
Terma jamoa
Sport turlari seksiyalari
O'yin tartibi

Ничья
Спортивная одежда
Олимпийская деревня
Олимпиец
Олимпийская идея
Олимпийская клятва
Олимпийская клятва
судей
Олимпийские игры
Олимпийский девиз
Олимпийский диплом
Олимпийский огонь
Олимпийский приз
Олимпийский стадион
Олимпийский талисман
Олимпийский факел
Олимпийское движение
Ответственные
соревнования
Очко
Победа (первенство)
Победитель
Победить рекорд

Подтверждение разряда
Полуфинал
Предварительный
Призовое место
Пробег
Протокол соревнования
Пьедестал
Разряд
Разрядница
Разрядные нормы и
требования
Разрядник
Разрядница
Сборный
Сборная команда
Секции по видам спорта
Система игры

Musobaqa oʻtkazish tartibi
Jismoniy tarbiya tizimi

Musobaqa uslubi
Sport texnikasi
Sport trenirovkasi

Sport axloqi
Sport unvoni
Sport mahorati

Sport kechasi
Sport klubi

Sportchi
Sportchi ayol

Hakamlilik
Hakam

Tablo

Mashq qilish

Qatnashuvchi

Faol dam olish

Alpinizm

Alpinist, baland togʻlarga chiqish
sporti bilan shugʻullanuvchi kishi
Alpinizm bilan shugʻullanuvchi ayol

Togʻlarga koʻtarilish

Marshrut (manzilga borish yoʻli)

Malaka

Harakat malakasi

Ryukzak, turistlar ishlatadigan xalta

Sport oromgohi

Mushakning mutlaq kuchi

Moslashish, koʻnikma hosil qilish

Sharoitga moslashish,

Iqlimga moslashish

Kislorodsiz energiya hosil boʻlishi

Tana qismlarini oʻlchash
Tayanch harakat apparati

Kislorodli yoʻl bilan kuch
hosil boʻlishi

Система розыгрыша
Система физического
воспитания

Соревновательный метод

Спортивная техника

Спортивная тренировка

Спортивная этика

Спортивное звание

Спортивное мастерство

Спортивный вечер

Спортивный клуб

Спортсмен

Спортсменка

Судейство

Судья

Табло

Тренировка

Участник

Активный отдых

Альпинизм

Альпинист

Альпинистка

Восхождение

Маршрут

Навык

Двигательный навык

Рюкзак

Спортивный лагерь

Абсолютная сила мышц

Адаптация

Аклиматизация

Анаэробная

производительность

Антропометрия

Опорно-двигательный
аппарат

Аэробная производитель-
ность

Ish qobiliyatini tiklash

Ishga kirishish

Salomatlik guruhi

Umum jismoniy tayyorgarlik guruhi

Doping, kuch-g'ayratni oshiruvchi
modda

Doping nazorati

Yurak zarbasi, puls

Mushak qisqarishi

Mushak, mushaklar

Yurak ishi

Jismoniy ish qobiliyati

Mushak yirtilishi

Bo'y o'lchagich

Bo'g'im

Toliqish

Dispanser

Dispanserizatsiya (ko'rikdan o'tish)

Bovliq

Panja

Vaznni tekshirish

Tekshirish mashqi

Tekshiruv sinovi

Yengil vazn

Eng yengil vazn

Uqalash

Harakat a'zolari

Yurak

Восстановить

работаспособность

Вырабатывание

Группа здоровья

Группа общей

физической

подготовки

Допинг

Допинг контроль

Минутный объем сердца

Мышечное сокращение

Мыщца, мышцы

Работа сердца

Физическая

работаспособность

Разрыв мышцы

Ростомер

Сустав

Утомление

Диспансер

Диспансеризация

Жгут

Кисть

Контрольное взвешивание

Контрольные упражнения

Контрольные испытание

Легкий вес

Легчайший вес

Массаж

Органы движения

Сердце

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zRning Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 1992.
2. O‘zRning “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: 2000.
3. O‘zRning “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. –T.: 1999.
4. O‘zRVMning “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 1999.
5. O‘zRVMning turizmni rivojlantirish va shu sohada kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq qarorlari. 1999.
6. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T.: 1992.
7. *I.A. Karimov*. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. –T.: 1994.
8. *I.A. Karimov*. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: 1999.
9. *I.A. Karimov*. Inson baxt uchun tug‘iladi. –T.: 2002.
10. *R.Abdumalikov*. Sayohat sahifalari. –T.: Yosh gvardiya, 1971.
11. *R.Abdumalikov*. Turizm. –T.: O‘qituvchi, 1978.
12. *R.Abdumalikov, T.Xoldarov*. Turizm. –T.: O‘qituvchi, 1988.
13. *R.Abdumalikov, T.Xoldarov, E.Yu. Daurenov*. Turizm. –T.: 1997.
14. *В.И.Деркач*. Что нам даёт туризм. Физ. куль. в школе. № 5. –М.: 1990.
15. *С.П.Драгачев*. Туризм. –М.: Просвещение, 1978.
16. *Б.П. Маргунов*. Туризм. –М.: Просвещение, 1978.
17. Туристские походы выходного дня. –М.: ФиС, 1984.
18. Подготовка общественных туристических кадров. –М.: 1982.
19. Туризм в школе. –М.: ФиС, 1983.
20. *Ю.А. Шальков*. Здоровье туриста. –М.: ФиС. 1987.
21. *Б.М. Хусанбаев, Л.А. Тулаганов, В.Г. Разина*. Дорогами Великого шелкового пути. –Т.: 1995.
22. *А.В. Колбинцев*. В горах Чимёна. –Т.: O‘zbekiston, 1984.
23. *В.Рацек*. Путешествие по Ферганской долине. –Т.: 1978.
24. Jismoniy tarbiya va sport mavzusidagi Respublika va Xalqaro ilmiy anjumanlarning to‘plamlari, 1991–2006-y.y.

25. “Fan sportga” ilmiy-nazariy jurnal, 1-son, 1988.
26. *M.R. Usmanov*. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida). Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. 2004.
27. *A.N.Norchayev*. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o‘sishga ta’siri: Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti. —T.: 2004.
28. *А.И. Михайличенко*. Информационная и сбытовая логистика в туризме: Киевский нац. торгово-экономический университет. Киев. 2001.
29. *Э.В. Слободенюк*. Туризм как фактор гуманизации отношений между народами: институт философии им. Г.С. Сковороды НАН Украины. Киев. 2003.
30. *В.К. Федорченко*. Теоретические и методические основы подготовки специалистов для сферы туризма: институт педагогики и психологии профессионального образования АПН Украины, Киев. 2004.
31. *А.А. Чечел*. Совершенствование государственных механизмов управления развитием туризма в Украине. Донецк. 2004.
32. *Б.У. Турдумамбетов*. Проблемы и перспективы развития туризма в горных условиях. НАН Кыргызской Республики Центр экономический Исследований. Бишкек. 2004.
33. *О.А. Мечковская*. Экономико-географические тенденции развития международного туризма в странах Центральной и Восточной Европы. Беларусь. Государственных университет. Минск. 2004.
34. “Barkamol avlod” yili davlat dasturi. —T.: O‘zbekiston, 2010.
35. Internet saytlari:
- | | |
|--|--|
| www.turizm.ru | www.turizm.ru |
| www.turne.cjm.ua | www.tourism.ru/ |
| www.gov.uz/ru/foreign/tourism | turmir.com |
| www.samitol.com | www.marshruty.ru/ |
| www.otdohni.uz | expomenu.ru/ |
| www.topturizm.ru/ | |

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. TURIZMNING TASHKILIY RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Turizmning vujudga kelishi va rivojlanishi	7
1.2. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi	9
1.3. O'zbekiston mustaqilligi davrida turizmning yangi yo'nalishlari va ularning istiqbollari	18

II bob. TURIZMNING SHAKLLARI VA TURLARI

2.1. Turizmning shakllari haqida tushunchalar	25
2.2. Turizmning turlari va ularning ahamiyati	26
2.3. Turizm turlarining tasnifi	28

III bob. SAYOHATLARNING UMUMIY XUSUSIYATLARI

3.1. O'zbekistonning sayohatbop manzillari	31
3.2. Buyuk Ipak yo'li	44

IV bob. PIYODA YURISH SAYOHATLARI

4.1. Sog'lomlashtiruvchi ommaviy piyoda yurish sayohatlarining tarbiyaviy ahamiyati	49
4.2. Piyoda yurish sayohatlarini tashkil qilish va o'tkazish masalalari	51
4.2.1. O'quvchi-yoshlar va talabalarining sayohatlari	51
4.2.2. Bir kunlik va ko'p kunlik sayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish	54
4.2.3. Mehnatkashlarning sayohatlari	76
4.3. Sayohatlarda jismoniy chiniqish yo'llari	78
4.3.1. Sayohatlargacha jismoniy tayyorgarlik	78
4.3.2. Sayohatlar jarayonida jismoniy chiniqish	79
4.4. Sayohatlarda o'lkani o'rganish, tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy foydali mehnat	81
4.4.1. Sayohatlar jarayonida o'lkashunoslik	81
4.4.2. Tabiatni muhofaza qilish	83
4.5. Sayohatlarda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish	84

4.5.1. Tibbiy bilim va amaliy malakalarga ega bo'lish	84
4.5.2. Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam berish usullari	85

V bob. TURISTIK JAMOALAR VA ULARNING FAOLIYATLARINI TASHKIL QILISH

5.1. Turistik jamoa haqida tushunchalar	89
5.2. Turistik klublar va seksiyalarning faoliyati	91
5.3. Jamoatchi faollarni tayyorlash	93

VI bob. TOPOGRAFIK TUSHUNCHALAR VA TURISTIK TEXNIKA BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH

6.1. Topografik bilimlar haqida tushunchalar	95
6.1.1. Topografiya va shartli belgilar	95
6.1.2. Joylarni chamalab topish usullari	98
6.1.3. Sayohatlarda o'lkashunoslik va qidiruv ishlari	105
6.2. Turistik texnika bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish	111
Xulosa	129
Ilovalar	130
Foydalanilgan adabiyotlar	140

X.TULENOVA, T.XOLDAROV

TURIZM

(SAYYOHLIK)

(Qayta nashr)

O'quv qo'llanma

Muharrir: *S.Nabiyeva*

Badiiy muharrir: *M.Odilov*

Kompyuterda sahifalovchi: *A.Tillaxo'jayev*

Nashr lits. AI № 174, 11.06.2010.

Bosishga ruxsat 31.10.2013da berildi. Bichimi 60×84¹/₁₆.

Ofset qog'ozi №2. Times garniturası.

Shartli b.t. 8,5. Nashr-hisob t. 9,0. Adadi 355 dona.

55-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.

100084. Toshkent. Kichik halqa yo'li, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI» bosmaxonasida
ofset usulida chop etildi.

100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy